


FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILI





65.053
F-96

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

M.Q. PARDAYEV, B.A. XASANOV,
B.YU. MAXSUDOV, D.A. ZULUNOVA

FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan 5230900 - «Buxgalteriya hisobi va audit»
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan

Cho'ipon nomidagi nashriyot matbuas ijodiy yeri

Toshkent - 2012

BUXGAR YUQORI
TEKNOLOGIYALAR MUHANDISLIK -
TEXNIKA INSTITUTI

ARM
-y- 2012 -y-

УДК: 657.1(075)

КВК 65.053

F 96

Taqrizchilar:

A.A. Majidov — TTESI «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dosent,

R.O. Xolbekov — TDIU «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

**F 96 Funksional qiymat tahlili/M.Q. Pardayev (va boshq.);
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. —
Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
— 176 b.
1. Pardayev M.Q.
ISBN 978-9943-05-537-7**

Mazkur o'quv qo'llanma funksional qiymat tahlili(FQT)ga bag'ishlangan bo'lib, unda FQTning mazmuni, predmeti, obyekti, vazifalari, metodi, turlari, bosqichlari, qo'llaniladigan usullari, ko'rsatkichlari, axborot manbalari yoritilgan. FQTning har bir bosqichi alohida yoritilgan. Shuningdek, FQTning boshqa ayrim nazariy va amaliy jihatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining «Buxgalteriya hisobi va audit» o'quv yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan mutaxassislar va FQT usullari bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin

УДК: 657.1(075)

КВК 65.053

ISBN 978-9943-05-537-7

© M.Q. Pardayev va boshq., 2012

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012

K I R I Sh

Funksional qiymat tahlilining ahamiyati O'zbekistonda bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda yanada oshdi, chunki bu iqtisodiyot har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'z faoliyatini mukammal tahlil qilib, mahsuloti, ishi va xizmati sifatini uzliksiz oshirib borishini talab qilmoqda.

Bu tadbirlar shu subyektning erkin raqobat sharoitida uning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy omillardir. Zero, iqtisodiy erkinlik o'z navbatida iqtisodiy mas'ullikni ham keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larning raqobatbardoshligi, sifati va bahosi muhim ahamiyatga ega. Bunga amaliyotda FQTni qo'llash orqali erishish mumkin. Shu tufayli, mazkur o'quv qo'llanmada FQTning nazariy va amaliy masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Kitob 15 bobdan iborat bo'lib, unda FQTning mohiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ham qisqacha yoritilgan.

FQTning vazifasi, ayniqsa O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega. Buni inobatga olib alohida bobda aynan shu masalaga ham alohida ahamiyat berilgan.

O'quv qo'llanmada FQTning vujudga kelish tarixi qisqacha yoritilgan. Bu bobda FQT uslubiyatini yaratishda hissa qo'shgan olimlar va uning amaliyotda qo'llanilish tarixi ko'rsatib berilgan. FQTning O'zbekistonda yaratilishiga ham to'xtab o'tilgan.

O'quv qo'llanmada funksional qiymat tahlilining iqtisodiy tahlil tizimidagi o'mni va o'ziga xos xususiyatlari, ularni amalga

oshirish bosqichlariga ham yetarli darajada o‘rin berilgan. Chunki, FQTni amalga oshirish va uning natijasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uning har bir bosqichini yaxshi tushunib olish lozimdir.

FQT iqtisodiy tahlilning alohida shakli sifatida qaralgan bo‘lib, uni amalga oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ta’kidlangan. Uning o‘ziga xosligi ishning har bir bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Shu tufayli maxsus paragraf FQTning o‘tkazish bosqichlariga bag‘ishlangan.

Funksional qiymat tahlilining bosqichlari bir qancha bo‘g‘inlardan, ya’ni tayyorgarlik ko‘rish bosqichi, axborotlarni to‘plash bosqichi, masalaning mohiyatini o‘rganish bosqichi va ijodiy bosqichlardan iborat. Bundan tashqari, FQTda noan’anaviy usullar ham qo‘llaniladi. Shulardan eng muhimlari bo‘lgan evristik tahlil va «fikrlar hujumi» usullariga alohida to‘xtalingan.

Funksional qiymat tahlilini amaliyotga qo‘llashda va uning samaradorligini ta’minlashda tadqiqot bosqichi muhim o‘rin tutadi. Shu tufayli ushbu masalaga ham qo‘llanmada alohida ahamiyat berilgan.

Funksional qiymat tahlilini o‘tkazishdan asosiy maqsad, uni ishlab chiqarishda qo‘llash va joriy qilishdir. FQT xo‘jalik dastaklarining eng samarali turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli uning samaradorligiga ham alohida o‘rin berilgan. Eng muhimi, ushbu bobda nazariy masalalar faqat amaliy ma’lumotlar bilan emas, balki chizmalar orqali ham yoritib berilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada funksional qiymat tahlilining xizmat sohasi va boshqarishda qo‘llanilishiga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Har qanday iqtisodiy mexanizmdan samarali foydalanish uchun uni yaxshi tashkil qilishni ta’minlash lozim. Bu esa funksional qiymat tahlilini tashkil qilishni taqozo qiladi. Bularni inobatga olib qo‘llanmada ushbu masalaga ham tegishli tarzda o‘rin berilgan.

Barcha sohalarda masalani yetarli darajada hal qilish uchun shu sohaga munosib kadrlarni tanlash lozim. Buni inobatga olib ishda funksional qiymat tahlili uchun kadrlarni tanlash va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari qarab chiqilgan.

FQT masalasi bu juda keng va hali O'zbekiston olimlari tomonidan yetarli darajada o'r ganilmagan soha hisoblanadi. Ushbu qo'llanma mazkur sohadagi o'zbek tilidagi birinchi ish bo'lganligi tufayli unda ba'zi kamchiliklar, munozarali jihatlar bo'lishi tabiiy. Shu tufayli mualliflar tomonidan FQTning nazariy va amaliy masalalari bo'yicha barcha taklif va tavsiyalar, tanqid va e'tirozlar bajonidil qabul qilinadi.

Bular ishning kelgusida yanada takomillashuviga turtki bo'lsa, eng muhimmi, uning amaliyotda qo'llanilishi va ishlab chiqarish samaradorligining ko'tarilishiga, O'zbekistonimizda ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi va nufuzining oshishiga asos bo'ladi.

1-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA KORXONALARING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ZARURLIGI VA VAZIFALARI

1.1. Funksional qiymat tahlili (FQT)ning bozor munosabatlari sharoitida obyektiv zarurligi

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning ishlab chiqarayotgan mahsuloti, ko'rsatayotgan xizmati va bajarayotgan ishlarining raqobatbardoshligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning soni bilan birga sifati, narxi va uning yashovchanligi yuqori bo'lishi lozim. Bunday holatni FQT orqali ta'minlash mumkin.

Erkin iqtisodiyot sharoitida xo'jalik subyektlari ko'zda tutilmagan hodisa va jarayonlarga ko'plab duch kelishi muqarrar. Bunday sharoit har bir korxona va firma o'z faoliyatini chuqr tahlil qilib, noan'anaviy qarorlar qabul qilishni, ko'zda tutilmagan chora-tadbirlarni qo'llashni talab qiladi.

Bunga erishish uchun ham funksional qiymat tahlilidan samarali foydalanish lozimdir.

Funksional qiymat tahlili deganda har bir bajariladigan funksiyani (bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli) qiymat jihatidan baholab, mahsulot (ish, xizmat)ning sifatini oshirgan holda keraksiz va zararli funksiyalarni bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyatlarni topish va ishga solishga qaratilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

FQT jahon amaliyotida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda keng qo'llanib kelinmoqda.

Uning samaradorligi beqiyos ekanligini jahon amaliyoti takror va takror isbotlab kelmoqda, chunki mahsulot (ish, xizmat)ning sifatiga unga sarf qilinadigan xarajatlarni kamaytirish evaziga erishib kelinmoqda.

Bu esa o‘z navbatida korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatda yutib chiqishini, uning moliyaviy barqarorligining mustahkamligini ta’minlamoqda.

FQT iqtisodiyotning barcha sohalari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, xizmat, savdo kabilalar)da qo‘llanilishi mumkin. Uning ahamiyati beqiyosdir, chunki jamiyatda FQT mahsulotning tannarxini kamaytirib sifatini saqlab qolgan holda, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va iste’molchilar manfaatlari mushtarakligini ta’minlaydi.

U avvalo, mehnatkashlarning manfaatiga mos keladi, ularni samarasiz ishlashdan, keraksiz funksiyalarni amalga oshirishdan holi qiladi va shu yo‘l bilan barcha qilinadigan mehnatning foydaliligini ta’minlaydi.

Shu orqali ular bir xil mehnatga bir vaqt birligida ko‘p mehnat haqи olishga erishishadi.

FQT mulk egasi va investorlar manfaati uchun ham xizmat qiladi.

U eng avvalo, mahsulot sifatini yaxshilash evaziga mulk egasining iste’mol bozoridagi nufuzini oshiradi. Ikkinchidan esa korxonada ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish evaziga uning iqtisodiy samaradorligining oshishiga va foydaning ko‘payishiga zamin yaratadi.

Korxonaning faoliyatida moliyaviy barqarorlik ta’minlanib, uning raqobatga bardoshliligi oshadi.

FQT bozor munosabatlari sharoitida davlat manfaatini ham o‘zida aks ettiradi. Korxona faoliyati samaradorligini oshirish, u ishlab chiqargan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi nufuzi oshganligi, birinchidan, davlatni tashqi mamlakatlarga tanitadi va ikkinchidan, uning budgetiga har xil soliqli va soliqsiz to‘lovlar orqali tushumlarini ko‘paytiradi.

Demak, FQT butun manfaatlar mushtarakligini va muvosifligini ta’minlaydi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillaridan biri ekanligidan dalolatdir.

1.2. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli beqiyosdir. Chunki, ko'zda tutilgan xarajatlar, ularning sarfi va tejamliligi hali iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lmasidan oldin aniq bo'ladi. Bunda har bir funksiyaga ketadigan vaqt va shu bilan bog'liq moddiy xarajatlar oldindan belgilangan bo'ladi.

Biroq, amaliyotda hamisha ko'zda tutilgandek holatlar bo'lmasligi mumkin.

Bu esa FQT usullaridan foydalanishni biroz murakkab-lashtiradi. Lekin FQTning qo'llanilishi ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning ham tartibli va intizomli bo'lishini taqozo qiladi. Tejamkorlik va tartib-intizom bor joyda samaradorlikning bo'lmasligi mumkin ham emas. Shu tufayli FQTni ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda asosiy samarali usullardan deb baholash mumkin.

Masalan, FQT bitta buyumni tayyorlashda qo'llanildi, deb faraz qilamiz. Ushbu buyumni yaratishda funksiyalar bir qancha bosqichlarda tasniflanadi. Bularga:

- buyumni loyihalashtirish jarayoni;
- buyumni tayyorlash jarayoni;
- buyumni ishlatish va undan foydalanish jarayoni;
- buyumni ta'mirlash jarayoni;
- buyumni tayyorlash, ishlatish, foydalanish va ta'mirlashni biladigan kadrlarni tayyorlash kabi jarayonlar kiradi.

Ushbu jarayonlarning har birini amalga oshirishda bajari-ladigan funksiyalar yana alohida funksiyalarga, ya'ni zarur, yordamchi va keraksiz funksiyalarga bo'lib olinadi. Loyihalashtirish jarayonidayoq keraksiz funksiyalardan voz kechiladi. Bu ham vaqtini va mablag'larni tejash imkonini beradi.

Bu holat ham samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Funksional qiymat tahlilining korxonalar samaradorligini oshirishdagi yana bir roli uning mahsulot (ish, xizmat)lar sifatini oshirishi bilan belgilanadi. Ma'lumki, sifatli mahsulotga xaridor hamisha topiladi. Xaridorgir mahsulotlar oson sotiladi. Bu ham o'z navbatida, korxonalar samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Funksional qiymat tahlilining asosiy vazifalaridan biri xarajatlarning tejalishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilning boshqa shakllarida xarajatlar sarf bo'lgandan keyin aniqlanadi va uni bartaraf qilish masalasi kelgusi davr uchun ahamiyatli bo'ladi. Biroq, FQTda xarajatlar miqdori iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lmasidan oldin aniqlanganligi tufayli, bunda shu joriy davrning o'zidayoq real tejamkorlikka erishiladi. Bu ham FQTning samaradorligi yuqori ekanligidan dalolatdir.

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi samaradorligiga, uni loyihalashtirish, tayyorlash, ishlatish, undan foydalanish va ta'mirlash kabi jarayonlarining har birida erishiladi.

Agar u iqtisodiy jarayonlarga qo'llaniladigan bo'lsa, shuni alohida ta'kidlash joizki, hali uni rejalashtirish paytida qancha tejamkorlikka erishish mumkinligi va buni amalgalash uchun nimalar qilish lozimligi aniq bo'ladi. Bunda ham ko'pgina keraksiz va zararli funksiyalar oldindan bartaraf qilinib boriladi. Bularning hammasi FQT qaysi sohaga qo'llanilmasin juda samarali iqtisodiy dastak ekanligidan dalolat beradi.

1.3. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari juda katta, chunki bu dastakni amaliyatga qo'llash misli ko'rilmagan darajada samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi mumkin. Zero, FQT erkin bozor munosabatlari shakllanayotgan va shakllangan sharoitda iqtisodiyotning hamma

sohasida qo'llanilishi mumkin. Undan loyihalashtirishda, biror obyektni takomillashtirishda, texnika va texnologik jarayonlarni tahlil qilishda, iqtisodiyotning hamma bo'g'inlarida, boshqarishda va xizmat sohasi kabilarda foydalanish mumkin.

Ushbu ish bevosita iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga bag'ishlanganligi tufayli FQTning faqat iqtisodiyot sohasida qo'llanilishiga to'xtalib o'tamiz, xolos.

Funktional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari mohiyati jihatidan ikki guruhga, ya'ni global va lokal vazifalarga bo'linadi.

FQTning global vazifasi mahsulot (ish, xizmat)ning sifatini pasaytirmagan holda, uning qiymatini arzonlashtirish va xaridor-girligini oshirishga qaratilgan tadbirdan iboratdir.

Har qanday mahsulot (tovar), bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat iste'molchiga mo'ljallangan bo'ladi. Iste'molchi uchun esa ularning avvalo, sifati, so'ngra narxining arzonligi zarur.

Aynan ana shu ko'rsatkichlarga FQTni qo'llash orqali, uning global vazifasini bajarishda erishiladi.

Demak, ushbu tahlilning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va vazifasi yanada oshadi.

FQTning lokal vazifasi deganda uning global vazifasidan kelib chiqib aniq tadbirdarni amalga oshirishga qaratilish tushuniladi.

FQTning asosiy lokal vazifalari quyidagilardan iborat:

1. FQT qo'llanilishi mumkin bo'lgan xo'jalik subyektining iqtisodiy faoliyatini, tovar, ish, xizmat kabi jarayonlarini aniqlash.

2. Tahlil qilinadigan obyektda bajariladigan funksiyalarni (asosiy, yordamchi, keraksiz) va ularning har biriga ketadigan xarajatlarning miqdorini (pul, vaqt birligida) aniqlash.

3. Keraksiz funksiyalarni bartaraf qilish yo'li bilan tovar, ish, xizmat sifatini yaxshilagan holda, ularga ketadigan xarajatlarni kamaytirish evaziga, korxonaning (xo'jalik yurtuvchi subyektning) umumiy moliyaviy ahvolini yaxshilashni ta'minlash.

4. Shu yo'l bilan xo'jalik yurituvchi subyektning umumiqtisodiy samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

5. Samaradorlikni oshirish evaziga ushbu subyektning moliyaviy barqarorligini, uning raqobatga bardoshliliginini ta'minlash, ishdagi va bozordagi faolligini ko'tarish kabilardan iboratdir.

Ushbu vazifalarni korxonalarda bajarish uchun bitta mutaxassis yetarli bo'lmaydi. Iqtisodiy tahlilni bir kishi amalga oshirishi mumkin.

Ammo FQTni bunday qilib bo'lmaydi. Buni bajarish uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyektda FQT o'tkaziladigan guruh bo'lishini taqozo qiladi.

Bu guruhga iqtisodchilar, menejerlar, marketologlar, buxgalterlar, moliyachilar, ichki audit xodimlari, ilmiy xodim (maslahatchi) kirishi lozim. Bunda «fikrlar hujumi», «yetti marta o'icha», evristik, mantiqiy, sinektika kabi ko'plab usullardan foydalanish lozim.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

Funksional qiymat tahlili (FQT) deganda har bir bajariladigan funksiyani (bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli) qiymat jihatidan baholab, mahsulot (ish, xizmat)ning sifatini oshirgan holda keraksiz va zararli funksiyalarni bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyatni topish va ishga solishga qaratilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli ko'zda tutilgan xarajatlar, ularning sarfi va tejamliligi hali iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'imasidan oldin aniqlanishi bilan belgilanadi.

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi samaradorligi, uni loyihalashtirish, tayyorlash, ishlatish, undan foydalanish, ta'mirlash kabi jarayonlarining har birida erishilganligi bilan ahamiyatlidir.

Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida gazi vazifalari mohiyati jihatidan ikki guruhga, ya'ni global va lokal guruhlarga bo'linadi.

FQTning global vazifasi mahsulot (ish, xizmat)ning sifatini pasaytirmagan holda uning qiymatini arzonlashtirish va xaridorligini oshirishga qaratilgan tadbirlardan iboratdir.

FQTning lokal vazifasi deganda uning global vazifasidan kelib chiqib, aniq tadbirlarni amalga oshirishga qaratilishi tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilish uchun bilishi lozim bo'lgan va seminar darsida muhokama qilinadigan savollar

1. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida obyektiv zarurligi nima bilan belgilanadi?
2. Funksional qiymat tahlili bozor munosabatlari sharoitida qanday sohalarda qo'llaniladi?
3. FQT kimlarning manfaatlarini o'zida ifoda etadi va nima uchun?
4. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli qanday?
5. Birorta buyumni yaratishda FQTdan foydalilanigan taqdirda funksiyalarni tasniflashning qanday bosqichlari mavjud?
6. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida gazi vazifalari nimalardan iborat?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha 3 tadan masala tuzadi.
2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda bittadan obyekt tanlaydi va shu obyektni o'rganish uchun tegishli tamoyillarni qo'llab, ishslash usullarini ko'rsatib beradi.

3. Talaba O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlar asosida mazkur mavzuni o'rGANADI va ularning qisqacha mazmunini yozadi. Unda turli olim-larning FQT tamoyillari bo'yicha qarashlari o'rganiladi. Olim-larning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning yutuq va kamchiliklari ko'rsatib beriladi. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarining fikrlarini shakllantiradi.

4. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zları tanlagan obyektni bat afsil o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruq qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorlarini asoslab beradi.

4. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilishi va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun lozim bo'lgan savollar

1. O'rganilayotgan obyektda mavjud funksiyalar qanday aniqlanadi?

2. O'rganilayotgan obyektda mavjud funksiyalar qanday tasniflanadi?

3. O'rganilayotgan obyektda mavjud funksiyalar qanday tavsiflanadi?

4. O'rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog'liq funksiyalari nimalardan iborat?

5. O'rganilayotgan obyektda ichki muhit bilan bog'liq funksiyalari nimalardan iborat?

6. Funksiyalarni tahlil qilishning qanaqa bosqichlari mavjud?

7. Funksiyalarni tahlil qilishning qanaqa yo'llari mavjud?

8. FQTda xarajatlarni kalkulyatsiyasi bo'yicha turkumlash va ularni funksiyalar bo'yicha taqsimlash qanday amalga oshiriladi?

9. Funksiyalar qanaqa guruhlarga tavsiflanadi?

10. Ishchi funksiyalarga nimalar kiradi?

11. Umumobyekt (tashqi) funksiyalarga nimalar kiradi?

12. Ichkiobyekt (ichki) funksiyalarga nimalar kiradi?

13. Estetik funksiyalarga nimalar kiradi?
14. Asosiy funksiyalarga nimalar kiradi?
15. Yordamchi funksiyalarga nimalar kiradi?
16. Keraksiz funksiyalarga nimalar kiradi?
17. Zararli funksiyalarga nimalar kiradi?

5. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

Ushbu mavzu bo'yicha seminar ko'zda tutilganligi uchun oldingi 6 ta savol muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida talaba har bir savol bo'yicha o'zlarining fikrlarini hayotdan olin-gan amaliy fikrlar bilan izohlaydi. Zero, talabalar o'quvning bakalavriatura bosqichida bor narsalarni, bilimlarni o'rganadilar. Magistratura davrida esa mavjud bilimlarni hayat bilan bog'lab, o'z fikrlari bilan mushohada qilgan holda ushbu sohaning ijobiylar salbiy tomonlariga baho beradi. Stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi institutida har bir jabhada mavjud bilimlarni egallash bilan birga, uning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish yo'llarini bilish darajasiga yetiladi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchi institutida ta'limotning yangi, istiqbolli yo'nalishlari belgilab beriladi va shu sohaning nazariy va metodologik muammolarini hal qilish darajasiga yetiladi.

6. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilib qolguday bo'lsa konspekt qiladi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida

amalga oshiriladi. Yozma nazorat referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

7. Mavzu ustida mustaqil ishlash jarayonida talaba amalga oshiradigan tadbirlari va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishlash uchun talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

1. Mavzu bo'yicha darsda qilgan konspektini o'rganadi;
2. Mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
3. Mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt qiladi;
4. O'qituvchi topshiriq bersa, ushbu mavzu bo'yicha referat yozadi va uni yoqlaydi.

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально-стоимостной анализ в машиностроении. – М.: Машиностроение. 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional-qiyimat tahlili metodologiyasi. – 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004.-81 bet. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiyimat tahlilidan foydalanish. -46–75 betlar.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа» -172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. –М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. проф. А.Д.Шеремета. –М.: Прогресс, 1982. 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)».
7. Функционально-стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. –М.: Финансы и статистика, 1985.

2-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

2.1. Funksional qiymat tahlilining shakllanish tarixi

FQT iqtisodiy tahlilning eng ilg'or shakllaridan biri sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy dastak va omillardan biridir. Shu tufayli ushbu tahlil usuli ham asta-sekin shakllanib rivoj topmoqda.

FQTning vujudga kelish tarixi XX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Bu tahlilning paydo bo'lishi obyektiv zaruratdan kelib chiqqan. Iqtisodiyotda shunday vaziyat vujudga keladiki, endi maqsadsiz xarajatlarni bartaraf qilib, korxona faoliyatining samaradorligini oshirish evaziga ko'proq foyda olish zarurati tug'ildi.

Bunga erishish uchun iqtisodiy tahlilni texnik tahlil bilan birga olib borishga to'g'ri keldi. Chunki, bu tahlil hamma soha va jihatlar kompleks tarzda o'rghanishni taqozo qildi.

FQTning metodologiyasi birinchi marta sobiq ittifoq davrida 40-yillarda yaratila boshlandi. Rus olimlaridan N.A.Borodachev rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda ushbu tahlilning birinchi marta nazariy asosi yaratildi va u amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu olim rahbarligidagi guruh FQTni bitta asbobga joriy qilib, 22% samaradorlikka erishdi.

Shu yillarda FQT usullari Permlik Yu.M.Sobolev ishlarida ham o'z aksini topa boshladidi. Shu davrda AQSHda ham bir guruh olimlar FQT metodologiyasini yaratish bo'yicha muhandis L.Maylson rahbarligida ish olib bordilar.

So'ngra tahlilning bu turi G'arbiy Yevropa va taraqqiy etgan yirik kapitalistik mamlakatlar (Angliya, Germaniya, Yaponiya va h.k.)ga tarqaldi.

Yu.M.Sobolev tomonidan yaratilgan usulga chet ellarda, xususan, Germaniyada katta qiziqish uyg'ondi. Bu olim ishlariiga tayanib X.Ebert va K. Tomoslar ham tadqiqot olib bordilar. Natijada FQT usullari g'arb mamlakatlari amaliyotiga ham joriy qilina boshlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, FQT birinchi marta sobiq ittifoqda yaratilishiga qaramasdan uning amaliyotda qo'llanilishi orqada qoldi.

Bunga ehtimol ikkinchi jahon urushi sabab bo'lgandir. Shu tufayli AQSHda tahlilning bu turi amaliyotga birinchilar qatori joriy qilinishi bilan xarakterlanadi.

Bu esa FQTning vatani AQSH degan tushunchani vujudga keltirdi.

Sobiq Ittifoqda FQTdan amaliyotda foydalanish 60–70-yillarga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 60-yillarida FQT Vorovskiy nomli Sverdlov mashinasozlik zavodida, Xarkovda joylashgan elektrsozlik BITIda, Moskva «Электролуч» ishlab chiqarish birlashmasida, Cheboksar elektroapparat zavodida joriy qilina boshlandi.

70-yillardan boshlab u elektrotexnika sanoatida qo'llanila boshlandi. 80-yillarda esa mashinasozlik sanoatida qo'llanildi. Shu yillarda FQT amaliyotga keng joriy qilinishi bilan birga u xalqaro miqyosga ko'tarila boshladi.

Shu yillarda FQT bilan shug'ullanadigan bir qancha butunittifoq va xalqaro tashkilotlar vujudga kela boshladи.

Shunday qilib, FQTning rivojlanishi XX asrning 80-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda shu soha bo'yicha juda ko'plab adabiyotlar chop etildi.

Bunda olimlardan B.I. Maydanchik, M.G. Karpunin, N.K. Moiseyeva, V.P. Saltikova, R. Volchek, A.D. Sheremet, A.P. Seleznev kabilar katta hissa qo'shdilar. Bu olimlar FQT bo'yicha monografiya, darslik, o'quv va amaliy qo'llanmalar yozdilar. Xullas, XX asrning oxiriga kelib FQTning nazariy va amaliy asosi yaratildi.

2.2. Funksional qiymat tahlilining jahon amaliyotida vujudga kelish tarixi

FQT jahon amaliyotida ham 1940-yillarda paydo bo'ldi. Sobiq ittifoqda Yu.M.Sobolev ushbu soha bo'yicha tadqiqot olib borgan bo'lsa, amerikalik olimlardan muhandis L.Maylz shug'ulangan. Uning tadqiqoti amerikadagi «Djeneral elektrik» nomli elektrotexnika firmasi misolida olib borildi. Bu tadqiqot qimmatli metallarning o'rniqa arzonroq metallardan foydalanish zarurati dan kelib chiqdi.

Bunga muvaffaqiyatli erishildi. Shu tufayli u o'zining tahlil usulini «muhandis – qiymat tahlili» deb atadi va uni «amaliy falsafa» deyishni tavsiya qildi. L.Maylzing xizmati mahsulotning sifatiga, ko'rinishiga, foydaliligiga, ishlatilishiga, muddatiga ta'sir qilmaydigan keraksiz funksiyalarga ketadigan xarajatlarni kamaytirish yo'llarini ishlab chiqqanligi bilan xarakterlidir.

Yu.M.Sobolev usuli birorta detalni arzon va kam xarajat bilan ishlab chiqishni tavsiya qilgan bo'lsa, L.Maylz tadqiqoti qimmatroq narsalarning o'rniqa, uning sifatiga, ishlatilishiga putur yetkazmagan holda arzonroq narsalarni yaratish ustida bordi. L.Maylz tavsiyasi amaliyotga tatbiq qilinishi natijasida FQTga qilingan har bir AQSH dollarri miqdoridagi xarajat 10 dollar samara bera boshladi.

1959-yilda AQSHda FQTni amaliyotga qo'llash bo'yicha va kompaniyalar o'rtasida tajriba almashish maqsadida maxsus jamiyat tuzildi. 60-yillarga kelib amerikada bir qancha ilmiy tadqiqot markazlari tuzildi va ular universitetlar tarkibida ham tashkil bo'la boshladi.

FQT turli mamlakatlarda qo'llanila boshlandi. Jumladan, Angliyada FQTni birinchi bo'lib 100 ming kishi ishlaydigan «Assosheyted Elektrikal Indastriz Limited» kompaniyasi qo'lladi. Bu juda katta gigant korxonalardan biri edi.

FQT Fransiyada AQSHlik mutaxassislarining ko'magi bilan joriy qilindi.

Bu mamlakatda avtomobil, elektrotexnik, priborsozlik sanoatlarida, keyinchalik maishiy texnikalarni ishlab chiqarishda qo'llanildi.

GFRda ham FQTdan foydalanish 50-yillarning oxirlarida, aniqrog'i 1959-yilda «Opel», «BMV» firmalarida qo'llanilishi bilan boshlandi. 60-yillarning oxirlariga kelib GFRda faoliyat ko'rsatayotgan firmalarning 51 % da FQT qo'llaniladigan bo'ldi. GFRda faoliyat ko'rsatayotgan muhandislar ittifoqi 1969-yilda FQTni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi ishlab chiqishdi. 1973-yilda FQT bo'yicha sanoat standarti ishlab chiqildi.

Yaponiyada FQT 1973-yilgi neft inqirozidan keyin juda tezlik bilan joriy qilina boshlandi. Yaponiyada FQT yangi yaratilayotgan mahsulotlarning 80—90 foizini, oldindan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning esa 50—85 foizini qamrab olgan.

FQT Chexiya va Slovakiya mamlakatlarida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda.

Ushbu davlatlarda uni birinchi bo'lib Adamov shahridagi «Adast», Brno shahridagi ZKL mashinasozlik ishlab chiqarish birlashmalari qo'lladi.

Polshada FQT 1966-yillarda vagonsozlik sanoatida qo'llanilishi bilan boshlangan edi. Hozirgi ma'lumotlarga qaraganda Polshada FQTdan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Vengriyada birinchi marta FQT 1969-yilda tajriba tariqasida qo'llanilgan bo'lsa, haqiqiy samarani 70-yillarning o'rtalarida bera boshladи.

Ruminiyada ham FQT 70-yillarning boshlarida joriy qilina boshlandi. Ushbu davlatda 1979-yildan buyon FQTdan foydalanish bo'yicha davlat standarti qo'llanilib kelinmoqda.

Bolgariyada FQT boshqa Yevropa mamlakatlari singari 1979-yildan boshlab qo'llanilib kelinmoqda. Bu yerda ham uning qo'llanilish ko'lami nafaqat ishlab chiqarishda, balki xizmat va boshqa sohalarda ham sezilmuoqda.

FQTdan Rossiyada ham keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bu birinchi marta elektrotexnika sanoatida foydalanilgan bo'lsa,

hozirgi kunda undan foydalanish deyarli hamma sohani qamrab olgan.

Hozirgi kunda FQTdan foydalanadigan mamlakatlarning ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Kimki yuqori samaradorlik bilan ishslashni maqsad qilib qo'yari ekan, ular FQTdan samarali foydalanishlari lozimdir.

FQTdan Boltiq bo'yli mamlakatlarida ham keng ko'lamda foydalilmoqda. 1985-yilda Riga shahrida FQTdan foydalanish bo'yicha ikkinchi Butunittifoq simpoziumi, 1986-yilda Chexoslovakiyada FQTni qo'llashga bag'ishlangan to'qqizinchi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Bu konferensiyanı har yili bir marta o'tkazish an'anasi hamon davom etmoqda.

Sobiq ittifoq davrida Vazirlar Mahkamasi qoshida «FQTni joriy qilish qo'mitasi» tuzildi. Bunga buyuk olimlar va amaliyotchi mutaxassislar rahbarlik qildilar.

Bu tadbirlar FQTning iqtisodiyotning barcha sohalarida keng ko'lamda qo'llash imkonini berdi. Shunday qilib, 90-yillarga kelib FQT o'zining nazariy asosiga, amaliy tajribasiga ega bo'ldi va iqtisodiy tahvilining bir shakli sifatida mustahkamlandi.

2.3. Funksional qiymat tahlilining O'zbekistonda yaratilish tarixi

Funksional qiymat tahlilining O'zbekistonda yaratilish tarixi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu bobda FQTning jahon amaliyotida va O'zbekistonda vujudga kelish tarixi qisqacha yoritilgan. Bunda FQT metodologiyasini yaratishda hissa qo'shgan olimlar va uning amaliyotda qo'llanilish tarixi ko'rsatib berilgan. Unda FQTning mohiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ham qisqacha yoritilgan.

FQTning vazifasi, ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun beqiyosdir. Buni inobatga olib ushbu bobda aynan shu masalaga alohida ahamiyat berilgan.

2001-yilda M.Q.Pardayevning «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligi chop etildi. Unda dasturga asosan bitta bob ajratilgan edi. 2003-yilga kelib B.A. Hasanov o‘zining «Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot» nomli monografiyasida bitta 1.2.5. paragrafni «Fuksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi» nomi bilan chop etdi. Ammo tahliliga oid juda ko‘p adabiyotlar chop etilishiga qaramasdan ushbu masala hamon o‘z yechimini topgani yo‘q.

Mamlakatimizda ham yuqori iqtisodiy samaradorlikka ichki imkoniyatlarni ishga solish evaziga erishish ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, albatta FQTdan foydalanish lozimdir.

Zero, ishlab chiqarishga, xizmat ko‘rsatish va ish bajarishga FQT joriy qilinmas ekan, ko‘zlangan samaradorlikka erishib bo‘lmaydi.

Chunki «miqdor – sifat – baho – iste’molchi talabi» tamoyili buzilgan joyda bozor munosabatlari samarali ishlamasligi jahon amaliyotida juda ko‘p bor sinalgan. Shu tufayli FQT iqtisodiy tahlilning bir muhim va o‘ta zarur shakli sifatida mamlakatimizda rivoj topmog‘i lozim.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta’riflari

FQTning vujudga kelish va shakllanish tarixi XX asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi.

FQTning paydo bo‘lishiga obyektiv zaruriyat iqtisodiyotda maqsadsiz xarajatlarni bartaraf qilib korxona faoliyatining samaradorligini oshirish evaziga ko‘proq foyda olishga erishish zarurati vujudga kelganligi bo‘ldi.

Kimki yuqori samaradorlik bilan ishlashni maqsad qilib qo‘yayotgan bo‘lsa, ular FQTdan samarali foydalanish yo‘llarini axtarib topishlari lozimdir.

90-yillarga kelib FQT o‘zining nazariy asosiga, amaliy tajribasiga ega bo‘ldi va iqtisodiy tahlilning bir shakli sifatida to‘liq shakllandi va mustahkamlandi, uning nazariy va metodologik

asoslari ishlab chiqildi. Bizning mamlakatimizda ham yuqori iqtisodiy samaradorlikka ichki imkoniyatlarni ishga solish evaziga erishish uchun albatta FQTdan foydalanish lozimdir. Chunki, «miqdor – sifat – baho – iste'molchi talabi» tamoyili buzilgan joyda bozor munosabatlari samarali ishlamasligi jahon amaliyotida juda ko‘p bor sinalgan.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilishi va bilishi lozim bo'lgan savollar

1. Funksional qiymat tahlilining shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. FQTning paydo bo'lishining obyektiv sabablari nimalarda namoyon bo'lgan?
3. Funksional qiymat tahlilining jahon amaliyotida vujudga kelish tarixi qachon va qayerda boshlangan?
4. AQSHda FQTning paydo bo'lishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Yevropa mamlakatlarida FQT qanday paydo bo'lgan va rivojlangan?
6. Funksional qiymat tahlilining O'zbekistonda yaratilish tarixi qachon boshlangan?
7. O'zbekistonlik olimlardan kimlar FQT bilan shug'ullangan?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

Ushbu mavzu bo'yicha talaba referat yozadi. Unda quyidagi savollarni qarab chiqish ko'zda tutiladi:

1. Funksional qiymat tahlilining shakllanish tarixi.
2. Funksional qiymat tahlilining jahon amaliyotida vujudga kelish tarixi.
3. Funksional qiymat tahlilining O'zbekistonda yaratilish tarixi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha seminar yozadi.
2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
3. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi va ularning qisqagina mazmunini yozib topshiradi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Moiseeva N.K.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.— М.: Машиностроение. — 1987
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001.— 272 bet. 12-Bob. Funksional-qiyamat tahlili metodologiyasi.— 207-233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172-187 бетлар.
5. Справочник по функционально-стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. — М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. А.Д.Шеремета. М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)». 231-236 бетлар.
7. *Hasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. — Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiyamat tahlili – boshqaruv hisobining samaralı vositası 81-90 betlar).
8. Функционально-стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. -М.: Финансы и статистика, 1985.

3-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING IQTISODIY TAHLIL TIZIMIDAGI O'RNI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNDA QO'LLANILADIGAN TAMOYILLAR

3.1. Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning shakli ekanligi

FQTni qo'llashdan maqsad korxonaning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko'rsatkichiga erishishdan iboratdir. Bunga iqtisodiy hodisa, jarayon va faoliyatni sodir bo'lmasdan oldin tizimli ravishda tahlil qilish orqali erishiladi. Natijada mahsulotning yuqori sifati va ishning yuksak samaradorligi ta'minlanadi. Shu tufayli FQT iqtisodiy tahlilning eng samarali va ilg'or shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tahlilning bu shakli asosan mikroiqtisodiyot darajasida qo'llaniladi. Bunda ham aniq bo'g'inlar, mahsulot, jarayon va faoliyat obyekt qilib olinadi. Masalan, biror mahsulotni ishlab chiqarish yoki tovar harakatini boshqarish yoki biror mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabilar FQTning obyekti hisoblanadi. Demak, FQTning qo'llanilish doirasida qisqa va aniq maqsadlar ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, FQT deganda ishning, faoliyatning, mehnatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni muntazam ravishda, sodir bo'lmasdan oldin, mantiqiyligi (evristik) yo'l bilan tahlil qilish orqali mahsulotni ishlab chiqarishda, unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

FQT bir vaqtning o'zida tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchilar bilan birga iste'molchilar manfaatini ham ko'zlab ish tutadi. Ishlab chiqaruvchilarning manfaati ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish evaziga ishning samaradorligini oshirishda

namoyon bo'lsa, iste'molchilarning manfaati esa tovarning sifatida, narxining arzonligida, undan uzoq muddat foydalanishda, uning mustahkamligida namoyon bo'ladi.

Bu bilan davlatning ham manfaati mushtaraklashadi, chunki tovar arzon va sifatli bo'lsa, jahon bozorida ham o'z xaridorlarini topadi. Bu orqali davlat o'z nufuziga ega bo'lish bilan birga, uning iqtisodiy qudrati ham mustahkamlanadi. FQTni qo'llash orqali hamma manfaatlar mushtarakligini va muvofiqligini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarga, tovar (ish, xizmat)ning sifati, arzonligi, mustahkamligiga erishiladi.

3.2. Funksional qiymat tahlilining o'ziga xos xususiyatlari

FQTning o'ziga xos xususiyatlari bevosita uning tabiatidan kelib chiqadi. Chunki, mazkur tahlil o'zining noan'anaviyligi, ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi, uni o'tkazishda bir kishi emas, balki jamoa mehnati va tafakkur mahsulidan foydalanishi bilan farq qiladi. FQTning ushbu jihatlari uning o'ziga xosligini belgilaydi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Tahlil qilinayotgan obyekt hali ishga tushmagan, faoliyat ko'rsatmayotgan, loyihalashtirish, rejalashtirish bosqichida bo'lishi mumkin. Shu tufayli FQT, aksariyat holda, iqtisodiy jarayon sodir bo'lmasdan oldin o'tkaziladi.

2. Har bir tahlil qilinayotgan obyektda birorta hodisa yoki iqtisodiy jarayonning to'liq sodir bo'lishi uchun u qanday funksiyalardan iboratligi va har bir funksiyaning vaqt yoki qiymati jihatidan qancha xarajat talab qilinishi aniqlanadi. Bunday tahlilda abstrakt tafakkur, «Fikrlar hujumi», evristik tahlil kabi ilg'or usullardan foydalanish mumkin.

3. FQTda barcha funksiyalar beshga bo'lib o'rganiladi: bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli. Tahlil qilinadigan obyekt faoliyatini rejalashtirish va loyihalashtirishda keraksiz funksiyalarni bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqiladi. Bu esa xarajatning

iqtisodiy jarayonlarning sodir bo‘lmasidan oldin kamayishini ta’minlaydi.

4. Har bir asosiy va qo‘srimcha funksiyalarning qanday amalga oshishi belgilanadi. Imkonni boricha bu funksiyalar ham tejamli yo‘llar bilan mahsulot (ish, xizmat) sifatini, yaroqlilik muddatini va foydalanishga qulayligini oshiradigan darajada bajarilishini ta’minlaydi.

5. FQT samaradorligi oldindan aniqlanadi, chunki ta’kidlanganidek, oldindan aniqlangan keraksiz funksiyalar sodir bo‘lmasdan, ularga mablag‘, vaqt yo‘qotilmasdan bartaraf qilinadi. Bu ham mazkur tahlilning o‘ta samarali iqtisodiy dastak ekanligidan dalolatdir.

6. Ushbu tahlilda axborot manbayi bo‘lib o‘tgan, sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonni ifodalovchi hisobotlar emas, balki bajarilishi lozim bo‘lgan, ko‘proq ilmiy va mantiqiy yo‘l bilan aniqlangan, hali sodir bo‘lмаган funksiyalar tizimi hisoblanadi.

7. Faoliyat ko‘rsatayotgan obyektlarda FQT biznes-rejani tuzishda qo‘llaniladi. Uning har bir ko‘rsatkichini asoslash uchun funksiyalarni tarkiblash (bosh, asosiy, qo‘srimcha, keraksiz, zararli) tamoyiliga asoslanadi. Bu esa iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ham yaxshilanishini va iqtisodiy o‘sishni samarali yo‘llar bilan ta’minlash imkonini beradi.

FQTda tahlil va tahlil qilinayotgan obyektning maqsadi, kuti layotgan natijasi, funksiyasi, mohiyati, ta’siri hamda aloqasini aniqlab olish kerak bo‘ladi. Obyektning maqsadida u orqali nimaga erishilishi ko‘zda tutilsa, kutilayotgan natijada obyekt nimaga erishilganligini ko‘rsatiladi. Uning funksiyasida obyektning nima qilishi ko‘zda tutilsa, mohiyatida shu obyekt nima qila olishini ko‘rsatadi.

Obyektning ta’siri deganda obyektning nimani o‘zgartira olishi tushunilsa, uning aloqasida FQT boshqa ko‘rsatkichlarga ta’sir qilishi nimalar orqali amalga oshishi ko‘rsatiladi. Shu tufayli FQTni amalga oshirish jarayonida bu iboralardan to‘g‘ri va aniq foydalanish lozimdir.

3.3. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan tamoyillar

Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning ilg'or shakli sifatida juda ko'p noan'anaviy tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar o'zlarining mazmun va mohiyati jihatidan tahlilning boshqa shakllaridan farq qiladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- funksional yondoshuv;
- tizimli yondoshuv;
- jamiyat nuqtayi nazaridan yondoshuv;
- iste'molchi nuqtayi nazaridan yondoshuv;
- kompleks yondoshuv;
- funksiyalar va xarajatlar muvofiqligini ta'minlash;
- ijodiy tafakkurni faollashtirgan holda yondoshuv;
- jamoaviy tafakkur va mehnatdan foydalanish;
- yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy bilimlarni qo'shgan holda yondoshuv;
- fanlararo yantuqlarni qo'llagan holda yondoshuv.

Ushbu funksiyalarning hammasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, chunki ularni bilmasdan turib, bu tahlil usullarini qo'llagan holda tadqiqotlarni o'tkazish va tahlil natijasida birorta samarali xulosaga kelishning imkonи bo'lmaydi.

Funksional yondoshuv FQTning asosiy tamoyillaridan biridir. Uning mohiyati shundaki, o'rganilayotgan obyektga oddiy obyekt sifatida emas, balki shu obyekt funksiyalar majmuasidan iborat deb qaraladi. Ushbu mahsulotni ishlab chiqarishda qancha funksiya bajarilishi ko'zda tutilsa, shu mahsulotni ishlatishda ham qanday funksiyalar bajarilishi inobatga olinadi. Bunda birinchi navbatda, iste'molchilarining talablari inobatga olinadi. Ushbu tamoyil FQTning barcha tamoyillari uchun asos hisoblanadi.

Tizimli yondoshuv tamoyili FQTda keng qo'llaniladigan tamoyillardan biridir. Chunki, o'rganilayotgan obyekt bir tizim sifatida qaralsa, shu obyekt o'z navbatida yana tizimning bir

bo‘lagi sifatida qaraladi. Buning mohiyati, iqtisodiy va u bilan bog‘liq bo‘lgan texnik, ergonomik kabi jarayonlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda deb qaraladi. Shu o‘rinda bir predmetning yaxlitligi tizimlar majmuasi deb qaraladigan bo‘lsa, u holda har bir funksiyaga ketadigan xarajatlarni ham shunday tizimga keltirgan holda o‘rganish mumkin.

Bunda «miqdor – sifat – xarajat» aloqadorligi ham alohida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda qaraladi. Pirovardida, mahsulotni ishlab chiqarishda FQTdan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish bilan birga mahsulot sifatini saqlab qo‘lgan holda xarajatlarning ham keskin kamayishini ta’minlaydi.

Jamiyat nuqtayi nazaridan yondoshuv ushbu tahlilning jamiyat uchun nafliligidan dalolat beradi. Har qanday mahsulotni ishlab chiqarishda sifatning yaxshilanishi ijtimoiy sifatning, xarajatlarning kamayishi ijtimoiy naflilikning, jamiyatga zarurligi ijtimoiy iste’mol qiyomatining muvofiqligini oshirishga olib keladi. Agar mahsulotni ishlab chiqarishda bu tamoyilga asoslansa, shu mahsulotning soni ko‘payib, uning raqobatbardoshligi ortadi. Bu jamiyat miqyosida umumiy samaradorlikka olib keladi.

Iste’molchi nuqtayi nazaridan yondoshuv ham FQTning muhim tamoyillaridan biridir. Pirovardida har qanday mahsulotning xaridori iste’molchidir. Agar mahsulot ularning talabiga javob bermasa, ishlab chiqarishdan foyda emas, balki juda katta zarar ko‘rilishi mumkin.

Shu tufayli FQTni qo‘llaganda yaratilayotgan mahsulotlarning iste’molchi talabiga qanchalik javob berishi nuqtayi nazaridan qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Kompleks yondoshuv o‘rganilayotgan obyektga makon va zamon nuqtayi nazaridan tizimli yondoshuvdir. Buning mohiyati o‘rganilayotgan obyektga texnologik, tashkiliy, huquqiy kabi jihatlarda yondoshuv bilan birga, unga vaqt nuqtayi nazaridan kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yillik kabi davrlarni inobatga olgan holda tahlil qilishdan iboratdir. Agar o‘rganilayotgan obyektga mablag‘ nuqtayi nazaridan yondoshilsa, unda asosiy

vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslaridan tejamli hamda samarali foydalanish masalalari ko'rildi. Bulardan foydalanish birinchidan tejamli bo'lish bilan birga yaratilayotgan mahsulotlarning sifatini saqlab qolishga erishishlari lozim.

Funksiyalar va xarajatlar muvofiqligini ta'minlash o'rgani-
layotgan obyektni funksiyalar tizimidan iborat, deb qarash bilan
birga har bir funksiyaning obyektga nisbatan muhimligi inobatga
olinadi. Bunda funksiyalarning bosh, asosiy, yordamchi, zararli
va keraksizligi, aksariyat holda shu yerda aniqlanadi. Shu bilan
birga har bir funksiya baholanadi. Bu ekspertlar yordamida amal-
ga oshiriladi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, o'rga-
nilayotgan obyektga FQT orqali iqtisodiy jihatdan tashxis qo'yish
mumkin.

Ijodiy tafakkurni faollashtirgan holda yondoshuv ham
FQTning zarur tamoyillaridan birdir. Chunki, FQTda o'rgani-
layotgan obyektni yaxshilash uchun bir qancha variantlar ishlab
chiquiladi. Ko'p variantli qaror qabul qilishda ijodiy tafakkurdan
keng foydalilanadi. FQTning o'ziga xos xususiyatlaridan biri har
bir obyektni o'rganganda ularning har biriga alohida yondo-
shishni talab qiladi. Bu esa odatdagagi an'anaviy tahlil usullaridek
bir xil yondoshuvda emas, balki har bir obyektni tahlil qilishda
ularga yangidan ijodiy yondoshuvni talab qiladi. Ijodiy yondo-
shuvning juda ko'p usullari bor. Bular haqida kelgusi boblarda
batafsil to'xtalib o'tiladi.

Jamoaviy tafakkur va mehnatdan foydalanish tamoyili
FQTning tabiatidan kelib chiqadi. Chunki, bu tahlilni amalga
oshirish uchun juda ko'p mutaxassislar ishtirot etishlari lozim.
Xususan, iqtisodchilar, texnik muhandislar, huquqshunoslar,
ruhshunoslar, menejerlar kabi keng qamrovli xodimlar ishtirot
etishlari lozimdir. Tadqiqot jarayonida ko'p mutaxassislarning
ishtiroti o'rganilayotgan obyektni har tomonlama ko'rib chiqib,
puxta ishlangan qarorlarning qabul qilinishini ta'minlaydi. Bu
esa FQTda juda muhimdir.

Yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy bilimlarni birlashtirgan holda yondoshuv tamoyili ham FQTning muhim jihatlarini belgilovchi tamoyillardandir. Agar o'tgan davrda sodir bo'lgan jarayonlar o'rganilganda edi, unga bir xil yaxshi ishlangan tahlil usullari bilan yondoshish mumkin edi. Ammo, FQTda asosan kelgusida bajariladigan funksiyalar o'rganilganligi tufayli har bir tahlil chuqur tadqiqotga tayanadi. Bu eng yangi usullarni, fan va texnika yutuqlarini qo'llashni taqozo qiladi. O'z navbatida bunday yondoshuv yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy bilimlarni birlashtirgan holda yondoshuvni talab qiladi. Ko'rinish turibdiki, FQT ham iqtisodiy tahlilning alohida shakli bo'lish bilan birga juda ko'p o'ziga xos tamoyillarga va jihatlarga ega ekan.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

FQT deganda ish, faoliyat, mehnatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni muntazam ravishda, sodir bo'lmasdan oldin, mantiqiy (evristik) yo'l bilan, tahlil qilish orqali mahsulotni ishlab chiqarishda, unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

FQTning o'ziga xos xususiyatlari uning noan'anaviyligi, ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi, uni o'tkazishda bir kishi emas, balki jamoa mehnati va tafakkuri mahsulidan foydalanishi bilan belgilanadi.

Funksional qiymat tahlilining tamoyili deganda o'rganiyalayotgan obyektga tahlilning noan'anaviy ilg'or shakllarini qo'llab yondoshishlar natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qo'llaniladigan uslublar majmuasi tushuniladi.

Funksional qiymat tahlilining tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- funksional yondoshuv;
- tizimli yondoshuv;

- jamiyat nuqtayi nazaridan yondoshuv;
- iste'molchi nuqtayi nazaridan yondoshuv;
- kompleks yondoshuv;
- funksiyalar va xarajatlar muvofiqligini ta'minlash;
- ijodiy tafakkurni faollashtirgan holda yondoshuv;
- jamoaviy tafakkur va mehnatdan foydalanish;
- yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy bilimlarni birlashtirgan holda yondoshuv;
- fanlararo yutuqlarni qo'llagan holda yondoshuv.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun mo'ljallangan savollar

1. Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning qanday shaklariiga kiradi?
2. Funksional qiymat tahlilining o'ziga xos xususiyatlari nima-dan iborat?
3. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan tamoyillarni sanab bering.
4. Funksional yondoshuv tamoyili qanaqa tamoyil?
5. Tizimli yondoshuv nima?
6. FQTga jamiyat nuqtayi nazaridan yondoshuvni qanday tushunasiz?
7. Iste'molchi nuqtayi nazaridan yondoshuv tamoyili qanday tamoyil?
8. FQTda kompleks yondoshuv nima?
9. Funksiyalar va xarajatlar muvofiqligini ta'minlash tamoyilini tushuntirib bering.
10. Ijodiy tafakkurni faollashtirgan holda yondoshuv qanday tamoyil?
11. Jamoaviy tafakkur va mehnatdan foydalanish qanday tamoyil?
12. Yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy bilimlarni birlashtirgan holda yondoshuv tamoyilini tushuntirib bering.

13. Fanlararo yutuqlarni qo'llagan holda yondoshuv qanday tamoyilligini tushuntirib bering.

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha 3 tadan masala tuzadi.

2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda bittadan obyekt tanlaydi va shu obyektni o'rganish uchun tegishli tamoyillarni qo'llab, ishlash usullarini ko'rsatib beradi.

3. Talaba O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlar asosida mazkur mavzuni o'rganadi va ularning qisqacha mazmunini yozadi. Unda turli olimlarning FQT tamoyillari bo'yicha qarashlari o'rganiladi. Olimlarning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning yutuq va kamchiliklari ko'rsatib beriladi. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarining fikrlarini shakllantiradi.

4. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarini tanlagan obyektni batafsil o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruq qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorlarini asoslab beradi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konsept yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi.

Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni o'rganadi. Uning nazorati og'zaki savol-javob bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.

2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.

3. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi va ularning qisqacha mazmunini yozib topshiradi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Мoiseeva N.K. Функционально стоимостной анализ в машиностроении. – M.: Машиностроение. – 1987.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariysi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional-qiyamat tahlili metodologiyasi. – 207–233 betlar.
3. Pardayev M.Q., Pardayev I.R. Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. – 81 bet. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiyamat tahlilidan foydalinish. – 46–75 betlar.
4. Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа»-172–187 бет.лар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. –M.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. проф. А.Д.Шеремета. –M.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. Hasanov B.A. Boshqaruvin hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. (Funksional qiyamat tahlili – boshqaruvin hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально-стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. –M.: Финансы и статистика, 1985.

4-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

4.1. Funksional qiymat tahlilini amalga oshirish sharoitlari va bosqichlarining ketma-ketligi

Bozor munosabatlari sharoitida FQTdan foydalanishning samaradorligi shu bilan belgilanadiki, uni amalga oshirishda bir vaqtning o‘zida nafaqat iqtisodiy, balki, ta’kidlanganidek, tashkiliy, uslubiy, huquqiy, ijtimoiy-ruhiy jihatlar ham inobatga olinadi. Shuningdek, ushbu sohaga bir qancha mutaxassislarни jalb qilish bilan birga boshqaruv qarorlarini qabul qilishda noan'anaviy usullardan ham foydalaniadi.

FQTning samaradorligi uni qanday tashkil etilganligiga ham bog‘liqdir. Buning uchun tegishli sharoitlar yaratilishi lozim. FQTning ushbu sharoitlari mazmuni jihatidan quyidagi guruh-larga bo‘linadi:

- 1) tashkiliy sharoit;
- 2) reklamani yo‘lga qo‘yish;
- 3) tashviqot va targ‘ibotni olib borish;
- 4) uslubiy ta’minotni yo‘lga qo‘yish;
- 5) me’yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi;
- 6) ijtimoiy-ruhiy muhit va sharoit;
- 7) iqtisodiy sharoit;
- 8) ketma-ket amalga oshirishga erishish.

Ushbu sharoitlarning yaratilishi FQTning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan birdir.

Funksional qiymat tahlilini amalga oshirishning tashkiliy sharoitida shuni ko‘zda tutish kerakki, har bir yirik korxonada yoki birlashmalar qoshida, savdo-sanoat palatalari ixtiyorida FQT bilan shug‘ullanadigan maxsus tadqiqotchilar guruhi bo‘lishi lozim.

Bunga yetakchi olimlar va tajribali mutaxassislarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ular qilayotgan ishining nimaligi va qanday natija bilan tugashini hamda shu jarayonning albatta ijobiy samara berishini oldindan biladigan bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, FQT a'zolarining har biri jamoa bo'lib ishlash qobiliyatiga ega, boshqa kishilarning fikriga e'tibor bilan qaraydigan, ularni tushunadigan, o'zi ham ijodiy yondoshadigan va boshqalarni ham shunga yo'naltira oladigan bo'lishi lozim.

Hozirgi paytda amaliyotga funksional qiymat tahlilini joriy qilish uchun uning samaradorligi haqida keng ommaga, ayniqsa tadbirkorlar va mutaxassislarga reklama qilish, ular o'rtaida tashviqot va targ'ibotni yo'lga qo'yish lozim.

Bu ishlarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun hukumat va mahalliy hokimiyat vakillarining e'tibor berishlari ham yaxshi samara berishi mumkin.

Funksional qiymat tahlilini amaliyotga joriy qilishning muhim shartlaridan biri uning uslubiy ta'minotini yo'lga qo'yishdir. Uni muvaffaqiyatlari amalga oshirish uchun kadrlarni tayyorlash va uslubiy materiallarni ishlab chiqadigan markazlar tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning faoliyati bosqichma-bosqich erkinlashtirilayotgan pallada FQTni amaliyotga joriy qilish bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi ham muhimdir, chunki bu tadbir ma'lum darajada xarajatlarni talab qiladi.

Bu xarajatlar, albatta soliqqa tortiladigan xarajatlar qatoriga qo'shilmasligi lozim. Umuman iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydigan xarajatlar, hozirgi davrda, bizning fikrimizcha, soliqqa tortilmasligi iqtisodiyotning rivojlanishi uchun yana bir omil bo'lishi mumkin.

Funksional qiymat tahlilini amaliyotga joriy qilishning iqtisodiy sharoiti ham mavjud.

Bu ushbu ishni reja asosida oldin u qo'llanilishi osonroq bo'lgan sohalarga joriy qilinib, so'ngra asta-sekinlik bilan keng

sohalarga joriy qilinsa, ushbu tadbirdan ko'p yo'qotishlar bo'l-maydi. FQTni joriy qilishda iqtisodiy sharoitning afzalligi shundaki, unda mazkur tadbirning samaradorligini aniqlash bilan birga har bir funksiyani baholash usullari ham ishlab chiqiladi.

FQTni joriy qilishda ijtimoiy-ruhiy muhit va sharoitning ham ahamiyati katta. FQT bilan shug'ullanadigan xodimlar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish, bir-biriga itoat qilish muhiti shakllangan bo'lishi lozimdir.

Chunki, jamoaviy mehnat hamisha jamoaviy yakdillikni taqozo qiladi. Agar shu holat ta'minlanmasa, kutilgan samaraga erishish qiyin kechadi.

Zero, FQT natijasida ayrim an'anaviy uzoq yillardan buyon qo'llanilib kelinayotgan narsalardan, usullardan voz kechishga, ularni ilg'or usullar bilan almashtirishga to'g'ri keladi. Albatta, hamisha an'anaviy va o'rganilgan narsalardan voz kechish qiyin kechadi.

Funktional qiymat tahlilini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uni ketma-ket amalga oshirishga erishishdir. Barcha sohalarni amalga oshirishda ketma-ketlik muhim o'rinn tutadi. Ammo FQTda bu o'ta muhim shartlardan biridir. Zero, FQTda ketma-ketlik buzilsa kutilgan natijaga umuman erishib bo'lmaydi.

FQT iqtisodiy tahlilning boshqa shakllari singari ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Ammo bu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu quyidagi bosqichlarda o'z aksini topadi:

- tayyorgarlik bosqichi;
- axborotlarni toplash bosqichi;
- tahlil qilish bosqichi;
- ijodiy bosqich;
- tadqiqot bosqichi;
- xulosa va takliflarni joriy qilish bosqichi.

FQTni to'g'ri va to'liq anglash har bir bosqichni mukammal ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

4.2. Funksional qiymat tahlili har bir bosqichining qisqacha tasnifi

FQTga tayyorgarlik bosqichida eng avvalo tahlil qilinadiga ko'rsatkich, jarayon va hodisa faoliyat kabi tahlil obyekti aniqlanadi.

Masalan, bitta firmada faqat bir xil mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yoki unga joriy qilinadigan yangi texnologiya yoki shu firmani boshqaruvchi faoliyat kabilar tahlil uchun obyekt sifatida tanlab olinishi mumkin. Ba'zi hollarda firmaning butun faoliyati ham FQTning obyekti bo'lishi mumkin. Bu tahlil oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqadi.

FQTni o'tkazish uchun bir qancha mutaxassislardan iborat ishchi guruhi tuziladi. Ishchi guruhi qaysi obyektni qay tarzda, qancha vaqtida tahlil qilish rejasini, uning kutilayotgan samaradorligini aniqlab oladi va shundan kelib chiqqan holda tegishli axborotlarni to'plashga kirishadi.

Axborotlarni to'plash bosqichida ishchi guruhi tanlangan obyektni tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlarni (iqtisodiy ko'rsatkichlarni, konstruktiv yechimlarni, texnologik jarayon hujjatlarini, patentlarni, ilmiy-texnik tavsiyalar kabilarni) to'playdi, ularni bir tizimga keltiradi va o'rghanadi. O'rghanish jarayonida obyektda bajariladigan funksiyalarni aniqlab chiqadi hamda shu funksiyalarning asosiy, yordamchi yoki keraksiz ekanligini aniqlash bilan birga har bir funksiyaning bajarilishi uchun ketadigan xarajatlar miqdorini (sarf qilinadigan vaqtida, pulda) ham aniqlaydi.

FQTning shu bosqichida bajariladigan funksiyalarining tarkibiy tuzilishi va keraksiz funksiyalarni bartaraf qilishning samaradorlik ko'rsatkichlari ham aniqlanadi. Axborotlarning tarkibi, ulardan foydalanish tartibi va uni amalga oshiruvchi shaxslar ham aynan shu bosqichda ko'rsatib beriladi. Tegishli axborotlar yig'ilib, ular bir tartibga keltirilgandan keyin FQTni boshlash mumkin.

Tahlil qilish bosqichida to‘plangan va bir tizimga kelgan axborot manbalariga asosan bajariladigan har bir funksiyaning muhimligi, uni qoldirish yoki bartaraf qilishligi aniqlanadi. Shu bosqichda bajariladigan funksiyalarning bevosita korxonaning ichi va uning tashqarisida qaysilari amalga oshirilishi ham o‘rganiladi. O‘rganilayotgan obyektdan tashqarida bajariladigan keraksiz funksiyalar aniqlanib qolinadigan bo‘lsa ham ularni bartaraf qilish yo‘llarini ko‘rish lozim.

Keraksiz funksiyalar xoh u ichkarida, xoh u tashqarida bo‘lmasin mahsulotning miqdori va sifatiga hech qanday ijobji ta’sir qilmasdan unga sarflanadigan xarajatlarni ko‘paytiradi, tannarxini oshiradi va narxini qimmatlashtiradi.

FQTning ushbu bosqichida har bir bajariladigan funksiya ham mukammal tizimli ravishda tahlil qilib boriladi. Bu asosiy funksiya bo‘lsin.

Ammo uni ham takomillashtirib shu funksiyani kam xarajat bilan amalga oshirish yo‘llarini axtarib topish lozim. Bunda tahlilning barcha usullaridan (an‘anaviy va iqtisodiy matematik) foydalaniladi.

FQT orqali tejalgan xarajatlar eng avvalo mahsulot sifatining yomonlashishi evaziga yuz bermasligi lozim. Eng muhimmi bu orqali tejalgan xarajat FQTni o‘tkazish uchun ketgan xarajatdan kam bo‘lmasligi lozim.

Bunda shuni ko‘zda tutish kerakki, FQTni joriy qilish paytida xarajat ko‘proq bo‘lishi mumkin. Ammo undan keyingi foydalanish davomida keladigan foya bu xarajatlarni juda qisqa muddatda qoplaydigan bo‘lishi kerak. FQTning samaradorligi faqat shu mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar miqdori bilangina o‘lchanib qolmaydi, balki eng muhimmi uning sifati va raqobatbardoshligiga ijobji ta’sir qiladi.

Shu tufayli FQTning samaradorligini ham bir qancha ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda aniqlash taqozo qilinadi. Bularning hammasini FQTning ijodi bosqichida aniqlash mumkin.

Ijodiy bosqich FQTning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ushbu bosqichda har bir zarur funksiyalarni bartaraf qilish bo'yicha g'oya va tavsiyalar to'planadi. Eng muhim ushbu bosqichda biror mahsulotni yaratishdagi funksiyalarni takomillashtirish bilan birga shu yaratilayotgan narsaning o'zi ham takomillashtiriladi.

Masalan, kichik elektron hisoblash mashinasi(KEHM)ni olaylik. Buni yaratish uchun, ta'kidlanganidek, funksiyalar uch guruhga bo'linadi. Ijodiy guruh keraksiz funksiyalarni bartaraf qilib unga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi, asosiy funksiyalarni takomillashtirib, uning sifatini oshiradi.

Ikkinchi bosqichda esa shu KEHMning o'zini takomillashtirish masalasi qo'yiladi. U birinchidan ixcham, qulay, yengil, eng muhim barcha zarur operatsiyalarni bajara oladigan bo'lishi kerak. Buning uchun unga qo'shimcha funksiyalar bajarishni kiritish zarur bo'lsa, u holda ushbu funksiya kiritiladi. Bu ijodiy guruh tomonidan asoslanadi.

Asoslanishi uchun g'oyalar muhokama qilinadi. Bu haqda bayonnomada tuziladi. Ushbu bayonnomada bir qancha g'oya va tavsiyalardan eng yaxshisi tanlab olinadi yoki bir qancha g'oyadan bitta takomillashgan tavsiya varianti ishlab chiqiladi.

Buni amalga oshirish uchun har bir variantda ifodalangan g'oyalar ijobiylari va salbiy guruhlarga bo'lib chiqiladi. So'ngra ijobiylari g'oyalar ham yana eng yuqori samarali va samarasini pastroq guruhlarga bo'linadi. Oxir oqibatda g'oyalarning eng samaralisi tanlab olinadi va o'r ganilayotgan obyektga joriy qilishga aynan shu varianti tavsiya qilinadi.

Agarda ijodiy guruh birinchi safar tahlil qilinayotgan obyektni takomillashtirish bo'yicha yangi g'oyalarni topmasa, bu haqda faoliyatni qaytadan boshlaydi.

Agar bu safar ham birorta yangi g'oyani tavsiya qilish bo'yicha birorta qarorga kelinmasa, hozirgacha o'sha mavjud harakatdagi variant saqlanib qoladi va ijodiy guruh bu obyektni qaytadan funksiyalarni yanada maydalashtirib chuqur o'r ganishga kirishadi.

Aynan xuddi shunday ketma-ketlik va usullar bilan texnologik jarayonlar ham o'rganiladi hamda takomillashtiriladi.

Ta'kidlanganidek, FQT hayotning barcha jabhalariga qo'llaniladi va samarali foydalaniladi.

Masalan, O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari (ayniqsa, meva-sabzavotlar) 35–30 foizi nobud bo'lib bormoqda. Bu jarayonga FQTni qo'llasa, o'ylaymizki, ushbu mahsulotlarning nobudgarchiligi minimal darajagacha qisqaradi. Shuning evaziga FQTni qo'llashga ketgan xarajatlar yuzlab marta qoplanib ketadi. Hozirgi paytda AQSH, Yaponiya, Angliya kabi yirik taraqqiy etgan mamlakatlarda tahvilning ushbu shakli bejiz qo'llanilayotgan emas. Buni O'zbekistonda ham joriy qilish foydadan holi bo'lmaydi.

FQTda tadqiqot bosqichi ham muhim bosqichlardan biridir. Unda tanlab olingan eng samarali variantlarni qo'llash va ularni amaliyatga joriy qilish yo'l-yo'riqlari ishlanadi.

Aynan shu bosqichda joriy qilinadigan tavsiyaning texnik- iqtisodiy samaradorligiga, uning tahlil qilinayotgan obyekt sifati va narxiga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Bularni amalga oshirishda asosan ekspert usulidan foydalaniladi. Ekspertlardan yakka va jamoa holida foydalanish mumkin.

Yakka holda bo'lganda tegishli vazifani har bir ekspertga alohida topshiriladi va ularning yozma fikri keyin umumlashtiriladi. Ekspertlardan jamoa shaklida foydalanilsa, unda qo'yilgan masalalar shu yerning o'zida muhokama qilinadi va qulay yechimga kelinadi.

Yakka holdagi ekspertizaning qulayligi shundaki, har bir ekspert o'zicha mustaqil xulosaga keladi va uni biror tashqi fikr ta'sirisiz qog'ozga tushiradi. Ammo baho berishda o'zining kamchiligini ilg'amaydi, jamoa usulida esa fikrlar o'rta ga tashlansa har bir kishi o'z variantining kamchiliklarini anglab olishi mumkin.

Bu yaxshi. Ammo ko'p hollarda biror bir yaxshi tavsiya o'rta ga tashlansa hammasi shunga qo'shilib qo'ya qolishi mumkin. Bu

esa har bir ekspertning har bir variant bo'yicha keng fikrlash imkoniyatini chegaralaydi.

Ekspertlar obyektning variantlarini ekspertiza qilganda matematik usullardan foydalanmasdan oddiy ekspertiza qilishi mumkin. Hozirgi paytda ko'p hollarda matematik usullardan keng foydalanimoqda. Bu esa masalani yechish uchun juda ko'p qirralardan foydalanish va ishni osonlashtirish imkonini beradi. Bu ishda eng avvalo ekspertlarning tafakkuridan va elektron hisoblash mashinalaridan foydalaniadi.

Xulosa va takliflarni joriy qilish bosqichi FQTning eng oxirgi hal qiluvchi bosqichidir. FQTning barcha bosqichlari orqali eng qulay va samarali variant tanlanadi. Navbatdagi eng muhim vazifa shu tanlangan variantni joriy qilishdir. Bu ishni amalga oshirish bir kishi yoki birorta bo'limning ishi bo'lmasdan butun jamoa ishidir. Bunda FQT guruhi bilan birga barcha mutaxassislar, ishchi va xizmatchilar ishtirot etadilar. Eng muhimi, FQTni amalga oshirish uchun yana qanday qo'shimcha moddiy, mehnat va moliyaviy mablag'lar kerakligi aniqlanadi.

Agar tahlil qilinayotgan obyekt texnologik jarayon bo'lsa yana qanday qo'shimcha jihozzlarni qaysi yo'nalishda takomillashtirish masalasi, bu uchun qanday mutaxassislar kerakligi (mavjudlarini qayta o'qitish yoki yangi mutaxassisni jalb qilish), bularni amalga oshirish uchun qancha pul mablag'i zarurligi kabi masalalar ko'rildi. Shu bilan birga FQTni joriy qilish qancha samara berishi ham shu bosqichda ko'rib chiqiladi. FQTni joriy qilishga ketgan barcha xarajatlar ulardan keladigan foyda evaziga bir necha marta qoplanishi lozim. Shu tufayli FQTning samaradorligi ham aynan ana shu bosqichda asoslanishi shart. Bu FQTni amalga oshirishga ketgan xarajatlarning qoplanish darajasi, undan kelgan foyda summasining (F) shu tadbirga ketgan xarajatga (X) nisbati bilan aniqlanadi.

$$FQT_{qd} = \frac{F}{X}. \quad (4.1.1)$$

Masalan, FQTni joriy qilish uchun 100 ming so‘mlik moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar talab qilinadi. Ekspertlarning hisob kitobi bo‘yicha FQTni joriy qilish bir yilda 300 ming so‘mlik foyda keltirdi. Bu holda FQTga ketgan xarajatlarning qoplanish muddati 4 oy bo‘ladi va bir yilda xarajatlar uch martadan ko‘p foyda keltiradi (300,0:100).

Bu faqat puldagi ifodasi. Bundan tashqari, FQTning mahsulot, ish, xizmat va faoliyat sifatini oshirish evaziga uning raqobat-bardoshlik darajasini ham kuchaytiradi. Bu esa oxir oqibatda korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

FQTni qo‘llash, joriy qilish va ketma-ketligini aniqlab olish uning muhim jihatlaridan biridir. Yirik konsern yoki firmalarda ularga tegishli barcha korxonalar faoliyati iqtisodiy tahlil qilinadi. Agar tahlil qilinayotgan obyektning biron bir bo‘limida xarajatlar ko‘p bo‘lsa, ya’ni bir so‘mlik tovar mahsulotiga to‘g‘ri keladigan tannarxning darajasi yuqori bo‘lsa, FQTni qo‘llash avvalo aynan shu korxonadan boshlanadi. Bordiyu shu korxonada 6 ta faoliyat bo‘lsa, ulardan ham xarajati eng ko‘p faoliyat tanlab olinadi va FQT birinchi shu faoliyatga tatbiq qilinadi.

Shunday qilib, korxonaning yoki tahlil qilinayotgan obyektning takomillashuvi uchun FQTning ahamiyati beqiyos ekanligi ko‘rinib turibdi.

Kelajakda ushbu tahlilni barcha bosqichlari bilan amaliyotga joriy qilish O‘zbekistonda nafaqat makro, balki mikro iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanishi uchun eng muhim dastaklardan biri bo‘ladi.

Bu albatta bir guruh olimlar tavsiyasi yoki bir-ikki firmaga uning usullarini joriy qilish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Bu davlat ahamiyatiga molik masaladir va uni chet mamlakatlar tajribasi ham isbotlab turibdi.

FQT metodologiyasini juda ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqish lozim. Bunda, xususan, boshqaruv, ishlab chiqarish (hamma qirralari bilan), xizmat kabi yo‘nalishlar ko‘zda tutil-

moqda. Bu kelajakda mahsulot, ish, xizmat sifatini oshirish, ular bo'yicha «Sifatning mutloq darajasiga» erishish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

1. Tayanch iboralar, tasniflar va muhim atamalar

FQTning samaradorligini ta'minlash uchun tegishli sharoitlar yaratilishi lozim.

FQTning sharoitlari mazmuni jihatidan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tashkiliy sharoit;
- reklamani yo'lga qo'yish;
- tashviqot va targ'ibotni olib borish;
- uslubiy ta'minotini yo'lga qo'yish;
- me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi;
- ijtimoiy-ruhiy muhit va sharoit;
- iqtisodiy sharoit;
- ketma-ket amalga oshirishga erishish.

FQT iqtisodiy tahvilning boshqa shakllari singari ma'lum ketma-ketlikda, ya'ni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- tayyorlanish bosqichi;
- axborotlarni toplash bosqichi;
- tahlil qilish bosqichi;
- ijodiy bosqich;
- tadqiqot bosqichi;
- xulosa va takliflarni joriy qilish bosqichi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun mo'ljallangan savollari

1. Funksional qiymat tahlilini amalga oshirish sharoitlarining qanday ketma-ketligi mavjuddir?
2. Tashkiliy sharoitning mazmuni nimadan iborat?
3. Reklamani yo'lga qo'yish sharoiti nima?

4. Tashviqot va targ'ibotni olib borish sharoitini tushuntirib bering.
5. Uslubiy ta'minotni yo'lga qo'yishni qanday tushunasiz?
6. Me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi nima uchun zarur?
7. Ijtimoiy-ruhiy muhit va sharoitda nimalarga ahamiyat beriladi?
8. Iqtisodiy sharoit qanaqa sharoit?
9. Ketma-ket amalga oshirishga erishishni qanday tushunasiz?
10. FQT sharoitlari va bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
11. Funksional qiymat tahlilini amalga oshirish bosqichlarining ketma-ketligi qanday tartibda amalga oshiriladi?
12. Tayyorgarlik bosqichi nima?
13. Axborotlarni toplash bosqichini tushuntirib bering.

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha 4 ta masala tuzadi. Ikkitasi FQTning sharoitiga va ikkitasi uning bosqichlariga oid bo'lishi lozim.
2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda bittadan obyekt tanlaydi va shu obyektni o'rganish uchun tegishli sharoit va bosqichlar hamda sharoitlarni qo'llab ishlash usullarini ko'rsatib beradi.
3. Talaba O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarni ko'rib chiqadi, o'rganadi hamda ularning qisqacha mazmunini yozadi. Olimlarning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarining fikrlarini shakllantiradi. Mavjud qarashlarning ijobiylari va munozarali tomonlarini muhokama qilib bir to'xtamga keladi.
4. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarini tanlagan obyektni batafsil o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruv

qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorini seminar tarzida asoslab beradi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni o'rganadi. Masalalarni oxirigacha yetkazadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Mustaqil ish – uning nazorati og'zaki savol-javob bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi va ularning qisqacha mazmunining ushbu mavzuga tegishli qismini yozib topshiradi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Моисеева Н.К. Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение. — 1987.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarcand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207-233 betlar.
3. Pardayev M.Q., Pardayev I.R. Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarcand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiymat tahlilidan foydalanish. 46-75 betlar.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа» .172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. А.Д.Шеремета. —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. Hasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Mono-grafiya. — Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1985.

5-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIGA TAYYORGARLIK KO'RISH BOSQICHI

5.1. Funksional qiymat tahliliga tegishli obyektlarni tanlashdagi yondoshuvlar va mezonlar

Har qanday tahlilning obyektini aniqlab olish uning muhim bosqichlaridan biridir. Zero tahlilning usullari va ketma-ketligi bevosita qanday obyektda olib borilishi bilan belgilanadi.

FQTning obyekti ham har xil bo'lishi mumkin. Bular birinchi galda, uning qo'llanilishiga qarab, texnik yoki notexnik tizimlar bo'lishi mumkin. Texnik tizimga ma'lum bir predmetni yasash va undan foydalanish jarayonlari tushuniladi. Notexnik tizimga esa axborotlarni tizimlashtirish, boshqarishning ta'sirchanligini oshirish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish kabi jarayonlar kiradi.

Ishlab chiqarish sohasidan FQTga obyektni axtarish va tanlashda 3ta yondoshuvdan foydalilanadi: muammoviy, predmetli, tadqiqotli.

Muammoviy yondoshuvda birorta muammoni hal qilishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini yanada oshirish muammosi. Hali uning birorta yo'nalishi aniq bo'lmasligi mumkin. FQT jarayonida ushbu muammolar hal qilinishi lozim bo'ladi. Mahsulotni ishlatishning kafolatli muddatini uzaytirish muammosi bo'yicha ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Ishlab chiqarishga ilmiy-texnik yutuqlarni joriy qilish muammosi. Buni esa hali ishlab chiqarishga joriy qilinib sinalmagan fan-texnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish yo'llari ishlab chiqiladi. Xullas, ushbu yondoshuvda hali yechilmagan masalalar va muammolar hal qilinadi.

Predmetli yondoshuvda ma'lum bir predmet ma'lum bir maqsad bilan tanlanadi. Masalan, mahsulot sifatiga putur

yetkazmagan holda uning tannarxini kamaytirish masalasi. Bunda aniq obyektga aniq vazifa bilan kirishiladi. Bunday yondoshuvda tahvilchi muammolar tizimidan eng zarur bo'lgan predmetni tanlab oladi.

Tadqiqotli yondoshuvda tahvilchi yangidan yaratilayotgan obyektni yoki hali hech o'rganilmagan jarayonni oladi. Bu obyektlarning sifatini saqlab qolgan va oshigan holda, ushbu yondoshuv orqali, minimal xarajatlar bilan ishlab chiqarishga erishish yo'llari ishlab chiqiladi.

Mazkur yondoshuv natijasida FQTning butunlay yangi usuli ishlab chiqiladi.

Umuman olganda FQTni qo'llashda hamisha bir standartga amal qiladigan usul kam bo'ladi, chunki har safar tahlil qilinganda har safar ushbu obyektga yangidan yondoshiladi va yangidan tadqiqotlar o'tkaziladi. Shu jihatdan FQT noan'anaviy tahlil shakli deb yuritiladi.

FQT uchun obyektlarni tanlashda ma'lum mezonlar va ko'rsatkichlarga tayaniladi. Bularning turlari juda ko'p:

- iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- texnik-konstrukturlik ko'rsatkichlari;
- ekologik ko'rsatkichlar;
- mahsulotning mehnat va material sarfi darajasi;
- sifat ko'rsatkichlari;
- iste'molchi talablarini inobatga oluvchi ko'rsatkichlar.

Ushbu mezonlarning tavsifini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni mezon qilib olganda ushbu mahsulotning hajmi, tannarxi, foyda va rentabelligi inobatga olinadi.

Birinchi galda shu mahsulotga talab bo'lishi va shu talabni sifatli arzon mahsulot bilan qondirilishi ko'zda tutiladi.

Texnik-konstrukturlik ko'rsatkichlari juda ko'p masalalarni o'z ichiga oladi.

Bunga yaratilayotgan mahsulotning murakkablik yechimlari, uning konstruksiyasi, texnologik jarayoni, ishlab chiqarish

dastgohlarining yetarligi, materiallarning mavjudligi, iste'molchilarning talablari, tegishli sertifikatlarning va ularni tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Ekologik ko'rsatkichlar ham ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulot o'ta zarur bo'lsayu, ammo u atrof-muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir qiladigan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi korxona aholi uchun ekologik xavfli joyda joylashgan bo'lsa, bunday mahsulotni ishlab chiqarishga kirishilmaydi, agar oldin ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, ishlab chiqarish to'xtatiladi.

Mahsulotning mehnat va material sarfi darajasi ham asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Agar mahsulotni ishlab chiqarish ko'p mehnat va material xarajatini talab qiladigan bo'lsa, uni ishlab chiqarish sotib olishdan qimmatga tushadigan bo'lsa, bunday mahsulotni ishlab chiqargandan ko'ra tashqaridan sotib olgan afzalroqdir. Bu jarayonga ham alohida ahamiyat berish lozimdir.

Sifat ko'rsatkichlari mahsulotni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy mezonzlardan biridir. Bunda oldin ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'lsa iste'molchilarning ushbu mahsulotga e'tirozi bormi yoki yo'qligi, xuddi shunday mahsulotning boshqa raqobatchilar tomonidan ishlab chiqarilayotganligi va ularning sifati hamda narxi, sertifikatga amal qilinayotganligi, uni takomillashtirish zarurligi kabi masalalar ko'rildi. Agar mahsulot yangidan ishlab chiqarilishi ko'zda tutilayotgan bo'lsa, unga qanday nav berilishi, har bir navga qo'yiladigan talablarning mezoni, mualliflik guvohnomasining borligi, undagi talablarning bajarilishi, agar patent olingan bo'lsa, tegishli hujjatlarning mavjudligi va to'g'riligi kabi masalalarga ahamiyat beriladi.

Iste'molchi talablarini inobatga oluvchi ko'rsatkichlar umuman ishlab chiqarishda, ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida katta ahamiyat kasb etmoqda. Agar mahsulotga oldindan buyurma berilsa, unda iste'molchilar talablari shartnomada qanday ko'rsatilgan bo'lsa, unga to'liq amal qilish lozim.

Ammo mahsulot hamisha ham shartnoma asosida ishlab chiqarilavermaydi. Bunday hollarda iste'molchilar talabini va unga qo'yiladigan alohida talablarni tadqiqot natijasida aniqlab, ularga to'liq amal qilish lozim.

5.2. Funksional qiymat tahliliga tanlangan obyektlarning tahlilga tayyorlash

Jahon amaliyotida tanlangan obyektlarni tahlilga tayyorlash bir qancha usullarda olib boriladi. Bunday usullar mamlakatimiz uchun ham muhim va qo'llanilishi mumkindir. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot bilan shug'ullanadigan vaqtincha tashkil qilingan ishchi guruhi;
- FQT bilan doimiy ravishda shug'ullanadigan alohida bo'lmalar;
- FQT guruhi ko'magida shug'ullanadigan laboratoriylar, bo'lmalar, konstrukturlik byurolari, sektorlar;
- ixtirochilar tomonidan yakka tartibda tadqiqot olib borish;
- jamoaviy ijodiy yondoshuv.

Tadqiqot bilan shug'ullanadigan vaqtincha tashkil qilingan ishchi guruhi bir marta bajariladigan ish, xizmat yoki qandaydir bir mahsulot ishlab chiqarishda alohida korxona yoki kompaniya rahbarining buyrug'i bilan tashkil qilinadi.

FQT bilan doimiy ravishda shug'ullanadigan alohida bo'lmalar yirik korxona, kompaniya yoki firmalarning qoshida tashkil qilinadi. Uning vazifasi tanlab olingen obyektlarni tahlil qilishga tayyorlash va tahlil qilishdan iboratdir.

FQT guruhi ko'magida shug'ullanadigan laboratoriylar, bo'lmalar, konstrukturlik byurolari, sektorlar ham borki, ular doimiy ravishda FQT bilan shug'ullanadi. Biroq, bunday bo'lmalarning asosiy vazifasi boshqa ishlarni bajarishga qaratilgan. Ammo, FQTni o'tkazish paytida shu sohaning mutaxassislari ham jalb qilinadi.

Ixtirochilar va ratsionalizatorlar tomonidan yakka tartibda tadqiqot olib borish ham jahon amaliyotida qo'llanib qilinayotgan usullardandir.

Bu usulning afzalligi xarajatlarning kamligi va topshiriqning tez bajarilishini ta'minlasa, kamchiligi shundaki, qabul qilinajak qaroring asosi bir kishining fikridan va tavsiyasidan iborat bo'lib qoladi.

Jamoaviy ijodiy yondoshuv ham tanlangan obyektlarni tahlilga tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bu yondoshuv FQT bilan shug'ullanadigan guruhning bu boradagi faoliyatiga o'xshaydi. Bunda qabul qilinayotgan qarorlarning takomillashuvida jamoaning fikri inobatga olinadi.

Buning afzalligi unda o'rganilayotgan obyektning juda ko'p tomonlari inobatga olinadi.

O'rganilayotgan obyektga jamoaviy yondoshuvda bir qancha tadbirlar ko'zda tutiladi.

Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tadqiqot bilan shug'ullanadigan ishchi guruhini tashkil qilish, (qo'yilgan vazifadan kelib chiqib qo'shimcha mutaxassislarni taklif qilish ham ko'zda tutiladi);
- ushbu guruhning harakat qilish rejasi tuziladi;
- tuzilgan rejani bajarish bo'yicha aniq ish dasturi tuziladi va unda qilinadigan ishlar, jalb qilinadigan mutaxassislar, o'tkaziladigan tadbirlar tegishli bo'lmalar va rahbarlar bilan kelishib olinadi;
- tahlil qilish bo'yicha kerakli axborotlar va ularni olish tartibi aniq ko'rsatilgan reja tuziladi;
- FQTni o'tkazish uchun ketadigan xarajatlar smetasi tuziladi;
- smetada ko'rsatilgan xarajatlarning manbalari va ularni moliyalashtirish yo'llari ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, FQTni o'tkazishda ko'pgina tadbirlar faqat tayyorgarlik bosqichida amalga oshiridi. Agar FQT orqali biror topshiriqni yoki vazifani bajarish ko'zda tutiladigan bo'lsa aniq

jadvallar, chizmalar, diagrammalar, tadbirlar rejasi kabi qo'shimcha va yordamchi axborot tizimlari shakllantiriladi va tuziladi.

Masalan, FQT oldiga mahsulot tannarxini ma'lum foizga kamaytirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, u holda quyidagi jadval tuzilishi mumkin (5.1-jadval)

Agar ushbu mahsulot bo'yicha FQTni qo'llashdan olinadigan bir yillik samaradorlikni aniqlaydigan bo'lsak, quyidagi natijalarga erishgan bo'lamiz.

Barcha xarajatlar summasi amaldagi qiymatda:

$$250\ 500 \times (5\ 800 + 3\ 200) = 2\ 254,5 \text{ ming so'm.}$$

Barcha xarajatlar summasi, o'tgan yilgi ishlab chiqarish hajmi doirasida, FQTni qo'llagandan keyingi qiymatda:

$$250\ 500 \times (5\ 400 + 3\ 150 + 56) = 2\ 155,8 \text{ ming so'm.}$$

Bunga yana FQTni qo'llashdan olinadigan samaradorlikni qo'shish lozim:

$$250\ 500 \times 240 = 60,2 \text{ ming so'm.}$$

Barcha samaraning qiymati:

$$2\ 254,5 - 2\ 155,8 + 60,2 = 158,9 \text{ ming so'm.}$$

5.1- jadval

Mahsulot tannarxini 5 foizga tushirishga FQT orqali erishishning hisob-kitobi

FQT maqsadi: elektr choynaginining tannarxini 5% ga kamaytirish.

Talab: mazkur choynakning sifatini to'liq (kamida 80 foiz) saqlab qolish va ko'rinishini yanada yaxshilash;

Tadqiqotning boshlanishi _____

Tadqiqotning tugashi _____

Ko'rsatkichlar	Amaldagi qiymati	FQTdan keyingi rejalashtirilgan qiymat
1. Bir yillik ishlab chiqarish hajmi, dona	250 500	290 000
2. Ulgurji bahosi, so'm (1 donasiniki)	7 400	—
3. Tannarxi, so'm	5 800	5 400
4. Asosiy materiallarga ketadigan xarajatlar, so'm	3 200	3 150
5. FQT ga ketadigan xarajatlar, so'm (1 donasi uchun)	—	56
6. FQTni qo'llashdan olingan yillik samara, so'm	—	240
4. FQTning samaradorligi, so'm (6 q : 5 q)	—	4,29

Ko'rinish turibdiki, FQTni qo'llash korxonalar uchun yaxshigina samara berar ekan. Shu tufayli ushbu usulni barcha sohalarda qo'llash orqali mavjud ichki imkoniyatlarni ishga solgan holda ko'p samara olish imkonini tug'iladi.

5.3. Funksional qiymat tahlilini o'tkazadigan guruhlarni tuzish tartibi

Funksional qiymat tahlilini o'tkazadigan guruhlarni tuzish tartibi uning tanlab olingan obyektiga va uning xarakterli xususiyatlariiga bog'liq. FQTni o'tkazish davri aniq bo'lga, shu davrda kimlarni jalb qilish va qancha vaqtga jalb qilish masalasi uncha murakkab masala emas.

Biroq, mutaxassis FQTga to'liq jalb qilinsa, shu davrda u asosiy bajarib turgan ishidan to'liq yoki qisman ozod etiladi. Agar u yaxshi malakali mutaxassis bo'lsayu, lekin FQTni

o'tkazish tartibi va tamoyillarini bilmasa, u ma'lum tayyorlov kursidan o'tadi, chunki FQTni amalga oshirish o'ziga xos, aynan shu soha bo'yicha malakani talab qiladi.

FQTni o'tkazadigan muvaqqat guruh FQT o'tadigan korxona yoki kompaniya rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu buyruqda hamma jihatlar ko'zda tutilishi lozim: kimni qancha vaqtga, qaysi sohaga, qancha oylik maosh bilan va hokazo. Guruhning rahbari tayinlanadi, uning va boshqa a'zolarining funksiyasi belgilab beriladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

FQT obyektining texnik tizimi deganda ma'lum bir predmetni yasash, undan foydalanish jarayonlari tushuniladi.

FQT obyektining notexnik tizimi deganda axborotlarni tizimlashtirish, boshqarishning ta'sirchanligini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish kabi jarayonlar tushuniladi.

Muammoviy yondoshuv deganda FQT orqali birorta muammoni hal qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Predmetli yondoshuv deganda FQT orqali ma'lum bir predmetni ma'lum bir maqsad bilan tanlab, uni batafsil o'rGANISHGA qaratilgan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Tadqiqotli yondoshuv deganda FQT orqali yangidan yaratilayotgan obyektni yoki hali hech o'rganilmagan jarayonni, uning sifatini saqlab qolgan va oshirgan holda, ushbu yondoshuv orqali, minimal xarajatlar bilan ishlab chiqarishga erishish yo'llarini ko'rsatib beradigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

FQT uchun obyektlarni tanlashda ma'lum mezonlarga, ko'rsatkichlarga tayaniladi. Bularga quyidagilar kiradi

- iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- texnik-konstrukturlik ko'rsatkichlari;
- ekologik ko'rsatkichlar;
- mahsulotning mehnat va material sarfi darajasi;

- sifat ko'rsatkichlari;
- iste'molchi talablarini inobatga oluvchi ko'rsatkichlar.

Jahon amaliyotida tanlangan obyektlarni tahlilga tayyorlash bir qancha usullarda olib boriladi va ular mamlakatimiz uchun ham muhimdir. Bunday usullarga quyidagilar kirdi:

- tadqiqot bilan shug'ullanadigan vaqtincha tashkil qilingan ishchi guruhi;
- FQT bilan doimiy ravishda shug'ullanadigan alohida bo'linmalar;
- FQT guruhi ko'magida shug'ullanadigan laboratoriylar, bo'linmalar, konstrukturlik byurolari, sektorlar;
- ixtirochilar tomonidan yakka tartibda tadqiqot olib borish;
- jamoaviy ijodiy yondoshuv.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollar

1. Funksional qiymat tahliliga tegishli obyektlarni tanlashda qanaqa yondoshuvlar mavjud?
2. FQT obyektining texnik tizimi deganda nima tushuniladi?
3. FQT obyektining notexnik tizimi deganda nima tushuniladi?
4. Muammoviy yondoshuv deganda nima tushuniladi?
5. Predmetli yondoshuv deganda nima tushuniladi?
6. Tadqiqotli yondoshuv deganda nima tushuniladi?
7. FQT uchun obyektlarni tanlashda qanaqa mezonlarga va ko'rsatkichlarga tayaniladi?
8. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni tushuntirib bering.
9. Texnik-konstrukturlik ko'rsatkichlarini tushuntirib bering.
10. Ekologik ko'rsatkichlarni tushuntirib bering.
11. Mahsulotning mehnat va material sarfini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tushuntirib bering.
12. Sifat ko'rsatkichlarini tushuntirib bering.

13. Iste'molchi talabalarini inobatga oluvchi ko'rsatkichlarni tushuntirib bering.

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha 5 ta masala tuzadi.
2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda oldingi tanlagan obyektni mukammal o'rganish uchun ushbu bosqichda qiladigan ishlarini ko'rsatib beradi.

3. Talaba O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha chop etilgan adabiyotlarni, maqolalar va boshqa asarlarni ko'rib chiqadi, o'r-ganadi hamda ularning qisqacha mazmunini yozadi. Olimlarning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarining fikrlarini shakllantiradi. Mavjud qarashlarning ijobiylari va munozaralari tomonlarini muhokama qilib bir to'xtamga keladi.

4. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zlarini tanlagan obyektni batafsil o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorini seminar tarzida asoslab beradi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi.

Yozma nazorat ushbu mavzu bo'yicha ham ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni o'rganadi. Masalalarni ishlaydi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Uning nazorati og'zaki savol-javob va ayrim hollarda test bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi va ularning qisqagina mazmunining ushbu mavzuga tegishli qismini, unga o'z fikrini bildirgan holda yozib topshiradi.

1. Dastur shaxsiyotiga qarab, shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
a) Mavzusining yozishishiga qarab, shaxsiyotning qisqacha.
b) Pechoniy shaxsiyotiga qarab, shaxsiyotning qisqacha.
c) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
d) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
e) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
f) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
g) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
h) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
i) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
j) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
k) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
l) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
m) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
n) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
o) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
p) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
q) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
r) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
s) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
t) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
u) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
v) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
w) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
x) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
y) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.
z) Shaxsiyotning qisqacha nazorati qisqacha.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Моисеева Н.К. Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. Pardayev M.Q., Pardayev I.R. Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiyamat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа» .172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимстному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. А.Д.Шеремета. —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1985.

6-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA AXBOROTLARNI TO'PLASH BOSQICHI

6.1. FQTda qo'llaniladigan axborotlarni to'plash va ularni ma'lum darajada tartibga keltirish

O'r ganilayotgan obyekt to'g'risida tegishli axborotlarni to'plash va ularni ma'lum darajada tartibga keltirish bosqichi tahlil uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki to'g'ri va sifatlari axborot to'planmas ekan, hech mahal to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi. To'g'ri xulosa bo'lmagan joyda ta'sirchan boshqaruvi qarorlarini ham qabul qilib bo'lmasligi hammaga ayon. Shu tufayli tahlil jarayonida, ayniqsa FQTda ushbu masala o'ta muhimdir. Shu tufayli ushbu bosqichni, odatda, hal qiluvchi, FQTning paydevori ham deb ataydilar.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini ma'lum darajada chegaralanishi o'z-o'zidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash bilan birga, ularning o'z xo'jaligini boshqarishda mustaqilligini va mas'uliyatini ham oshiradi. Bunday sharoitda davlatimiz tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miq'yoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeい va huquqlarini mustahkamlash vazifasini qo'yilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan mulkdor va uning tasarrufida ishlovchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi. Buning asosiy tamoyili ishonch asosida qurilishi lozim.

Bir-biriga ishonch iqtisodiyotda «SAHTXOB» tamoyili orqali erishiladi. Buning mazmuni nimadan iborat degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu eng avvalo soflik (S) degani. Soflik orqali ishonchga sazovor bo'linadi. Bir-biriga ishongan kishilar o'rtasida sof va samimiyli munosabat bo'ladi. Ikkinchisi esa axborotlarning haqqoniyligi (AH). Bunga axborotlar haqqoniyligi bo'lgan joydagina

erishish mumkin. Axborotlar oddiy raqamlar emas, ularning har biri qandaydir va kimningdir manfaatini ifodalaydi.

Ushbu tamoyildagi uchinchi bo‘g‘in – bu to‘g‘ri xulosa (TX). Axborotlar haqqoniy bo‘lImagen joyda to‘g‘ri xulosa chiqarish qiyin. To‘g‘ri xulosa haqqoniy va to‘g‘ri axborotlar mahsuli ekanligini unutmaslik lozim.

Ushbu tamoyildagi to‘rtinchi bo‘g‘in bu odilona boshqarish (OB). To‘g‘ri xulosa bo‘lImagen joyda odilona boshqarishga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli ushbu tushunchalar bir-biriga zanjirsimon va dialektik bog‘liqlikka ega.

Shunday qilib, SAHTXOB tamoyili (S) soflik, (AH) axborotlar haqqoniyligi, (TX) to‘g‘ri xulosa va (OB) odilona boshqaruvdan iboratdir.

Ushbu tamoyilni erkinlashayotgan iqtisodiyotning barcha unsurlariga, xususan, iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi va murakkab shakli bo‘lgan FQTga ham qo‘llash mumkin. Chunki, iqtisodiy tahlilning ahamiyati bozor munosabatlarining shakllanishi bilan yanada oshmoqda. Endi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlariga maqbul, to‘g‘ri va foydali yo‘l tanlab olishi uchun o‘z faoliyatini, qilgan va qilajak ishlarini faqat tahlil qilishi lozim. Tahlil har tomonlama bo‘lishini taqozo qiladi. Avvalo, hozirgi paytda qilinadigan ish oldindan tahlil qilinib ko‘rilishi lozim. So‘ngra qilinayotgan ish tahlil qilinadi va nihoyat qilingan ish atroflicha o‘rganiladi.

Tahlil, shu jumladan FQTning ham maqsadi to‘g‘ri xulosa chiqarish va odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdan iboratdir. Ammo to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun axborotlar haqqoniy bo‘lishi talab qilinadi. Axborotlarni kim to‘playdi, kim uning haqqoniyligiga javob beradi? Albatta mutaxassislar, boshqaruv idorasida o‘tirgan xodimlar. Agar ular halol-pok bo‘lmasa, axborotlar to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki, har bir axborotning zamirida, yuqorida ta’kidlanganidek, manfaat yotadi. Agar xodim axborotlarni jamlash va shakllantirishda o‘z manfaatini ustun

6-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA AXBOROTLARNI TO'PLASH BOSQICHI

6.1. FQTda qo'llaniladigan axborotlarni to'plash va ularni ma'lum darajada tartibga keltirish

O'r ganilayotgan obyekt to'g'risida tegishli axborotlarni to'plash va ularni ma'lum darajada tartibga keltirish bosqichi tahlil uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki to'g'ri va sifatlari axborot to'planmas ekan, hech mahal to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi. To'g'ri xulosa bo'lmagan joyda ta'sirchan boshqaruv qarorlarini ham qabul qilib bo'lmasligi hammaga ayon. Shu tufayli tahlil jarayonida, ayniqsa FQTda ushbu masala o'ta muhimdir. Shu tufayli ushbu bosqichni, odatda, hal qiluvchi, FQTning paydevori ham deb ataydilar.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini ma'lum darajada chegaralanishi o'z-o'zidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash bilan birga, ularning o'z xo'jaligini boshqarishda mustaqilligini va mas'uliyatini ham oshiradi. Bunday sharoitda davlatimiz tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miq'yoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeい va huquqlarini mustahkamlash vazifasini qo'yilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan mulkdor va uning tasarrufida ishlovchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi. Buning asosiy tamoyili ishonch asosida qurilishi lozim.

Bir-biriga ishonch iqtisodiyotda «SAHTXOB» tamoyili orqali erishiladi. Buning mazmuni nimadan iborat degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu eng avvalo soflik (S) degani. Soflik orqali ishonchga sazovor bo'linadi. Bir-biriga ishongan kishilar o'rtasida sof va samimiy munosabat bo'ladi. Ikkinchisi esa axborotlarning haqqoniyligi (AH). Bunga axborotlar haqqoniy bo'lgan joydagina

erishish mumkin. Axborotlar oddiy raqamlar emas, ularning har biri qandaydir va kimningdir manfaatini ifodalaydi.

Ushbu tamoyildagi uchinchi bo‘g‘in – bu to‘g‘ri xulosa (TX). Axborotlar haqqoniy bo‘lmagan joyda to‘g‘ri xulosa chiqarish qiyin. To‘g‘ri xulosa haqqoniy va to‘g‘ri axborotlar mahsuli ekanligini unutmaslik lozim.

Ushbu tamoyildagi to‘rtinchi bo‘g‘in bu odilona boshqarish (OB). To‘g‘ri xulosa bo‘lmagan joyda odilona boshqarishga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli ushbu tushunchalar bir-biriga zanjirsimon va dialektik bog‘liqlikka ega.

Shunday qilib, SAHTXOB tamoyili (S) soflik, (AH) axborotlar haqqoniyligi, (TX) to‘g‘ri xulosa va (OB) odilona boshqaruvdan iboratdir.

Ushbu tamoyilni erkinlashayotgan iqtisodiyotning barcha unsurlariga, xususan, iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi va murakkab shakli bo‘lgan FQTga ham qo‘llash mumkin. Chunki, iqtisodiy tahlilning ahamiyati bozor munosabatlarining shakllanishi bilan yanada oshmoqda. Endi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlariga maqbul, to‘g‘ri va foydali yo‘l tanlab olishi uchun o‘z faoliyatini, qilgan va qilajak ishlarini faqat tahlil qilishi lozim. Tahlil har tomonlama bo‘lishini taqozo qiladi. Avvalo, hozirgi paytda qilinadigan ish oldindan tahlil qilinib ko‘rishi lozim. So‘ngra qilinayotgan ish tahlil qilinadi va nihoyat qilingan ish atroflicha o‘rganiladi.

Tahlil, shu jumladan FQTning ham maqsadi to‘g‘ri xulosa chiqarish va odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdan iboratdir. Ammo to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun axborotlar haqqoniy bo‘lishi talab qilinadi. Axborotlarni kim to‘playdi, kim uning haqqoniyligiga javob beradi? Albatta mutaxassislar, boshqaruv idorasida o‘tirgan xodimlar. Agar ular halol-pok bo‘lmasa, axborotlar to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki, har bir axborotning zamirida, yuqorida ta’kidlanganidek, manfaat yotadi. Agar xodim axborotlarni jamlash va shakllantirishda o‘z manfaatini ustun

qo'yadigan hamda ma'naviyati past bo'lsa, u bergen axborotlar haqqoniy bo'lmasligi mumkin.

Haqiqiy bo'lmanan axborot hamisha chalkash va noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida oqilona boshqarishga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu tufayli tahlil jarayonida, ayniqsa FQTda ishonch va SAHTXOB tamoyiliga doimo amal qilish lozimligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Ushbu tamoyil tahlil uchun axborotlarni yetkazib beruvchilarning eng avvalo, sofligini talab qiladi. Ular sof kishilar, xodimlar bo'lsagina axborot haqqoniy bo'ladi. Agar axborotlar haqqoniy bo'lmasa, to'g'ri xulosa chiqarish qiyin. Xulosa chalkash va noto'g'ri bo'lsa, odilona boshqaruv qarorlarini ham qabul qilib bo'lmaydi. Shu tufayli tahlilda to'g'ri va izchillilikni ta'minlash uchun SAHTXOB tamoyiliga doim amal qilish lozim.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda mazmun va mohiyati jihatidan butunlay yangi boshqaruv tizimi tarkib topdi hamda izchillik bilan takomillashmoqda. Ammo Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «To'rachilik, o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qarash, poraga sotilish hollari bu tizim asoslariga nechog'li zarar yetkazmoqda?» Ming afsuski, bu zararning moddiy va ma'naviy qiymatini hisoblab chiqish qiyin. Agar noto'g'ri axborotlar FQTda to'planadigan bo'lsa, buning zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida «Ishonch va SAXTXOB» tamoyillaridan foydalanishga ehtiyoj yanada kuchayadi. Chunki, yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatini oshirish demakdir». Bundan ko'rinish turibdiki, erkinlik hamisha mas'uliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Har bir insonda mas'ullik tuyg'usi uyg'onganligi to'g'risida eng avvalo o'zida, keyin o'zgalarda ishonch hosil qilishi lozim. Ishonch bor joyda samimiylilik bor. Aynan shu holatda «SAHTXOB» tamoyilini qo'llash mumkin. Ushbu tamoyil

bugungi kun talabidan kelib chiqqan iqtisodiyotda va uning barcha unsurlarida, xususan, FQTda ham qo'llanilishi lozim bo'lgan mazmun-mohiyati jihatidan yangi tamoyildir.

6.2. FQTda qo'llaniladigan axborotlar tizimi

O'zbek tilining izohli lug'atida (1981-yil) axborotga ikkita izoh berilgan:

- 1) Xabar, xabarlar, ma'lumot, informatsiya.
- 2) Vaqtı-vaqtı bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi. Bularning ichida iqtisodiy tahlilga mosroq atama – bu ma'lumotdir.

Ushbu kitobda «Ma'lumot» atamasiga ham ikkita izoh berilgan:

- 1) O'qish-o'rghanish natijasida olingan bilim darjası.
- 2) Xabar, axborot. Dalil bo'ladigan hujjat, raqam va shu kabi materiallar.

Ko'rinish turibdiki, bu ikki holda ham axborotlarning mazmuni iqtisodiy tahlil, ayniqsa, FQT va boshqaruv nuqtayi nazaridan yetarli darajada oolib berilmagan.

Axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan hamda bo'ladigan jarayonlar to'g'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir. Ularga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy axborotlar;
- og'zaki axborotlar;
- yozma, ya'ni hujjatlarda ifoda etilgan axborotlar;
- hisoblash mashinalarida ifoda etilgan axborotlar.

Lekin iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy axborotlar zarur.

Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lum bir huquqiy kuchga ega bo'lgan ma'lumotlar majmuidan iboratdir. Masalan, o'tgan

davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to‘g‘risidagi axborotni ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘tgan davrdagi hisobotidan olamiz.

Hisobot qonuniy kuchga ega bo‘ladi qachonki, uning to‘g‘ri tuzilganligini kafolotlovchi tashkilot rahbari va bosh buxgalterning yoki boshqa mas‘ul shaxslarning imzosi va shu imzolarni tasdiqlovchi yumaloq muhri bosilgan bo‘lsa.

Ushbu ko‘rsatkichning hozirgi holati va kelgusi istiqboldagi hajmi ham tegishli tarzda hisob-kitob qilinib, mas‘ul shaxslar tomonidan tasdiqlansagina ulardan iqtisodiy tahlilda, shu jumladan FQTda foydalanish mumkin.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo‘layotgan jarayonlar to‘g‘risida, odatda, inson bexabar bo‘ladi. U to‘liq ma‘lumotga ega bo‘ladi, qachonki shu jarayonlar to‘g‘risidagi tegishli axborotlarga ega bo‘lsa. Axborotlar qanchalik to‘liq, qanchalik haqqoniy bo‘lsa, undan chiqariladigan xulosalar ham shunchalik to‘liq va to‘g‘ri bo‘ladi.

Ammo, shuni ta’kidlash joizki, axborotlar zarur miqdorda bo‘lishi lozim. Uning kam bo‘lishi to‘liq va to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi, ko‘pi esa ulardan tez va soz foydalanishda qiyinchiliklar tug‘dirishi, ortiqcha vaqt ni olishi mumkin.

Axborotlarning ko‘pi yaxshi, lekin ular ortiqcha bo‘lmasligi lozim. Shu tufayli har bir jarayonni tahlil qilganda, aynan shu jarayonga tegishli axborotlarni olishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilda, shu jumladan, FQTda qo‘llaniladigan ma‘lumotlar va axborotlarni bir-biridan farqlash lozim.

Ma‘lumotlar deganda sodir bo‘lgan hodisa va jarayonlarni o‘zida ifoda etgan birlamchi hujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilari, xabarlar tushuniladi.

Masalan, 15 kishi bir oy ishladi, degan ma‘lumot tabelda, 2 kishi kasallik varaqasida, shuncha mahsulot sotildi degan ma‘lumot schyot-fakturada, qancha pul o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot to‘lov-buyurtmasida ifodalanadi. Bularning

hammasi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar beradi.

Axborotlar deganda, yuqorida ta‘kidlanganidek, shu ma‘lumotlarni jamlash, ularni ishlash orqali ma‘lum tizimga keltirish natijasida hosil bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma‘lumotlar majmui tushuniladi. Iqtisodiy tahlilda asosan axborotlardan kengroq foydalaniladi. Ba’zan tahlilni churqurlashtirish va aniqlik kiritish uchun bevosita birlamchi ma‘lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Axborotlar qayerda ifodalanishiga qarab uchga bo‘linadi: og‘zaki, hujjatlarda va mashinada.

Og‘zaki axborotlar ko‘pgina tezkor hisobda qo‘llaniladi. FQT ijodiy guruhi ham bunday axborotlardan keng foydalanishlari mumkin. U bevosita muloqot, telefon va boshqa vositalar orqali berilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida og‘zaki axborotlar juda keng qo‘llaniladi. Bunda axborot beruvchi va uning iste’molchisi o‘rtasida yuksak ishonch bo‘lishi lozim.

Sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar hujjatlarda ifoda etiladi. Bular eng avvalo, buxgalteriya hisobida o‘z ifodasini topadi. Har bir jarayonning qonuniyligi aynan shu va shu kabi hisoblarda, hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topadi. Shu jihatdan juda ko‘p axborotlar iqtisodiy tahlil uchun hujjatlardan olinadi. Har bir hujjat qonuniy kuchga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun yuqorida ta‘kidlanganidek, tashkilot rahbari, bosh buxgalteri kabi mas‘ul shaxslarning imzosi va muhr qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Mashinalarda ifoda etilgan axborotlar hozirgi paytda juda keng qo‘llanilmoqda. Zero kompyuterlar barcha hisob-kitob jarayoniga kirib bormoqda. Hozirgi paytda kompyuterlardan bevosita axborotlarni uzatishda ham keng foydalanilmoqda. Masalan, O‘zbekiston «Internet» ga ulanib butun dunyo axborot tizimiga kirdi va ulardan bemaol foydalanilmoqda. Yoki hozir bank tizimlari bo‘yicha yagona kompyuter tarmog‘i tashkil qilindi. Bu ham banklar o‘rtasidagi muloqotni kompyuter orqali amalga oshirish imkonini tug‘diradi.

Har bir guruh axborotlar o‘z navbatida yana bir qancha turlarini o‘z ichiga oladi. Bularni alohida-alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Og‘zaki axborotlar bozor munosabatlari shakllangan sharoitda keng qo‘llaniladi. Jahon amaliyotida iqtisodiy jarayonlarni tez amalga oshirish va bir-birining ishonchiga sazovor bo‘lishi uchun og‘zaki shartnomalardan ham foydalanilmoqda. Bu erkin raqobat sharoitida har bir firmaning o‘zlariga hamkor topishi va o‘zaro ishonch qozonishi uchun qulay vositadir.

Og‘zaki axborotlar o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi: so‘rovga javob tariqasida berilgan axborot, bevosita muloqotda beriladigan axborot, ma’ruza va nutqlar orqali beriladigan axborotlar, telefon orqali beriladigan axborotlar va shu kabilar.

So‘rovga javob tariqasida beriladigan axborotlar ko‘pincha muxbirlar, jurnalistlar, ilmiy xodimlar va boshqa tahlilchilarning intervyyulari orqali aniqlanadi hamda olinadi. Masalan, tahlilchi iqtisodiy islohotning jadal borishini asoslash uchun tuman xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tashkiloti mas’ullariga bir qancha savollar bilan murojaat qilib, ularning javoblari asosida o‘z xulosalarini yanada boyitishi va chuqurlashtirishi mumkin.

Muloqot paytida beriladigan axborotlar ham xulosa chiqarish va ma’lum qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘ladi. Masalan, ustoz-shogird muloqotida shogird uchun juda ko‘p axborot berish mumkin. Yoki mutaxassislarning dehqonlar bilan muloqotini misol sifatida keltiraylik. Dehqonlarga qachon, qancha o‘g‘it berish, necha marta haydashi, qachon o‘rishi, qanday o‘rishi kabi ko‘rgazmalar ham og‘zaki muloqot orqali berilishi mumkin.

Ma’ruza va nutqlar orqali ham juda ko‘p ma’lumotlar beriladi. Masalan, O‘zbekistonning boshqa hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasida tutgan o‘rni, aholining va mahsulot ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari kabi ma’lumotlar tinglovchilarga juda to‘g‘ri va aniq xulosa chiqarish uchun juda zarur ma’lumotlar bo‘lib

hisoblanishi mumkin. Yoki notiqning biron bir sohada samaradorlikni amalga oshirish uchun olib boriladigan ishlar ko'lami va natijalari to'g'risidagi ma'ruzasi aynan shu sohaga kiruvchi bitta korxona rahbari uchun o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishda asos bo'lishi mumkin.

Juda ko'p axborotlarni radio, televideniya kabi og'zaki axborotlar vositalaridan ham olish mumkin. Telefonogramma ham bevosita og'zaki-yozma axborot vositasi sifatida keng qo'llanmoqda.

Shunday qilib, hozirgi paytda og'zaki axborotlardan tahlil qilish, ma'lum xulosa chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko'lamda foydalanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo'llanilish doirasining kengayishi va boshqaruv uchun asos bo'lishi shak-shubbasizdir.

Hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan asosiy axborotlardan hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladijan iqtisodiy jarayonlar, eng avvalo, hujjatlarda aks ettiriladi. Bu hujjatlar mulkdor, davlat, ish beruvchi va sohibkorning manfaatini, haq-huquqini ifoda etish bilan birga, ularni himoyalaydi. Masalan, ish beruvchi sohibkorga qancha ishlaganiga qarab ish haqi to'laydi. Mulkdor o'z mulkini bir kishiga xatlab ijaraga bergen bo'lsa, ijarachi shu mulknini son va sifat jihatidan saqlanishi uchun javobgar va hokazo.

Demak, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda hujjatlarning, unda ifoda etilgan axborotlarning ahamiyati beqiyos. Hujjatlar juda ko'p, ular turli-tuman. Bu haqida buxgalteriya hisobi fanida to'liq ma'lumotlar beriladi.

Iqtisodiy tahlilda hujjatlarning jamlangan qismlaridan foydalilaniladi. Ular ko'pincha buxgalteriya, statistik va tezkor hisobkitoblarda ifodalanadi. Shunday qilib, iqtisodiy jarayonlarni o'zida aks etadigan hujjatlarda ifodalanadigan birlamchi axborotlar, asosan, korxona rejasida, buxgalteriya, statistik va tezkor hisob hamda hisobotlarda o'z aksini topadi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari aksariyat hollarda, bevosita kompyuterlar va boshqa hisoblash mashinalarida bajarilmoqda. Ba'zi joylarda esa ushbu ishning aksariyat qismi hamon qo'l kuchi bilan an'anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, mashinalashtirish darajasi bo'yicha axborotlar ikki guruhg'a bo'linadi: mashinalashtirilgan va yarim mashinalashtirilgan.

Mashinalashtirilgan axborotlar, asosan, magnit tasmalarida, disklarda, disketlarda, bevosita kompyuter fayllari kabilarda aks ettiriladi.

Yarim mashinalashtirilgan axborotlarning bir qismi hisoblash mashinalarida va bir qismi an'anaviy tarzda qo'lida bajarilgan tegishli hisob hamda hisobotlarda ifodalanadi. Ushbu axborotlarning hammasi iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun asosiy axborot beruvchi ma'lumot bo'lib hisoblanadi.

Mashinalashtirilgan axborotlar ham hozirgi sharoitda o'ziga xos tarzda rivoj topmoqda.

Bundan 30–40-yil muqaddam asosiy axborotlar perfokarta va perfotasmalarda ifodalangan bo'lsa, hozirgi paytga kelib bular kompyuter fayllarida ifoda etilmoqda. Mazkur axborot manbalari shaklan va mazmunan ulardan farq qiladi va bir necha barobar takomillashgandir.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

SAHTXOB tamoyili deganda (S) soflik, (AH) axborotlar haqqoniyligi, (TX) to'g'ri xulosa va (OB) odilona boshqaruv tushuniladi.

Axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir.

Iqtisodiy axborotlar deganda iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lum bir

huquqiy kuchga ega bo‘lgan ma’lumotlar majmui tushuniladi. Ma’lumotlar deganda sodir bo‘lgan hodisa va jarayonlarni o‘zida ifoda etgan birlamchi hujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushuniladi.

Jamlama axborotlar deganda, ma’lumotlarni jamlash, ularni ishlatish orqali ma’lum tizimga keltirish natijasida hosil bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma’lumotlar majmui tushuniladi.

Og‘zaki axborotlar deganda tezkor tarzda bevosita muloqot, telefon va boshqa turli vositalar orqali ovoz yo‘li bilan beriladigan axborotlar tushuniladi.

Hujjatlarda ifoda etiladigan axborotlar deganda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarning qonuniyligi ta’minlanadigan, ya’ni tashkilot rahbari, bosh buxgalteri kabi mas’ul shaxslarning imzosi va muhr qo‘yilgan hujjatlarda ifoda etiladigan ma’lumotlar tizimi tushuniladi.

Mashinalarda ifoda etilgan axborotlar deganda hozirgi paytda juda keng qo‘llanilayotgan hisoblash texnikalarida, xususan kompyuterlarda o‘z aksini topgan ma’lumotlar majmui tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo‘yicha bilishi lozim bo‘lgan va o‘zini-o‘zi nazorat qilish uchun savollar

1. FQTda qo‘llaniladigan axborotlar qanday to‘planadi va ular ma’lum tartibga qanday keltiriladi?
2. Iqtisodiy axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
3. Og‘zaki axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
4. So‘rovga javob tariqasida berilgan axborot qanday axborot hisoblanadi?
5. Bevosita muloqotda beriladigan axborot qanday axborot hisoblanadi?
6. Ma’ruza va nutqlar orqali beriladigan axborotlar qanday axborot hisoblanadi?

7. Telefon orqali beriladigan axborotlar qanday axborotlar hisoblanadi?
8. Yozma, ya’ni hujjatlarda ifoda etilgan axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
9. Hisoblash mashinalarida ifoda etilgan axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
10. Mashinalashtirilgan axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
11. Yarim mashinalashtirilgan axborotlarga qanday axborotlar kiradi?
12. Mashinalashtirilgan axborotlar, asosan, qanday vositalarda ifoda etiladi?
13. Magnit tasmalaridagi axborotlar qanday axborot?
14. Disklarda, disketlarda, bevosita kompyuter fayllari kabi-larda aks ettiriladigan axborotlarga nimalar kiradi?

3. Ushbu mavzu bo‘yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo‘yicha 5 ta masala tuzadi.
2. Ushbu mavzu bo‘yicha har bir talaba mustaqil ravishda oldingi tanlagan obyektni mukammal o‘rganish uchun ushbu bosqichda qiladigan ishlarini, xususan, axborot to‘plash usullarini ko‘rsatib beradi.
3. Talaba O‘zbekistonda ushbu mavzu bo‘yicha chop etilgan adabiyotlarni, maqolalar va boshqa asarlarni ko‘rib chiqadi, o‘rganadi va ularning qisqacha mazmunini yozadi. Olimlarning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Talaba ushbu mavzu bo‘yicha o‘zlarining fikrlarini shakllantiradi. Mavjud qarashlarning ijobi va munozarali tomonlarini muhokama qilib bir to‘xtamga keladi.
4. Talaba ushbu mavzu bo‘yicha o‘zlari tanlagan obyektni batafsil o‘rganib, uni yaxshilash bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorini seminar tarzida asoslab beradi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni o'rganadi. Masalalarni ishlaydi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Uning nazorati og'zaki savol-javob va ayrim hollarda test bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba (magistr) mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi hamda ularning qisqacha mazmunining ushbu mavzuga tegishli qismini, unga o'z fikrini bildirgan holda yozib topshiradi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Моисеева Н.К. Функционально стоимостной анализ в машиностроении. –М.: Машиностроение. – 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarcand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarcand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiyamat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. –М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. А.Д.Шеремета. –М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. –М.: Финансы и статистика, 1985.

7-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA MASALANING MOHIYATINI O'RGANISH BOSQICHI

7.1. O'rGANILAYOTGAN OBYEKTDА MAVJUD FUNKSIYALARНИ ANIQLASH, TASNIFlash VA TAVSIFlash

Birorta predmet yoki faoliyat tashqaridan qaraganda go'yo yaxlit bir umumiylar birlikni tashkil qiladi. Agar ularning mohiyatiga e'tibor berilsa, ular funksiyalar tizimidan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, do'ppini olaylik. U materialni tanlash, bichish, ipni tanlash, kashtasini tikish, ularni biriktirib tikish, yelimlab qotirish, saqlash, tashish, sotish kabi funksiyalar majmuasidan iborat. Agar do'ppini arzon va sifatli qilish istagida bo'lgan odam uni tikishda FQTdan foydalansa ancha tejamkorlikka erishishi mumkin.

Funksiyalarni aniqlashda o'rGANILAYOTGAN OBYEKTGA QO'YLGAN MAQSADGA QARAB FUNKSIYALAR ANIQLANADI.

Masalan, birorta obyektning faqat sifatini oshirish maqsad qilib qo'yilsa, asosan, shu obyektning sifatini belgilovchi funksiyalarni oladi. Agarda shu obyektning narxini pasaytirish kerak bo'lsa, u holda uning narxi bilan bog'liq funksiyalar o'rGANILADI. Xullas, FQTni qaysi maqsadda amalga oshirilayotgan bo'lsa funksiyalarni tanlashda, aynan shu maqsaddan kelib chiqiladi.

FQTni inson faoliyatining barcha jabhalarida qo'llash mumkin. Uni hatto, oilaviy kundalik faoliyatda ham qo'llasa bo'ladi. Oilada tejamkorlikka erishish, qaysi xarajatlar bosh yoki asosiy, qaysilari hozircha keraksiz yoki zararli, qaysilari yordamchi va hokazo.

Hozircha muhim bo'lmagan narsalar uchun xarajat qilish balki lozim emasdir. Biroq, bugungi kunda keraksiz bo'lgan xarajat turlari ertangi kunda asosiy bo'lishi ham mumkin.

Masalan, kelin kuyovga sovg'a qilinadigan mebelni oladigan bo'lsak, hali o'g'lingiz yoki qizingiz fotiha qilinmagan bo'lsa, unga pul sarflab xarid qilish keraksiz funksiyadir. Agarda, to'y qilish arafasida tursangiz ushbu mebelni xarid qilish asosiy funksiyaga kiradi va unga albatta xarajat qilib xarid qilish lozim.

FQTda har qanday murakkab tizimlar ham funksiyalarga bo'lib o'rganilganda, u ancha oson kechadi. Chunki, funksiyalarning bir-biri bilan bog'liqligi o'rganilayotgan obyektning murakkabligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Agar ular funksiyalarga bo'linsa, ularning bir-biri bilan bog'liqligi to'g'ri anglansa, ushbu obyektni takomillashtirish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Har bir predmetning funksiyasini aniqlashda ularni to'g'ri nomlash ham muhim ahamiyatga ega. Unda mazkur obyektning soni va sifatiga ahamiyat berish lozimdir. Tahlil qilinayotgan obyektning nimani bajarishi uning sifatini belgilasa, qancha hajm yoki miqdordaligi uning sonini belgilaydi. Masalan, «yuk tashiydigan avtomashina».

Unga to'g'ri nom qo'yish uchun shu yetarli. Lekin FQTda to'g'ri xulosa chiqarishi uchun shu yuk tashiydigan avtomashina necha tonnalik, motorining quvvati qandayligini ham bilish lozim. Bularni to'liq bir so'z bilan ifodalash qiyin bo'lganligi uchun ularni qisqartirilgan so'zlar va raqamlarda ham nomlash mumkin. Masalan, «ZIL-154».

Demak, hammasi tushunarli, ushbu mashina necha tonna yuk ko'taradi, motorining quvvati qancha, qancha benzin sarf qiladi va hokazo. Muhimi, FQTda hamma nomlar, ayniqsa funksiyalar qisqa va tushunarli ifodalanishi lozim ekan.

Funksiyalar bir qancha guruhlarga tavsiflanadi:

- ishchi funksiyalar;
- umumobyekt (tashqi) funksiyalar;
- ichkiobyekt (ichki) funksiyalar;
- estetik funksiyalar;
- asosiy funksiyalar;

- yordamchi funksiyalar;
- keraksiz funksiyalar.

Ularning har biriga tavsif berish lozim, deb topdik. Chunki, funksiyalarning mazmun va mohiyatini bilmasdan turib, ularni to'g'ri hamda aniq tahlil qilib bo'lmaydi.

Ishchi funksiyalar o'rganilayotgan obyektning u yoki bu jihatini o'z ichiga oladigan, uning faoliyatini va faoliyat natijasini ifoda etadigan funksiyalar majmuasidan iboratdir. Bular, birinchidan, o'rganilayotgan obyektning bevosita o'z faoliyatini ifodalasa, ikkinchidan, shu obyekt faoliyati natijasida yaratilayotgan yangi obyektning ham ishchanlik funksiyalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Masalan, bunga dastgoh yasaydigan dastgohni misol qilib keltirish mumkin. Oldin dastgohning o'zining faoliyati FQTni qo'llagan holda batafsil o'rganiladi, so'ngra uning yordamida tayyorlanadigan dastgohlar o'rganiladi.

Ishchi funksiyalar ichkiobyekt (ichki) va umumobyekt (tashqi) funksiyalariga bo'linadi.

Umumobyekt (tashqi) funksiyalar o'rganilayotgan obyektning umumiyligi funksiyasini ifodalaydi. Masalan, yengil avtomobilning umumiyligi funksiyasi odam tashishdan iboratdir. Ammo, ushbu obyekt o'zining umumiyligi funksiyasini bajarishi uchun yuzlab ichki funksiyalarini bajarishi lozim.

Ichkiobyekt (ichki) funksiyalariga shu avtomashinani oladigan bo'lsak motorining yaxshi ishlashi, balonlarining butligi, akkumulyatorning yaroqliligi, signalining mavjudligi, rulining yaxshi ishlashi kabilarni kiritish mumkin. Bu ro'yxatni yuzlab davom ettirish mumkin. Mana bu umumiyligi funksiyani bajarish uchun yuzlab ichki funksiyalarini bajarishga to'g'ri kelar ekan. Bu holatni bevosita insonga ham tatbiq qilsa bo'ladi. Insonning normal faoliyati uchun uning yuragi, miyasi, qo'li, oyog'i, o'pkasi, jigari kabi barcha organlari normal ishlashi lozim. Agar ichki funksiyalar yaxshi ishlamassa tashqi funksiyalarning normal ishlashini ta'minlab bo'lmaydi.

Shunday qilib, ichki funksiyalar deganda umumobyekt funksiyalarining ichki tizimini ifoda etuvchi funksiyalar majmuasi tushuniladi.

Estetik funksiyalar o'rganilayotgan obyektning faoliyatidan qat'i nazar, uning tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun mavjud bo'lishi lozim bo'lgan funksiyalardir. Ushbu funksiyalar, asosan, iste'molchilar talabidan kelib chiqadi va ularga estetik zavq berishda xizmat qiladi.

Mazkur funksiyalar faqatgina estetik zavq beribgina qolmasdan, obyektning sifatiga va uning ishlatalishiga ham katta yordam beradi.

Asosiy funksiyalar FQTda aniqlanishi lozim bo'lgan muhim funksiyalardir. Har qanday obyektning asosiy funksiyalari tanlab olinmas ekan, uning bosh funksiyasini hal qilib bo'lmaydi. Asosiy funksiyalar obyektning faoliyat ko'rsatishi, harakat qilishini belgilovchi va uning vazifasining bajarilishini ta'minlaydigan funksiyalardir.

Masalan, yengil avtomobilning bosh funksiyasi harakat qilish va odamlarni ma'lum manzilga yetkazishdir. Aynan shu holatni ta'minlaydigan barcha funksiyalar asosiy funksiyalardir.

Lekin, u qulay, chiroli va xavfsiz kabi holatlarga ham javob berishi lozim. Uning bu jihatni yordamchi funksiyalardan tashkil topadi.

Yordamchi funksiyalar deganda o'rganilayotgan obyektning bosh funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy funksiyalarning harakatini ta'minlaydigan funksiyalar tushuniladi. Bularga misol qilib yengil avtomobil salonining kengligi, o'tirgi-chining yumshoq matolardan qilinishi, chiroli materiallardan foydalaniib turli bezaklar bergenligi, salonga radio magnitofon kabi qulaylik tug'diradigan asboblar bilan jihozlanishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bularning hammasi yordamchi funksiyalarga kiradi.

Yordamchi funksiyalar ham faoliyat, harakat funksiyalari singari ichkiobyekt va tashqиobyekt funksiyalariga bo'linadi.

Ushbu funksiyalar obyektning to'laqonli vazifasining bajarilishini ta'minlaydi.

Juda ko'p funksiyalar asosiy funksiyalarni bir biri bilan bog'lovchi yoki asosiy funksiyalar bilan yordamchi funksiyalarning hamkorlikdagi harakatini ta'minlovchi ham bo'lishi mumkin. Bunday bilvosita funksiyalar yordamchi funksiyalarga kiradi.

Biroq, juda ko'p bajarilayotgan funksiyalar obyektning sifatiga ham, ishlatilishiga ham, ko'rinishiga ham ta'sir qilmasligi mumkin.

Ularni ishlatmasa ham obyekt o'zining asosiy funksiyasini bemalol bajaradigan bo'lsa, bunday funksiyalar keraksiz funksiyalarga kiradi.

Bulardan voz kechish obyektning narxini arzonlashtirish bilan birga juda ko'p boshqa tejamkorliklarga ham sabab bo'ladi.

Asosiy, yordamchi yoki keraksiz funksiyalarni aniqlashda, har bir funksiyani u yoki bu guruhga mansubligini belgilashda obyektning bosh yoki asosiy funksiyasidan kelib chiqiladi.

Bunda quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvo-fiqdir:

- tanlanayotgan funksiyani qo'llash obyektning asosiy funksiyasining bajarilishiga yordam bersa, uni qo'llamaydigan bo'lsa, uning asosiy funksiyasi bajarilmasa bunday funksiyalarni asosiy funksiyalarga kiritish lozim;

- agar tanlanayotgan funksiyalar shu obyekt uchun zarur, ammo uni qo'llamasda ham asosiy funksiyalari bajariladigan bo'lsa, bunday funksiyalar yordamchi funksiyalardir;

- agar tanlangan funksiyalar qo'llanilmasdan obyektning asosiy funksiyalari bajarilsa va uning qo'llanilmasligi obyektning sifatiga ham, ko'rinishiga ham salbiy ta'sir qilmasa bunday funksiyalar keraksiz funksiyalardir.

FQT natijasining sifatli bo'lishi o'rnatalayotgan obyektdagi funksiyalarni to'g'ri aniqlashga bevosita bog'liqdir.

7.2. O'rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog'liq funksiyalari

FQTda asosiy usullarni qo'llashdan maqsad o'rganilayotgan obyektning sifatini yaxshilashga, bahosining arzonlashishiga, xaridorgirligining oshishiga olib kelishga harakat qilinadi va unga erishiladi. Bunda quyidagicha yondoshiladi:

- o'rganilayotgan obyekt funksiyalar tizimidan iborat, deb qaraladi;
- ular bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi;
- funksiyalarni tashqi muhit bilan ham uzviy bog'liqligi e'tirof etiladi;
- tashqi muhit tashqi omilni, ichki muhit ichki omilni keltirib chiqaradi, ular ham bir biri bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi;
- funksiyalarni aniqlash, ularni tasniflash bilan birga har birining vazifasi aniqlanadi;
- har bir funksiya ma'lum darajada xarajat talab qiladi, deb qaraladi va shu xarajatlarni bartaraf qilish hamda kamaytirish vazifasi tahlilchining zimmasida ekanligi doimo eslatilib turiladi;
- keraksiz funksiyalarni aniqlash va yo'q qilishga qaratilgan bo'ladi.

O'rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog'liq funksiyalari bozor munosabatlari sharoitida birlashmalarda, koorporatsiya va konsern kabi yirik ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) sohalarida qo'llaniladi. Bularni amalga oshirish yirik guruhlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib boriladi.

FQTning ushbu bosqichida obyektning yangi analogi bo'Imaganda bajariladigan funksiyalar, obyektni modernizasiya qilish jarayonida bajariladigan ishlar, mayjud obyektni ta'mirlash va takomillashtirish uchun qilinadigan ishlar amalga oshiriladi. Bularning hammasi yirik obyekt bo'lishini taqozo qiladi.

Birorta obyektni o'rganish uchun barcha funksiyalar aniqlangach, ular tizimlashtiriladi. Unda:

- obyektning funksiyalari ko'rsatiladi;
- obyekt funksiyalarining vazifasi aniqlanadi;
- shu vazifalardan kelib chiqib, ular turlarga tasniflanadi;
- tahlil natijasi aniqlanib, ularning holati ko'rsatiladi;
- uni takomillashtirish bo'yicha har bir funksiyadan foydalanish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi;
- iste'molchining talabi qo'yiladi;
- unga javob berish uchun nima qilish kerakligi ko'rsatiladi;
- mazkur funksiyani takomillashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar beriladi;
- uning qiymati ham belgilanadi;
- samaradorligi hisoblanadi.

Ishning yengil ko'chishi uchun, odatda, tasniflash uchun imkonli boricha amaldagi tasnifiy belgilar va qo'llanilayotgan me'yorlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Agar obyekt yangi bo'lsa, albatta har bir harakat, funksiyalar va ularning qiymati ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi lozimdir.

Umuman olganda, o'rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog'liq funksiyalari uning umumiy holatini belgilovchi omillar tizimidan iborat ekan.

Agar shu omillarni uning bajaradigan funksiyalariga tenglashtiriladigan bo'linsa, o'rganilayotgan obyektni to'laqonli tasvirlash uchun uni omillar tizimidan iborat deb qarash ham mumkin ekan.

7.3. O'rganilayotgan obyektda ichki muhit bilan bog'liq funksiyalar

Ushbu usul o'rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog'liq funksiyalarini izohlashda va kichik funksiyalar tizimini tartibga keltirishda qo'llaniladi. Bu uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

FQT hamisha o'z obyektni o'rganishda, uning kattakichikligidan qat'i nazar, uni bir butun deb qaraydi. Ammo, uni

ma'lum detallarga bo'lib o'rganilishi ko'zda tutiladi. Har bir detal bo'yicha funksiyalar va ularning parametrlari alohida ko'rsatiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- obyektning alohida detallari, bo'laklari;
- funksiyalarning nomlari;
- funksiyalarning tavsifi;
- funksiyalarning soni;
- funksiyalarning turlari;
- har bir funksianing bevosita xarajatlari;
- tahlil natijasi bo'yicha tegishli tavsiyalar berish.

Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlar ifoda etiladigan jadvallar tuziladi. Unda bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli funksiyalar ko'rsatiladi. Shuningdek, har bir funksiya uchun resurslarning yetarlilik darajasi ham o'z ifodasini topadi.

Tahlil natijasi bo'yicha tegishli tavsiyalar berishda funksiyani qanday yo'nalishda o'zgartirish, o'zgartirmaslik yoki butunlay bartaraf qilish yo'llari ko'rsatiladi.

Bu aniqlangan funksianing qaysi guruhgiga kirganligiga bog'liq. Agar aniqlangan funksiya keraksiz yoki zararli bo'lsa, bunday funksiyalar butunlay bartaraf qilinadi. Agar funksiyalar bosh va asosiy funksiyalarga kirsa, unda ular mahsulotning sifatiga salbiy ta'sir qilmaydigan tarzda takomillashtiriladi hamda ishlanishini arzonlashtirishga harakat qilinadi va hokazo.

Agar yengil avtomashinaga FQTni joriy qilish lozim bo'lsa, uni alohida detallarga va qismlarga bo'lib o'rganilishi ko'zda tutiladi.

Masalan, «Neksiya» avtomobilini o'rganishda uni taxminan quyidagi bo'laklarga bo'lish mumkin:

- avtomobil kuzovi;
- motori;
- elektr tarmog'i tizimi;
- tormoz tizimi;
- yurish tizimi;
- yoqilg'i-moylash tizimi va hokazo.

Ularning har birini yana funksiyalarga bo'lib o'rganiladi. Mazkur funksiyalar o'z navbatida har biri baholanib o'rganilgandan keyin jamlanadi. Bu holat o'rganilayotgan obyektning yaxlitliligini ta'minlaydi. Bu o'rganilayotgan obyektning sifatini yaxshilash, tannarxini kamaytirish uchun ichki imkoniyatlarning axtarib topilishiga va tejamkorlik rejimining joriy qilinishiga asos bo'ladi.

FQT jarayonida ichki va tashqi omillar bir birlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi. Chunki, ikkala omil ham bitta narsaning turli qirralarini ifoda etadi. Shu tufayli FQTda ushbu masalani ham yoddan chiqarmaslik lozim.

7.4. Funksiyalarni tahlil qilish bosqichi va yo'llari

FQTning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uning mazkur bosqichda to'g'ri va aniq ish yuritishiga bog'liq. Shu tufayli mazkur bosqichga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

FQTga tizimli yondoshuv tahlilning chuqurlashuvini va maqsadga erishishning aniq yo'llarini ko'rsatib beradi. Chunki, bu usul bilan obyektni o'rganishda nafaqat iqtisodiy, balki texnik-iqtisodiy tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

Tanlangan obyektga tizimli yondoshuvda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

1. Tanlangan obyekt xususiyatlari, unda nimani bajarish lozimligi to'liq aniqlanib yozib chiqiladi. Nimani bajarilishi uning belgilangan vazifasidan, texnik holatidan kelib chiqiladi. Bunda obyektning funksiyalari ko'rsatiladi; obyekt funksiyalarining vazifikasi aniqlanadi; shu vazifalardan kelib chiqib, ular turlarga tasniflanadi; tahlil natijasi aniqlanib, ularning holati ko'rsatiladi; uni takomillashtirish bo'yicha har bir funksiyadan foydalanish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi; iste'molchining talabi qo'yiladi; unga javob berish uchun nima qilish kerakligi ko'rsatiladi; mazkur funksiyani takomillashtirish bo'yicha tegishli

tavsiya beriladi; uning qiymati ham belgilanadi; samaradorligi hisoblanadi.

2. Tahlil natijasida tanlangan obyektning bosh vazifasi shakllantiriladi, uni takomillashtirish uchun qanday yo'nalishda tadqiqot olib borilishi belgilanadi.

3. O'rganilayotgan obyekt bo'yicha qo'yilgan maqsad asosida funksional-miqdoriy model tuziladi va bunda ushbu obyektning yaratilishi bo'yicha nazariy konsepsiyasidan yoki shunga o'xshash mayjud modellardan foydalaniladi.

4. Har bir aniqlangan funksiyalar bo'yicha ularning vazifasi, amalga oshirish yo'llari, ularning bir-biri bilan miqdor va sifat jihatidan bog'liqligi qarab chiqiladi.

5. Mazkur bog'liqlikning ijobi va salbiy jihatlari, ijobi jihatlaridan keng foydalanish, salbiy jihatlarini bartaraf qilish yo'llari, har bir funksiyani optimallashtirish usullari ishlab chiqiladi.

6. Barcha to'plangan materiallar iqtisodiy-texnik jihatdan tahlil qilinadi, ularning funksional-miqdoriy modelini amalga oshirish yo'llari ishlab chiqiladi.

7. Tanlangan obyektning tarkibiy-funksional chizmasi shakllantiriladi, unda obyektning qaysi uchastkasida nimani o'zgartirish aniq ko'rsatiladi va shu joyda qayerda, qancha tejamkorlikka erishish mumkinligi ham hisoblanadi.

8. Tahlil natijasida ilmiy-texnik tavsiyalar ishlab chiqiladi va ushbu tavsiyalarni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

9. Eng muhimmi, ishlab chiqilgan tavsiyalarni amalga oshirish uchun kimning mas'ulligi, ushbu tadbirni qanday va qachon amalga oshirish yo'llar aniq ko'rsatiladi.

Ushbu holatni to'liq o'rganish uchun FQTning bir qancha usullaridan, shu jumladan matematik usullardan ham foydalaniladi.

Shu tufayli FQTni amaliyatga joriy qilish uchun nafaqat iqtisodchilar, balki ekologlar, muhandislar, amaliy matematik mutaxassislar singari bir qancha xodimlar jalb qilinadi.

Tizimli tahlilda ko'pincha G. Baytueyemning funksiyalarning tizimli tahlil usuli (FAST) qo'llaniladi. Agar ushbu usulni qo'llaydigan bo'lsak, hamisha ikkita savolga javob berishimiz lozim: birinchidan, tahlil qilinayotgan funksiya qanday amalga oshiriladi va ikkinchidan, ushbu funksiya nima uchun amalga oshiriladi. Shu ikkita savolga javob beriladigan bo'lsa, hamisha funksiyalarning kerakligi, kerak bo'lganda ham nima uchun kerakligi, uning mazmuni va mohiyati, keraklilik darajasi aniq belgilanib boriladi. Bu uchun quyidagi chizmani keltirish mumkin.

Ushbu bog'liqlikni amalga oshirishda tahlilning deduksiya uslubidan foydalilanadi. Bunda funksiyalar hammasi alohida kartochkalarga yoziladi.

Ularning har biri alohida ajratiladi. Oldin bosh funksiyalar, keyin asosiy funksiyalar, so'ngra yordamchi funksiyalar, nihoyat keraksiz va zararli funksiyalar saralanadi.

Funksiyalar aniqlangach, FQTning tegishli usullari orqali maqsad amalga oshiriladi.

Funksiyalar tizimida bosh va asosiy funksiyalar tanlangan obyektning maqsadini o'zida ifoda etadi. Yordamchi funksiyalar shu bosh va asosiy funksiyalarning o'z vazifasini bajarishi uchun tegishli yordamchi vazifasini bajaradi. Keraksiz va zararli funksiyalar umuman bartaraf qilinadi.

Bulardan kelib chiqib hamma mavjud funksiyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: yuqori darajali funksiyalar va quyi darajali funksiyalar. Yuqori darajali funksiyalarga asosiy va bosh funksiyalar kirma, quyi darajali funksiyalarga keraksiz va zararli funksiyalar kiradi.

Funksiyalar darajasini bilish uchun, ta'kidlanganidek, hamisha ushbu funksiya nima uchun kerak, u qanday amalga oshiriladi va nima uchun amalga oshiriladi degan savollarga javob topish lozimdir.

FQTda amalga oshiriladigan funksiyalar o'zlarining mohiyati jihatidan beshta guruhga bo'linadi.

7.5. FQTda xarajatlarni kalkulyatsiyasi bo'yicha turkumlash va ularni funksiyalar bo'yicha taqsimlash

Amaldagi tartibda xarajatlar kalkulyatsiyasi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) xomashyo va materiallar;
- 2) sotib olingan mahsulotlar, yarim fabrikatlar, korxona va tashkilotlarga ishlab chiqarish xarakteridagi ko'rsatilgan xizmatlar;
- 3) texnik maqsadlar uchun ishlatiladigan yoqilg'i va quvvatlar (energiya);
- 4) ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi;
- 5) ishlab chiqarish xodimlarining qo'shimcha ish haqi;
- 6) ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- 7) jihozlarni ushlab turish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari;
- 8) sex xarajatlari;
- 9) umumzavod xarajatlari;
- 10) brak bo'lganligi uchun yo'qotishlar;
- 11) ishlab chiqarishga oid bo'lмаган xarajatlar.

Ushbu xarajatlarning turlari ishlab chiqarish, xizmat ko'r-satish va ish bajarish sohalariga mos ravishda o'zgarishlari mumkin. FQTda har bir xarajatning turlarini yana bo'laklarga bo'lib o'rganiladi. Bunda qayerda xarajatlarni qisqartirish mumkinligini aniq belgilasa bo'ladi.

FQTda xarajatlarni samarali o'rganish uchun ularni o'zgaruvchan va o'zgarmas guruhlarga bo'lish mumkin. O'zgaruvchan xarajatlarni qisqartirish masalasi ko'tarilsa, har bir mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni o'rganilishi lozim. Agar o'zgarmas xarajatlarni kamaytirish vazifasi qo'yilsa, unda butun korxona masshtabida sarf bo'ladigan xarajatlarni o'rganishga to'g'ri keladi. Bularning bir-biriga muvofiqligi o'ta muhim masalalardan biridir. Chunki, korxonaning foydalilik nuqtasi aynan shu ikki tur xarajatlarning qoplanishi bilan belgilanadi.

FQTning oddiy tahlilga nisbatan afzalligi shundaki, odatdagи iqtisodiy tahlilda xarajatlar yaxlit holda har bir moddalar bo'yicha

alohida o'rganilsa, FQTda har bir moddalari yana alohida funksiyalar bo'yicha ham o'rganiladi.

Har bir funksiyaga ketadigan xarajatlarning minimal va maksimal chegarasi aniqlanadi. Buni aniqlash uchun har bir funksiyaga haqiqatda ketgan xarajatlar hisoblanadi. Bu shu funksiyaga ketadigan xarajatlarning maksimal miqdorini belgilaydi. Shu funksiyaga FQT ni qo'llash orqali topilgan miqdori shu funksiyaga ketgan xarajatning minimal miqdorini tashkil qiladi. Odatda, xarajatlarni belgilashda har bir funksiyaga ketadigan xarajatlarning imkon qadar eng past chegarasi olinadi.

Masalan, «Neksiya» avtomobilini ishlab chiqarish jarayonida unga qo'yiladigan balonlarning disklarini chetdan olib kelinar edi. Ularning har birining narxi 20,0 ming so'mga teng deb faraz qilamiz. Ammo lokalizatsiyalash dasturi bo'yicha ushbu diskni o'zimizda ishlab chiqarish masalasi qo'yildi. Uni ishlab chiqarish uchun FQTdan foydalanib qiymatini 15,0 ming so'mga tushirdi. U holda har bir diskdan 5,0 ming so'mdan tejalmoqda va bu bitta avtomobil uchun 20,0 ming so'mni tashkil qiladi. Agar bir yilda mazkur zavod 50,0 mingta avtomobil ishlab chiqaradigan bo'lsa, faqat shu balonlarning diskidan tejalgan mablag'larning umumiy qiymati 250,0 million so'mni ($50,0 \times 5$) tashkil.

Funksiyaga ketgan xarajatlarni aniqlashda mazkur funksiyaning hayotiy davrida qilinishi lozim bo'lgan xarajatlar inobatga olinadi. Buni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$X_{bf} + F_i + I_{ie} + I_{ir} \quad (7.5.1)$$

Bunda: X_{bf} — f funksiya uchun ketadigan barcha xarajatlar;

F_i — f funksiyani amalga oshirishga ketgan xarajat (investitsiya);

I_{ie} — f funksiyani ekspluatatsiya qilishga ketgan xarajat (investisiya);

I_{ir} — f funksiyani ta'mirlashga ketgan xarajat (investitsiya).

FQTning vazifasi shu funksiyani hayotiylik davrida tejamli bajarilishini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun faqat tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasdan, balki uni amalga oshirishni bevosita nazorat qilib boriladi. Qachonki bu masala bo'yicha qilingan sa'y-harakatlar va xarajatlar bekorga ketmasdan o'zini oqlashi lozimdir.

Xarajatlar funksiyalarning o'rganilishiga qarab uch guruhga bo'linadi:

- 1) alohida;
- 2) o'sib boruvchi;
- 3) ulushli.

Alovida xarajatlarga bitta funksiyaning bajarilishiga mo'ljalangan va uni butun hayotiy davrida ta'minlaydigan xarajatlar kiradi. Bu funksiyalar ko'p hollarda asosiy yoki bosh funksiyalar bo'lishi mumkin.

O'sib boruvchi xarajatlarga shunday xarajatlar kiradiki, bir funksiyani bajarishga mo'ljallangan funksiyalar vaqt o'tishi bilan boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin. U holda oldingi funksiyaga sarf qilingan xarajatlarga keyingi funksiya uchun qilinadigan xarajatlar ham qo'shib olib boriladi.

Ulushli xarajatlarga shunday xarajatlar kiradiki, biror bir obyektning barcha xarajatlari aniqlanadi va har bir xarajatlarning ulushi umumiy xarajatda necha foizligi hisoblanadi. So'ngra umumiy xarajatdan har bir funksiyaga ketgan xarajatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

1. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha 8 ta masala tuzadi.
2. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda oldingi tanlagan obyektini mukammal o'rganish uchun ushbu bosqichda qiladigan ishlarini, xususan tahlil qilish usullarini ko'rsatib beradi. Bularni aniq misollar bilan yoritadi.

3. Talaba O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarni ko'rib chiqadi, o'rganadi hamda ularning qisqacha mazmunini yozadi. Olimlarning turli qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zining fikrlarini shakllantiradi. Mavjud qarashlarning ijobiy va munozarali tomonlarini muhokama qilib bir to'xtamga keladi.

4. Talaba ushbu mavzu bo'yicha o'zлari tanlagan obyektni batafsil o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Ushbu qarorning har bir bandini seminar tarzida asoslab beradi.

2. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, mustaqil ravishda testlar tuzadi. Agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konsept yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Talaba ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshiradi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

3. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni o'rganadi. Masalalarni ishlaydi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.

2. Uning nazorati og'zaki savol-javob, yozma va ayrim hollarda test bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.

3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda sakkiztadan test tuzadi.
4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi hamda ularning qisqagina mazmunining ushbu mavzuga tegishli qismini, unga o'z fikrini bildirgan holda yozib topshiradi.

4. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni o'rganadi. Masalalarni ishlaydi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Uning nazorati og'zaki savol-javob va ayrim hollarda test bilan 100 ballik tizimda aniqlanadi.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba (magistr) mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi hamda ularning qisqacha mazmunining ushbu mavzuga tegishli qismini, unga o'z fikrini bildirgan holda yozib topshiradi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении. — М.: Машиностроение. — 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207—233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional qiymat tahlilidan foydalanish. 46—75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172—187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* — М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* — М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231—236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. — Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili — boshqaruv hisobining samarali vositasi 81—90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* — М.: Финансы и статистика, 1985.

8-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA IJODIY BOSQICH

8.1. Ijodiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlari

FQTning mazkur bosqichidagi o'ziga xos xususiyatlar, funksiyalarning har biriga ijodiy yondoshish orqali amaliy ishlarni bajarish bilan belgilanadi. Bu quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Birinchidan, tanlangan obyekt uchun keraksiz funksiyalarni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Ikkinchidan, yuqori xarajat talab qiladigan funksiyalarni takomillashtirish evaziga ularga ketadigan xarajatlar kamaytiriladi. Uchinchidan, funksiyalar bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish. Bu tadbirlar o'z-o'zidan amalga oshib qolmaydi. Ularning har biriga ijodiy yondoshishni talab qiladi.

Ijodiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, uni amalga oshirish uchun bir qancha turli bo'lim va bo'linmalar mutaxassislaridan iborat guruh ishtiroy etadi. Ular turli g'oyalarni ma'lum tartibga soladi. Buning uchun quyidagi javalni tuzish mumkin:

T/r	Funksiyalar bo'yicha g'oyalarning nomlari	Izoh (g'oyalarni amalga oshirish bo'yicha belgi)

FQTni o'tkazuvchi guruh ishtiroychilari _____

Ijodiy guruh rahbari _____ Kotib _____
FQT bo'yicha mas'ul _____

Barcha g'oyalar jadvalga kiritilgach, ularning har biri o'rganiladi va eng kerakli va foydaliligi ajratib olinadi. Ko'p g'oyalar juda kerakli, lekin hozirgi paytda uni amalga oshirish imkoniyati cheklangan yoki texnologik, tashkiliy jihatlardan amalga oshirish qiyin kechadigan bo'lsa, bunday g'oyalarni ham ajratib qo'yiladi. Faqat amalga oshiriladigan va samara beradigan g'oyalar ajratib olinadi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar tuziladi. Bunda keng mutaxassislarning ishtirok etishi masalaning oydinlashuvi uchun juda qulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Natijada, FQTni amalga oshirish uchun juda ko'p variantli tadbirlarni ham ishlab chiqish mumkin.

Ko'p variantli tadbirlardan eng qulayini tanlab olish uchun har bir variantning ijobjiy va salbiy tomonlari yozib chiqiladi. Ularning ichidan ijobjiy tomonlari ko'p bo'lgan variantlar tanlab olinadi. Tanlab olingan variantlarning ham salbiy tomonlarini bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqiladi. Natijada bu funksiya bo'yicha yangi variantlar paydo bo'lishi mumkin. Shu tariqa FQT takomillashib boraveradi.

Har bir funksiyaning ijobjiy va salbiy tomonlarini imkon qadar ko'proq topishga harakat qilinishi lozim, chunki bu tanlangan obyektning takomillashuvi uchun katta ahamiyatga ega.

Funksiyaning ijobjiy tomoni deganda tanlangan obyektning o'z vazifasini bajarishi uchun zarur bo'lgan funksiyalarning ijobjiy jihatlari tushuniladi.

Bunga tanlangan obyektning bosh, asosiy va ayrim hollarda yordamchi funksiyalarini kiritish mumkin

Funksiyaning salbiy tomoni deganda tanlangan obyektning o'z vazifasini bajarishi uchun keraksiz yoki zararli bo'lib, ortiqcha vaqt va xarajatlarni talab qiladigan, lekin tanlangan obyektning sifatiga hech qanday ijobjiy ta'sir qilmaydigan jihatlari tushuniladi.

Har bir funksiyalar bo'yicha g'oyalar tizimlashtirilgach, ularning eng ilg'orlari tanlab olinadi va ular bo'yicha ta'sirchan qarorlar qabul qilinadi. Bu qaror shunday funksiyalarga qaratilishi kerakki, ularning birinchidan amalga oshirilishi oson bo'lsin,

ikkinchidan, eng arzon bo'lsin. Shundagina FQTdan foydalanish yaxshi samara beradi.

FQTning samaradorligini oshirish uchun tanlangan variantlarni yana bir bor ekspertizadan o'tkazilsa, boshqa mutaxassislar ham diqqat bilan ko'rib chiqsa, bu ish yanada ishonchli bo'ladi. Shu tufayli FQTni amalga oshirishda ijodiy bosqich ancha murakkabligi va mas'uliyatining kattaligi bilan ham farq qiladi. Chunki, ushbu bosqichda qabul qilingan qarorda xato ketilsa, uni amalga oshirish bosqichida bunday xatoliklarni tuzatguncha, ancha nuqsonli mahsulotlarni ishlab chiqishga ulgurgan bo'lishimiz mumkin. Shu tufayli FQTning mazkur bosqichi o'ta mas'u-miyatliligi bilan ham farq qiladi.

Ijodiy bosqichning ahamiyati tahlilchini noan'anaviy tarzda tafakkur qilishga o'rgatishi bilan belgilanadi.

8.2. Ijodiy bosqichning turlari va tasnifi

FQTda bir qancha ijodiy bosqichlarning turlari mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) axborot axtarish bosqichi;
- 2) evristik (ijodiy tafakkur) bosqichi;
- 3) «fikrlar hujumi» bosqichi;
- 4) sinektika (ijodiy faoliyatni rag'batlantirish) bosqichi;
- 5) nazorat savollarni qo'lllash usuli;
- 6) jamoaviy daftар tutish usuli;
- 7) tanlangan obyektni alohida elementlari bo'yicha o'rganish usuli;
- 8) marfologik tahlil usuli;
- 9) «matritsani ochish» usuli;
- 10) ixtirochilik vazifalarining nazariy yechimi;
- 11) ixtirochilik vazifalarining algoritm yechimi;
- 12) yetti karra axtarish strategiyasi;
- 13) R. Kollerning konstruksiya qilish nazariyasi;
- 14) funksiyalarни ixtiro qilish usuli;

15) imkoniyatlarni tizimli axtarish strategiyasi.

Ushbu ijodiy bosqichlarda funksiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi. Yuqorida keltirilgan bosqichlar FQTni qo'llashda jahon amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan usullardir.

Ularning ayrimlarini bizning iqtisodiyotimizda ham muvafقاqiyat bilan qo'llash mumkin.

FQTni qo'llashda ijodiy bosqichning ahamiyati shundaki, u bizni noan'anaviy tarzda tafakkurlashga o'rgatadi. Bu esa yangi variantlar va g'oyalarni topish imkoniyatlarini tug'diradi. Masalan, avtomobil motorining quvvatini oshirib, unga sarflanadigan yoqilg'inining miqdorini saqlab qolgan holda, uning tezligini ikki martaga yoki bir yarim martaga oshirish masalasi. Bir qarashda bu amalga oshmaydigan narsadek tuyuladi. Ammo unga ijodiy yondashib, yo'lini topish mumkin.

Birinchi marta telefon ixtiro qilinganda sim orqali ovozni yetkazib berish va qabul qilish masalasi qo'yilgan edi. Bu olamshumul voqeа edi. Uzoqdan turib odamlar bir-biri bilan gaplashsa, buning qulayligini baholash benihoya qiyin edi. Endichi, xuddi shu funksiya simsiz amalga oshirilmoqda. Oldin bunga katta apparatlar ishlatilgan bo'lsa, hozir ularni kaftga sig'adigan apparatlarga joylashtirilgan.

Bunday taraqqiyot va ixtirolarning zamirida FQT usullaridan foydalanishdek tadbirlarning yotganligini hech kim xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak.

Butun jahonda fan va texnika taraqqiyoti tafakkur mahsulidir. Ammo tafakkurning nimaga qaratilganligi muhimdir. Agar FQTni qo'llab tafakkur qiladigan bo'lsak, oldin eng zarur va kerakli funksiyalar aniqlanib olinadi. Demak, bunday holatda tafakkur faqat eng kerak va zarur narsalarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda ham ushbu usullarni amaliyotga qo'llash uchun ularni biladigan mutaxassislarni tayyorlash lozim bo'ladi. Buning uchun tegishli FQTni o'rgatadigan markazlar tashkil

qilinishi va shu markazlarda ma'lum qayta tayyorlash jarayonlari kechmog'i lozimdir. Albatta, bu boshlanishida ancha xarajatlarni talab qiladi, lekin inson omiliga qo'yilgan bu investitsiya, juda qisqa vaqtda, yuz va undan ham ko'proq barobar hajmda samara berishi tayin. Ta'kidlanganidek, ushbu ishni amalga oshirishda ham davlatning e'tibori va ko'magi kerak bo'ladi.

Iqtisodiy, uning tarkibiy qismlari bo'lgan boshqaruva moliyaviy tahlillarni amalga oshirishda ma'lum axborotlar baza-siga tayaniladi.

Ammo, FQTda asosan g'oyaga tayaniladi. Shu g'oyani amalga oshirish uchun ijodiy yondoshilib, yo'q joydan axborotlar olinadi, oldin biror marta qo'llanilmagan usullar ishlab chiqiladi. Bu FQTning nafaqat o'ziga xos xususiyatini, balki katta afzalliklarini ham ko'rsatadi.

FQT o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ijodiy ish bo'lib, uni amalga oshirish uchun tuziladigan guruhg'a mutaxassislar bilan birga shu sohada shug'ullanib yurgan olimlarni ham jalb qilishni taqozo qiladi. Chunki, FQT bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishda deyarli hamma bosqichida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga to'g'ri keladi.

Axborot axtarish bosqichi FQTda muhim bosqichlardan bo'lib, unda aniq vazifani bajarish uchun tayyor ishlanmalar axtariladi. Tayyor ishlanmalarga ko'pincha bizda va jahon amaliyotida patentlar beriladi. Shu tufayli ushbu bosqichda patentlar ichidan o'zimizga kerak ishlanmalarini axtaramiz.

Axborot axtarish bosqichi deganda aniq vazifalarni bajarish uchun tayyor ishlanmalar, ya'ni patentlar axtarilishi tushuniladi. Patentlar fondi mavjud.

Hozirgi paytda patent fondlari juda kengayib ketdi. Bunga tegishli axborot manbayi sifatida internetni ham olish mumkin. Shu keng fonddan o'ziga kerakli ishlanma va ixtirolarni topish ushbu bosqichning asosiy vazifasini tashkil qiladi.

Patentlar fondi deganda dunyo miq'yosida ishlab chiqilgan ixtirolarga berilgan barcha ilg'or ishlanmalar uchun olingan

patentlar to‘g‘risida tegishli patent idoralarida to‘plangan axborotlar manbayi tushuniladi.

Ixtiolar to‘g‘risidagi ma’lumotda quyidagi ko‘rsatkichlar o‘z ifodasini topadi:

1) patentning bibliografik qismi: bunda patent olingan mamlakat, uni bergen idora, ixtirochining familiyasi, ixtironing hisobga olingan vaqt;

2) kirish qismi: bunda mazkur ixtironing ilmiy yangiligi, oldingi ishlanmalardan farqi, uning afzalliklari;

3) ixtironing izohi: unda ixtironing nimalardan iborat ekanligi to‘liq yoziladi;

4) ixtironing formulalari: bunda ushbu formulalar nimani ifoda etishi, qachon qo‘llanilishi va nimaga qo‘llanilishi ko‘rsatiladi;

5) ixtironing chizmalari: bunda turli chizmalar, rasmlar, jadvallar o‘z ifodasini topadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda ixtirolarni o‘zida ifoda etadigan vaqtli matbuot shaklidagi byulletenlar chiqariladi. Ixtiolar to‘g‘risidagi axborotlarni shunday byulletenlardan ham olish mumkin. Hozirgi sharoitda «Ixtirolarning xalqaro tavsisi» nomli ixtirolarni o‘zida ifoda etgan patentga oid jurnal chop etiladi. Bu jurnalda ham barcha ixtiolar keltiriladi. Agar tayyor ishlanmalar kerak bo‘lsa, bunday axborot manbalaridan patentlar axtariladi. Bularidan tashqari, ta‘kidlaganimizdek, dunyo miq‘yosidagi barcha ishlanmalar, ixtiolar hozirgi paytda internetda o‘z ifodasini topgan.

«Ixtirolarning xalqaro tavsisi» 5ta bir-biriga bog‘liq tizim, 8 ta bo‘linma, 20 ta bo‘lim, 115 ta sinf va 607 ta sinfchalardan tashkil topgan.

8 ta bo‘linma quyidagilardan iborat:

A – insonlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish;

B – turli texnologik jarayonlar;

C – kimyo va metallurgiya;

D – to‘qimachilik va qog‘ozsozlik;

E – qurilish;

F – amaliy mexanika, yoritish, isitish, dvigatellar va nasoslar, qurollar va qurol-yarog‘lar;

G – texnik fizika;

H – elektrsozlik.

Har bir bo‘limnalarning ichida bir qancha bo‘limlar ham mavjuddir. Bu bo‘limlar ham har bir bo‘lim bo‘yicha alohida ifoda etiladi. Bo‘limlarning ketma-ketligi kichik harflar bilan belgilanadi. Bularni qilishdan maqsad, ixtiro va patentlarni tezroq topishga yordam berishdan iboratdir.

Mamlakatimizda Davlat fan va texnologiyalar agentligi qoshida patent bilan shug‘ullanadigan maxsus markaz bor. Bundan patentga doir barcha axborotlarni olish mumkin. Ammo, bugungi vaziyat ushbu tashkilotning faoliyatini yaxshilashni talab qiladi.

Ushbu tashkilot mamlakatimizda ilmiy-tadqiqotlar va intellektual mulk bozorini tashkil qilishi lozim. Qachonki, bunday bozor tashkil bo‘lmas ekan, ITIdan kutilgan samarani olish qiyin kechadi.

Oqibatda, birinchidan, ITI natijasida turli ixtirolarni yaratishga rag‘bat tug‘ilmaydi va ikkinchidan, juda ko‘p ixtiolar amaliyotda qo‘llanilmasdan qolib ketadi.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ixtiolar va patentlarni ma‘lum darajada tartibga solish uchun qilinadigan ishlar yetarli. Bozor munosabatlari sharoitida barcha bozorlar singari fan bozori ham tashkil qilinishi lozim.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta’riflari

Funksiyaning ijobiy tomoni deganda tanlangan obyektning o‘z vazifasini bajarishi uchun zarur bo‘lgan funksiyalarning ijobiy jihatlari tushuniladi.

Bunga tanlangan obyektning bosh, asosiy va ayrim hollarda yordamchi funksiyalarini kiritish mumkin.

Funksiyaning salbiy tomoni deganda tanlangan obyektning o'z vazifasini bajarishi uchun keraksiz yoki zararli bo'lib, ortiqcha vaqt va xarajatlarni talab qiladigan, lekin tanlangan obyektning sifatiga hech qanday ijobiy ta'sir qilmaydigan jihatlari tushuniladi.

Ijodiy bosqichning ahamiyati tahlilchini noan'anaviy tarzda tafakkur qilishga o'rgatishi bilan belgilanadi.

Axborot axtarish bosqichi deganda aniq vazifalarni bajarish uchun tayyor ishlanmalar, ya'ni patentlar axtarilishi tushuniladi. Patentlar fondi mavjud

Patentlar fondi deganda dunyo miqiyosida ishlab chiqilgan ixtirolarga berilgan barcha ilg'or ishlanmalar uchun olingan patentlar to'g'risida tegishli patent idoralarida to'plangan axborotlar manbai tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilish uchun bilishi lozim bo'lgan savollar

1. FQTning ijodiy bosqichdagi o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Ijodiy bosqichda FQTni o'tkazish uchun kimlar ishtirok etadi?
3. Tavsiya qilingan g'oyalarni o'rganish uchun nima qilinadi?
4. FQT qay tariqa takomillashib boradi?
5. Ijodiy bosqichning qanaqa turlari mavjud?
6. Ijodiy bosqichning ahamiyati nimada?
7. Mamlakatimizda ham ushbu usullarni qo'llash uchun nima qilish kerak?
8. Axborot axtarish bosqichida nimalar amalga oshiriladi?
9. Ixtiolar to'g'risidagi ma'lumotda nimalar aks ettiriladi?
10. «Ixtirolarning xalqaro tavsifi» nima?
11. «Ixtirolarning xalqaro tavsifi»dagi bo'linmalarni sanab bering.
12. Patent idorasining faoliyatini qanday yo'nalishda takomillashtirish mumkin?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1-masala. Firma direktori va uning kotibasining faoliyat davomida bajaradigan funksiyalarini yozib chiqish.

2-masala. Shu xodimlar bajaradigan funksiyalarni bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli funksiyalarga bo'lish.

3-masala. Keraksiz va zararli funksiyalarni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish.

4-masala. Bajarilgan amallar, FQT natijalari bo'yicha ushbu bosqichni takomillashtirish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konsept yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishslash uchun savollar va ularning nazorati

FQTda ijodiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini firma direktorining birinchi o'rinnbosari bajaradigan funksiyalarni tavsiflash bo'yicha amalga oshiradi. Qilingan ishlar bo'yicha natija referat yozish bilan taqdim etiladi. Ushbu mavzu bo'yicha magistrning bilimi yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Magistrning bilimi 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiymat tahlilidan foydalanimish. 46–75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruvin hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruvin hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

9.1. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan evristik usullarning turlari

Evristska grekcha so'zdan olingen bo'lib, «topaman» degan ma'noni bildiradi. Bu tushuncha fanga tatbiq qilinadigan bo'lsa biror jarayon, hodisa, faoliyat, obyektning ayni mohiyatini aniqlash uchun nazariy tadqiqotda qo'llaniladigan mantiqiy usullar majmuasidan iborat bo'ladi.

Mantiqiy tahlil hayotning hamma jahbalarida, xususan iqtisodiyotni boshqarishda, uni tahlil qilishda ham qo'llaniladi. Barcha yangiliklar, ulkan tadqiqotlarning yaratilishi, eng avvalo, mantiqiy tahlilga asoslanadi.

Mantiqiy tahlilning qo'llanilish tarixi juda uzoq. U insoniyat tafakkur qilgan vaqtidan boshlangan desak xato bo'lmaydi. Ammo uning fanga, olamni o'rganishda bir mustaqil usul sifatida kirib kelishi va shakllanishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Bu borada jahonda juda ko'p usullar ishlab chiqilgan va to'plangan.

Ular quyidagilardan iborat:

- O'xhatish usuli;
- Tasavvur usuli;
- Ideallashtirish usuli;
- «Yigirma to'rtlik qoida;
- «Yigirma beshlik qoida;
- Ilg'ab qolish usuli;
- Iste'molchilar talabidan kelib chiqish usuli;
- «Sifatning mutloq darajasi»ga erishish usuli.

Bu usullar FQT amaliyotida ma'lum darajada qo'llanilib kelinmoqda. Ammo O'zbekiston sharoitida ularning qo'llanilishi

aynan FQT tarzida amalga oshmayapti. Bunga barham berish uchun FQTning barcha usullarini mutaxassislarga keng o'rgatishni taqozo qiladi. Bu usullar qo'llanilishi va tushunishi bo'yicha ham uncha murakkab usullar emas.

9.2. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan evristik usullarning tavsifi

O'xhatish usuli. Bu usulda mavjud usullarni o'rganib shunga o'xhash usulni o'z faoliyatida joriy qilishga aytildi. Hozirgi zamон korxona mutaxassisи, menejerлари o'ta zukko bo'lishini talab qiladi, chunki, biror bir firma juda katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Ammo, uning usuli tijorat siri sifatida ommalashtirilmaydi.

Bu holda shu firma mutaxassislari bilan suhbatlashish, maslahatlashish jarayonida asosiy usullarini ilg'ab olishi mumkin. Bundan ayniqsa chet el safarlarida bo'lganda, yirik firmalar faoliyati bilan tanishganda muvaffaqiyatga erishishning asosiy, eng e'tiborli tomonlarini yodda saqlab qolish va uni o'z firmasida aynan shunga o'xhash usulini qo'llash mumkin. Bu usulni jahon amaliyotida o'xhatish usuli deb ataladi.

Masalan, bir obyekt (firma) yuqori ko'rsatkichga xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish usulni bilan erishilmoqda. Aynan shu usulni yoki shunga o'xhash usulni siz ham qo'llashingiz mumkin. Bu o'xhatish usulidir.

Tasavvur usuli. Bu usulda kishi biror narsani yaratayotgan bo'lsa, uning o'mniga o'zini qo'yib ko'radi. Yangidan yaratiladigan predmet bajaradigan barcha funksiya va jarayonlarni bajarishi mumkinligini butun tasavvuridan o'tkazadi.

Agar boshqaruv faoliyatiga tavsiya ishlab chiqayotgan bo'lsa, o'zini boshqaruvchi o'mnida ko'radi, agar tavsiya qilinayotgan faoliyat bajaruvchiga mo'ljallangan bo'lsa, u o'zini bajaruvchi sifatida tassavur qiladi. Barcha bajariladigan jarayonlarni, funksiyalarni aynan shu usul bilan aniqlaydilar.

Tasavvur qilish usulining samaradorligi ko'p hollarda inson tafakkuri uning yaratuvchanlik saviyasi va malakasiga bog'liq. Shu tufayli yaratilayotgan predmetni, qancha aniq tassavur qilsa, shuncha uning yaratilishi oson kechadi.

Ideallashtirish usuli. Bu usulda yaratilayotgan predmetni, hodisani, faoliyatni, texnologiya kabilarning barcha maqsadlarga javob berishi, arzonligi, mustahkamligi, sifatliligi jihatidan tasavvurimizdag'i eng qulay varianti tarланади.

Ideal variantni aniqlab olish uchun ham shu o'r ganilayotgan obyekt ustida har bir mutaxassis juda ko'p ilmiy tafakkur qiladi. Idealligini isbotlash uchun bu variantdag'i barcha salbiy jihatlar olib tashlanadi.

Har bir predmetni yaratishda yoki biror jarayonni boshqarishda uning ideal varianti aniqlanadi. Shu variant amaliyotda qo'llaniladi. Qo'llanilish jarayonida ham u takomillashib boradi. Oqibatda predmet (faoliyat)ning ideal varianti vujudga keladi. Demak, bu usul ham iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirishning muhim omillaridan biridir.

«Yigirma to'rtlik qoida. Bunda yangi obyekt (texnologiyani, mahsulotni, faoliyatni, boshqarish kabilarni) yaratishga safarbar qilingan mutaxassislar hamma ishdan ozod qilinadi. 24 soat davomida shu bitta yaratilayotgan obyekt haqida o'laydi, fikrlaydi, tafakkur qiladi.

Yangi tug'ilgan g'oyalarni yozib boradi. Shu yo'l bilan yaratilayotgan obyektning mukammallahuvi ta'minlanadi.

«Yigirma beshlik qoida. Bunda yangi yaratilayotgan obyektni yaxshilash uchun kamida 25 ta g'oya ishlab chiqilishi shart. Bu o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Shu tufayli bu vazifani o'z zimmasiga olgan mutaxassislar o'zlarini tahlil qilayotgan obyektni juda yaxshi bilishi, shu boradagi chop etilgan va etilayotgan ilmiy-uslubiy adabiyotlardan xabardor bo'lishi lozim.

25 ta g'oya bitta obyektni takomillashtirish uchun o'z-o'zidan tug'ilmaydi. Kelajakda bu usullardan O'zbekiston iqtisodiyotida ham keng foydalilaniladi.

Bu esa hozirgi tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'ta bilimdon bo'lishlarini taqozo qiladi.

Ilg'ab qolish usuli. Tadqiqotchiga juda ko'p yangi g'oyalar uni ishlashga qattiq kirishgan, o'ylagan paytda emas, balki, bir erkin tasodifiy holatlarda, ayniqsa dam olib o'tirganda, yo'lda ketayotganda, biror kishi bilan suhbatlashganda, birorta o'yinni o'ynayotganda, uxlayotganda kelishi mumkin. Ayni shu paytda yangi g'oyani ilg'ab qolishi lozim.

Imkoni boricha shu payt qog'ozga yoki diktofonga yozib qo'yilsa juda yaxshi bo'ladi. Bularning imkoni bo'lmasa, uning yonida sherigi bo'lsa unga eslatasan deb aytib qo'yishi yoki o'zi uni qattiq eslab qolishiga harakat qilishi lozim.

Zero juda ko'p yangi g'oyalar tasodifiy tug'iladiyu, ammo u o'z yashash tarixiga ega bo'lmasdan, amaliyotga qo'llanilmasdan mutaxassislar, tadqiqotchilarining loqaydligi tufayli ko'p hollarda yo'qolib ketadi.

O'zimizda odamlar ilg'ab qolish uchun bir qancha usullardan foydalanganlar.

Masalan, ro'molchasini tugib qo'yan, barmog'iga ip bog'lab olgan, cho'ntagiga biror predmetni solib qo'yan va hokazo. Bu holatlar kishiga kelgan tasodifiy g'oyalarni yana qayta yodga tushirish imkonini bergen.

Iste'molchilar talabidan kelib chiqish usuli. Bu usul hozirgi O'zbekistonning o'tish sharoitida juda qo'l keladi, chunki, u makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko'maklashishi mumkin. Masalan, biror tovarni chet mamlakatlarga chiqarmoqchi bo'lsak, eng avvalo, unga shu tovar qaysi xususiyatga ega bo'lishi, bunga tovar oluvchining talabi nima va qanday ekanligi inobatga olinishi lozim. Hamma qilinadigan ish, bajariladigan xizmat va yaratiladigan tovarlar bevosita iste'molchi talabidan kelib chiqadi. Bu usul O'zbekistonni jahonga tanitish uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bundan mikroiqtisodiyotda ham foydalanish mumkin. Bunda tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi (taklif qiluvchi) xo'jalik

subyektini iste'molchi (xaridor) talablarini to'liq o'rganadi va shundan kelib chiqadi.

Barcha bajariladigan funksiyalarni, zarur bo'lsa qo'shimchalarni ham kiritgan holda o'z tovarining iste'molchiga ma'qul bo'lishi uchun harakat qilinadi. Bu esa tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi (taklif qiluvchi) bozordagi nufuzini oshiradi, xo'jalik faoliyatining yaxshilashni, moliyaviy jihatdan barqarorlashishni ta'minlaydi.

Iste'molchi talabiga qancha mos tovar (ish, xizmat) ishlab chiqarilsa shuncha talab ko'payadi, bozorda reyting oshib boradi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida bozorni egallash uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi.

«Sifatning mutloq darajasi»ga erishish usuli. Bu ilmiy-mantiqiy tahlil natijasida erishiladigan ko'rsatkich. Savdo xizmati sifatini aniqlash uchun asrimizning 70-yillari oxirlarida Samarqand kooperativ instituti olimlari tomonidan tavsiya qilingan edi. Bunda tovar, mahsulot, ish va xizmat kabilalar sifatining mutloq darajasi qanday bo'lishligi hamda unga erishish uchun nimalar qilish, qanday tadbirlarni bajarish lozimligi ishlab chiqiladi. Bunday andozani ishlab chiqishga jahon talabidan kelib chiqmoq lozim.

Bunga erishish makro va mikroiqtisodiyotida juda katta samara beradi. Sifat masalasi iqtisodiyotning qaysi shaklidan qat'i nazar hamisha dolzarb, hech eskirmaydigan muammo, mavzudir. Shu tufayli bu masalaga O'zbekiston, viloyat, tuman, korxona iqtisodiyotini boshqarayotganlar hozirgi sharoitda juda katta e'tibor berishlari shart.

Ushbu paragrafda evristik tahlilning jahon tajribasida qo'llanilayotgan va biz tomonidan ishlab chiqilgan ayrim usullariga to'xtaldik, xolos.

Bu juda keng qamrovli muammo, mavzu. Ushbu usullardan foydalanish O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotining ayniqsa hozirgi bosqichida juda muhimdir, chunki biz har kuni, har daqiqalar orqali jahon iqtisodiyotiga, jahon bozoriga jadallik bilan

kirib bormoqdamiz. Biz bu maydonda o‘z o‘rnimizni topishimiz lozim.

Ammo u o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Boshqarishning shunga o‘xhash ilg‘or usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta’riflari

Evristik usuli deganda biror jarayon, hodisa, faoliyat, obyektning ayni mohiyatini aniqlash uchun nazariy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan mantiqiy usullar majmuasi tushuniladi.

O‘xhatish usuli deganda oldindan mavjud usullarni o‘rganib shunga o‘xhash usullarni o‘z faoliyatida joriy qilishga aytildi.

Tasavvur usuli deganda yangidan yaratiladigan predmetning bajaradigan barcha funksiya va jarayonlarini bajarishi mumkinligini oldin tasavvuridan o‘tkazish tushuniladi.

Ideallashtirish usuli deganda yaratilayotgan predmet, hodisa, faoliyat, texnologiya kabilarning barcha maqsadlarga javob berishi, arzonligi, mustahkamligi, sifatliligi jihatidan tasavvurimizdagagi eng qulay variantini tanlash tushuniladi.

«Yigirma to‘rt»lik qoida deganda yangi obyektni (texnologiyani, mahsulotni, faoliyatni, boshqarish kabilarni) yaratishga safarbar qilingan mutaxassislar hamma ishlardan ozod qilinib, 24 soat davomida shu bitta yaratilayotgan obyekt bilan shug‘ulananishadi.

«Yigirma besh»lik qoida deganda yangi yaratilayotgan obyektni yaxshilash uchun kamida 25 ta g‘oya ishlab chiqilishi va undan eng qulayini tanlab olinishi tushuniladi.

Ilg‘ab qolish usuli deganda tadqiqotchiga juda ko‘p yangi g‘oyalarning tasodifiy holatlarda, ayniqsa dam olib o‘tirganda, yo‘lda ketayotganda, biror kishi bilan suhbatlashganda, birorta o‘yinni o‘ynayotganda, uxmlayotganda kelishi va uni ilg‘ab qolish uchun qo‘llanadigan usullar tushuniladi.

Iste'molchilar talabidan kelib chiqish usuli deganda hamma qilinadigan ish, bajariladigan xizmat va yaratiladigan tovarlar bevosita iste'molchi talabidan kelib chiqqan holda bajarilishi va unga to'liq javob berilishi tushuniladi.

«Sifatning mutloq darajasi»ga erishish usuli deganda tovar, mahsulot, ish, xizmat kabilar sifatining mutloq darajasi qanday bo'lishligi va unga erishish uchun nimalar qilish, qanday tadbirlarni bajarish lozimligini ishlab chiqish tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilish uchun bilishi lozim bo'lgan savollar

1. FQTda qo'llaniladigan usullarning qanaqa turlari mavjud?
2. O'xshatish usuli nima?
3. Tasavvur usulini qanday tushunasiz?
4. Ideallashtirish usulini tushuntirib bering.
5. «Yigirma to'rtlik qoida qanaqa qoida?
6. «Yigirma beshlik qoidachi?
7. Ilg'ab qolish usuli qanday usul?
8. Iste'molchilar talabidan kelib chiqish usuli nima?
9. «Sifatning mutloq darajasi»ga erishish usuli qanaqa usul?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. FQTda qo'llaniladigan usullarning qanaqa turlari mavjudligini sanab bering va yana qanday usullarni qo'llash mumkinligini qo'shimcha qiling.
2. O'xshatish usuliga misollar keltiring. Bunda predmetlar va jarayonlarni misol qilib keltirish mumkin.
3. Tasavvur usulini qanday tushunasiz? O'zingizni yana o'n yildan keyin qanday bo'lishingizni tassavur qilib ko'ring.
4. Ideallashtirish usulini o'zingizning atrofingizdagi bo'layotgan jarayon va hodisalar misolida tushuntirib bering.

5. «Yigirma to‘rt»lik va «Yigirma besh»lik qoidalarga bir qancha misollar keltiring va bular qanaqa qoidaligi xususida tavsif bering, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering.

7. Ilg‘ab qolish usuli hayotingizda qachon qo‘llanilishi mumkinligiga batafsил to‘xtaling va uning qanday usul ekanligini tushuntirib bering.

8. Iste’molchilar talabidan kelib chiqish usuli nimaligi va ushbu usulning fermaning faoliyatida juda katta ahamiyatga ega ekanligi xususida batafsил izoh bering.

9. «Sifatning mutloq darajasi»ga erishish usuli nafaqat firma, balki jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi xususida izoh berib, uning qo‘llanilishi bo‘yicha bir qancha misollar keltiring.

10. Har bir usul bo‘yicha mustaqil ravishda ikkitadan testlarni tuzing.

4. Mavzularni o‘zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o‘zlashtirish uchun ma’ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so‘zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo‘yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo‘lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo‘yicha o‘z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og‘zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash tartibi va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishlash uchun talabalar quydagi ishlarni bajarishlari lozim:

- mavzu bo'yicha darsda qilgan konspektini o'rganadi;
 - mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
 - mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt yozadi;
 - o'qituvchi topshiriq bersa, ushbu mavzu bo'yicha referat yozadi va uni yoqlaydi;

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Мусеева Н.К. Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. Pardayev M.Q., Pardayev I.R. Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional qiymat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. А.Д.Шеремета. —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. Б.И.Майданчика. —М.: Финансы и статистика, 1985.

10-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA QO'LLANILADIGAN «FIKRLAR HUJUMI» VA BOSHQA IJODIY USULLAR

10.1. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usulining mohiyati va uning alohida turlari

«Fikrlar hujumi» biror bir muhim masalani va muammoni hal qilish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxassislar hamda olimlardan iborat ijodiy guruhning g'oyalari majmuasidir.

«Fikrlar hujumi» (FH)ning yaratilish tarixi uncha uzoq emas. Bu funksional-qiymat tahlili (FQT)ning vujudga kelishi bilan birga asrimizning 40-yillarda paydo bo'lган. Uning nazariyasi oldin sobiq Ittifoqda yaratilgan, ammo amaliyotga qo'llanilishi AQSHda amalga oshirilgan.

Keyinchalik FH va FQTdan keng miqqosda foydalanish G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarga yoyilgan. Sobiq Ittifoqda FH va FQTdan 70 – 80-yillarda mashinasozlik va elektr asboblari qurilish sanoati kabi tarmoqlarda foydalanila boshlagan.

Hozir jahondagi sanoati, umuman, iqtisodiyoti taraqqiy etgan barcha mamlakatlarda FHdan keng foydalanilmoqda.

FH ijodiy guruhi yirik firmalar, koorporatsiya, konsern, tarmoq vazirliklari, hududiy ma'muriyat (hokimliklar) qoshida tashkil qilinadi.

Ularning oldiga aniq vazifa qo'yiladi. Masalan, firmanın moliyaviy barqarorligini ta'minlash. Bu borada guruhi a'zolarining har biri o'z g'oyalari ishlab chiqadi.

Bu g'oyalar natijasida firmanın moliyaviy barqarorligini ta'minlashning bir qancha varianti paydo bo'ladi. So'ngra har bir variant muhokama qilinib, ulardan eng samarali jihatlari tanlab olinadi va bitta variant tuziladi.

FHni amalga oshirishda juda katta ishonch va erkinlik beriladi. Har bir kishi o'z variantini aytganda hech kim e'tiroz bildirmasligi kerak, chunki, uning varianti yaroqsiz bo'lsa ham ichida ma'lum ijobjiy taraflari bor bo'lishi mumkin.

Shu tufayli har bir kishi o'z fikrini erkin ifoda qilishi uchun yaxshi muhit yaratiladi. Bu bilan bиринчи учрашув yakunlanadi.

Hammasi o'rtaga qo'yilgan variantlarni muhokama qilish va o'ylab ko'rish uchun ma'lum vaqtga (2,3 kun, hafta) tarqalishadi. Ijodiy guruhning ikkinchi uchrashuvida haqiqiy fikrlar hujumi boshlanadi.

Har bir variant va ularning yo'l-yo'riqlari muhokama qilinadi. Oldin g'oyalar ichidan salbiy ta'sir qiluvchi jihatlari chiqarib tashlanib, faqat ijobjiy ta'sir qiluvchi g'oyalar qoldiriladi. FHning navbatdagi bosqichida ijobjiy g'oyalarni ham bir qancha guruhlarga bo'lish mumkin: eng yuqori samaralisi, samaralisi va samarasini kamrog'i, lekin barcha hollarda ham obyektning sifati yaxshi bo'lishi shart.

Endi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun nima qilish lozimligi to'g'risida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

FHguruhi tomonidan ushbu tavsiya qilingan variantni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Bunda ushbu ish bilan kimlар qaysi vaqtida, qachon, qayerda shug'ullanishi lozimligi, bularning nazoratini kim amalga oshirishini va natijasi bo'yicha kimlarni rag'batlantirish hamda kimlarga jazo choralarini qo'llash masalalari ham aniq belgilab qo'yiladi.

FH guruhiga kiritilgan mutaxassislar va olimlarning doimiy ravishda, imkonlari boricha bir vaqtida uchrashib turishlarini tashkil qilish lozim. Masalan, haftaning yoki oyning ma'lum kuni va soatida. Bu esa guruh a'zolarining samarali ishlashi uchun asosiy ergonomik omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda ham ushbu FH dan keng foydalanish mumkin. Ayniqsa, hozirgi o'tish davrida bu o'ta muhimdir.

Hozircha bosib o'tiladigan yo'limiz oldin sinalmagan yo'l. Bunda juda ko'p to'siqlar, anglashilmovchiliklar va xatolar bo'lishi tabiiy.

Ammo bu xato va kamchiliklarni har bir tuman, shahar, viloyat hokimliklarda erkin fikrlaydigan FHni amalga oshiruvchi ijodiy guruh tashkil qilinsa foydadan holi bo'lmaydi. Bularning tarkibiga olimlar, mutaxassislar, hokimiyat xodimlari, tajribali kishilarni kiritish mumkin.

Bularga to'lanadigan xarajat ular ishining samaradorligi bilan bir necha yuz martaga qoplanib ketadi.

Masalan, hozir e'tirof etilmoqdaki yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotining 25–30 foizi iste'molchiga yetguncha nobud bo'lmoqda.

Agar FHdan foydalanib uni 10 foizga qisqartirilsa viloyatimiz, respublikamiz qancha foya qilishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

10.2. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usullarining tavsifi

FHning jahon tajribasida sinalgan bir qancha usullari mavjud. Bularga yakka holdagi FH, ommaviy FH, yozma FH, g'oyalarni baholash FH va boshqalar kiradi.

FHning yakka holdagi usulida ham evristik tahlil usuli singari bir muammoni hal qilish yuzasidan faqat bir kishi yoki bir xil mutaxassislar guruhidan tarkib topgan bir qancha kishilar ishtiroy etadi.

Masalan, firma ishining samaradorligini oshirish uchun faqat buxgalterlardan iborat ijodiy guruh tashkil qilinishi mumkin. Ushbu guruhning bevosita vazifasidan kelib chiqqan holda ular oldiga bir qancha muammolarni hal qilish vazifasi qo'yiladi. «Buxgalteriya hisobini takomillashtirish va uning ko'rsatkichlari tahlilini yaxshilash», «Iqtisodiy tahlilni takomillashtirish», «Buxgalteriya hisobidagi kamchiliklarni aniqlash» va hokazo.

Menejer va marketologlar bo'lsa, «Korxonaning ishdagi va bozordagi faolligini oshirish», «Korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash» kabi muammolarni qo'yishi mumkin.

Bulardan tashqari, bitta mutaxassis oldiga ham bitta vazifani qo'yish mumkin, hozirgi paytda ko'p hollarda korxona (tashkilot) rahbari bosh qotiradi. Ammo uning malakasi keng qamrovli faoliyatning barcha sohasi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli muammolarni hal qilishda jamoatchilik fikridan ham keng foydalanish mumkin.

Amaliyotda shunday muammolar borki, ularni bir xil mutaxassislar hal qila olmaydi.

Masalan, «Viloyat iqtisodiyotini barqarorlashtirish muammosi». Bunga bir qancha soha mutaxassislari, olimlar kabilardan tarkib topgan nufuzli katta guruh tashkil qilish mumkin. Bunday holda FHning ommaviy usuhidan foydalanish maqsadga muvo-fiqdir.

FH ning yozma usulini mutaxassislarni bir joyga to'plash imkonи bo'limgan paytda qo'llash mumkin. Bu usul jahon amaliyotida kam qo'llanilsada, uning ijobjiy tomonlari mavjud. Xususan, mutaxassis o'z fikrini atroflicha erkin holatda ifodalaydi. Bu usul ikki yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchisi, mutaxassis oldiga aniq savol qo'yiladi va yozma ravishda javob yozib yuborish talab qilinadi.

Ikkinchi usul esa anketa usuli bo'lib bir qancha qisqa savollar qo'yiladi va unga qisqa javob berish talab qilinadi.

Ammo bu usulning kamchiligi ham mavjud, chunki, mutaxassis faqat o'z fikri bilan chegaralanib qoladi, muhokamada ishtirok etmaydi, boshqa variantni eshitib o'z tavsiyasini boyitish imkoniga ega bo'lmaydi. Lekin kam xarajat talab qiladi.

FHning g'oyalarini baholash usuli jahon tajribasida keng qo'llaniladi.

Bunda maxsus tashkil qilingan, masalan hokimiyat qoshidagi FH guruhi ekspert rolida ishtirok etadi. Bunda har bir masala yuzasidan anjuman (ilmiy-amaliy konferensiya) tashkil qilinadi.

Bu uch qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismida bir soat hamma ishtirokchilardan xohlagan kishi o'z g'oyasini 5 daqiqada qisqa bayon qiladi.

G'oyalar, takliflar tugagach 45 daqiqqa tanaffus e'lon qilinadi. Bu anjumanning ikkinchi qismini tashkil qiladi. Bunda mutaxassislar bir biri bilan o'z g'oyalarini va boshqalarning eng yaxshi g'oyalarini o'rtoqlashish uchun imkoniyat yaratiladi.

G'oyalarni baholashning uchinchi bosqichi yana rasmiy holatda zalda o'tkaziladi. Bunda anjuman bir soat davom etadi va eng yaxshi g'oyalar muhokamasiga, yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Bularning hammasini maxsus FH guruhi (ekspertlar) hisobga olib boradi. Konferensiya natijasi bo'yicha ekspertlar guruhi eng yaxshi g'oyalarni tanlab oladi va shu g'oyani amaliyotga tafbiq etish yo'llarini ishlab chiqadi.

Albatta, bu yerda yaxshi g'oya muallifini rag'batlantirishni yoddan chiqarmaslik kerak. Yaxshi g'oya sotib olinib, shu firma yoki kompaniyaning intellektual mulkiga aylanishi mumkin.

FHning munozara usulini ham qo'llash mumkin. Bunda birorta muammo yuzasidan matbuotda yoki kichik risola (varaqa) tarzida g'oya bayon etiladi va u keng o'quvchilar, mutaxassislar, olimlar hukmiga havola qilinadi, har bir kishi, mutaxassis shu muammo yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fikrlar, tavsiyalar ekspertlar (maxsus FH guruhi) tomonidan o'rganib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelishi mumkin. Agar muammo juda murakkab bo'lsa ekspertlar tegishli xulosa chiqarish imkoni bo'lmasa barcha g'oyalar va tavsiyalar maxsus to'plamda chop etiladi va yana o'sha mutaxassislarga, olimlarga tarqatiladi. Hammasi ma'lum fikrga kelgach yana to'planib ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazishi mumkin.

Xullas, bu usullarning hammasida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Faqat bunga ma'lum darajada e'tibor zarur deb hisoblaymiz.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

«Fikrlar hujumi» biror bir muhim masalani, muammoni hal qilish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxassislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g'oyalari majmuasidir.

FHning asosiy tamoyili katta ishonch va erkinlikka asoslanadi.

FHning yakka holdagi usulida ham evristik tahlil usuli singari bir muammoni hal qilish yuzasidan faqat bir kishi yoki bir xil mutaxassislar guruhidan tarkib topgan bir qancha kishilar ishtirok etadi.

FH ning yozma usuli mutaxassislarni bir joyga to'plash imkonи bo'Imagan paytda o'z fikrini atroflicha erkin holatda aniq qo'yilgan savolga yozma ravishda javob yozish yoki anketada berilgan savollarga qisqa javob berish orqali qo'llaniladi.

FH ning g'oyalari baholash usuli jahon tajribasida keng qo'llaniladigan usullardan bo'lib, bunda maxsus tashkil qilingan FH guruhi ekspert rolida ishtirok etadi va ishtirokchilar bir masala yuzasidan anjuman (ilmiy-amaliy konferensiya) tarzida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashadilar hamda ular asosida yaxshi g'oyalari tanlab olinib bir to'xtamga kelinadi.

FHning munozara usulida birorta muammo yuzasidan matbuotda yoki kichik risola (varaqa) tarzida g'oya bayon etiladi va u keng o'quvchilar, mutaxassislar, olimlar hukmiga havola qilinadi, so'ngra har bir kishi, mutaxassis shu muammoning yechimi yuzasidan o'z fikrini bildiradi, nihoyat fikrlar, tavsiyalar ekspertlar (maxsus FH guruhi) tomonidan o'rganilib tegishli xulosalarga kelinadi.

2. Talabalarining ushbu mavzu bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun qo'llaniladigan savollar

1. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usulining mohiyati va uning alohida turlari

2. Yakka holdagi FHni izohlang.
3. Ommaviy FHni izohlang.
4. Yozma FHni izohlang.
5. G'oyalarni baholash FHni izohlang.
6. Munozara usulini izohlang.
7. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usullarining tavsifini izohlang.
8. FQTning asosiy tamoyili nima?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1-masala. Firmaning bozorda keng mavqega ega bo'lishi uchun nimalar qilish kerakligi to'g'risida guruh bo'lib, FH usulidan foydalangan holda bir qancha variantlardagi yechimlarni yakka holdagi usulni qo'llab ishlab chiqing.

2-masala. Shu masalani hal qilish yo'llarini yozma usullarda, munozarali usulda va g'oyalarni baholash usullarida guruh bo'lib yechish usullarini ko'rsatib bering.

3-masala. Masalani aniq hal qilish uchun misolni Samarcandning buyum bozorlarini va shahrimizdagi birorta korxonani olish mumkin.

4-masala. Bajarilgan amallar, FQT natijalari bo'yicha ushbu bosqichni takomillashtirish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qiling va uning har bir bandini asoslang.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilib qolguday bo'lsa konsept yoziladi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

FQTda «Fikrlar hujumi» ijodiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini firmada iqtisodiy o'sishni ta'minlash va rentabelligini oshirish bo'yicha amalga oshiradi.

Qilingan ishlar bo'yicha natija referat yozish, turli hisob-kitoblarni bajarish bilan taqdim etildi.

Ushbu mavzu bo'yicha magistrning bilimi yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Magistrning bilimi 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funktsional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional qiymat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali sositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

11-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILIDA TADQIQOT BOSQICHI

11.1. Funksiyalarni amalga oshirishni taddiq qilish va ularni baholash usullari

FQT tahlilida taddiqot bosqichi o'ta mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Ushbu bosqichda tanlangan obyektning har bir funksiyasini baholashdek murakkab ishlar bajariladi. Bu albatta tahlilchidan katta malaka, tajriba va bilimni talab qiladi.

Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash deganda FQT yordamida har bir funksiyaning elementlari bo'yicha xarajatlarini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida istiqboldagi miqdorini aniqlash va mazkur funksiyani amalga oshirishning eng samarali variantini tanlash hamda uni asoslash tushuniladi.

Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- funksiyalarning mohiyati aniqlanadi va ularga ketadigan xarajatlar baholanadi;
- funksiyalarning sifatli amalga oshirish bo'yicha bir qancha variantlarning ichida eng qulayi aniqlanadi;
- funksiyalarning har birini amalga oshirish uchun ketadigan xarajatlarning taxminiy miqdori aniqlanadi.

FQTning ushbu bosqichini to'liq tushunish va uni amalga oshirish uchun keltirilgan har bir tadbirni alohida ko'rib chiqish lozim.

Funksiyalarning mohiyatini aniqlash va ularga ketadigan xarajatlarni baholash usullari. FQTda boshqa tahlillar singari axborotlarning yetarli emasligi, ularni aniqlashda asosan ijodiy yondashish zaruratidan kelib chiqib, tahlilning ushbu bosqichida ham ilmiy-tadqiqot, ekspert, mantiqiy tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Bularning ichidan ekspert usulining keng foydalanishiga sabab, juda ko'p noaniqliklarning mavjudligidir.

Funksiyalarni baholashda subyektivlikka yo'l qo'ymaslik uchun malakali ekspertlardan foydalaniladi va baholashda ekspert usullari qo'llaniladi.

Ekspert usullari ham juda xilma-xil. Ularni o'rganishni osonlashtirish uchun alohida guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Ekspert usullarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Ekspertizaning qamrab olish darajasi bo'yicha.
2. Funksiyalarni ishlash xarakteri bo'yicha.
3. Funksiyalarni algoritmlash va avtomatizasiyalash imkoniyati bo'yicha.

Ushbu guruhlarning har biri o'z navbatida bir qancha usullarni qamrab oladi. Ularni mos ravishda tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ekspertning yakka holdagi bahosi bitta ekspert fikrining inobatga olinganligi bilan belgilanadi. U boshqalarning fikridan qat'i nazar saqat o'z fikrini aytadi. Shu fikr qaror qabul qilish uchun asos bo'lishi mumkin. Yakka holdagi ekspertning fikri o'zi bergen yozma fikr orqali, intervyu orqali, suhbat orqali ifoda etilishi mumkin.

Ushbu holda funksiyalarning muhimligi ham inobatga olinadi. Bunda funksiyalar eng muhim, muhimroq va muhim bo'lmagan variantlarga ajratiladi. Chunki, ekspertlar birinchi kelgan fikrini aytishi mumkin.

U hamisha ham o'rganilayotgan obyektning hamma jihatlarini inobatga olmagan bo'lishi tabiiy. Shuning uchun har bir funksiya bir xil mohiyatga ega emas. Ular obyektning turli tomonini o'zida ifoda etganligi tufayli mohiyati ham turlicha bo'ladi. Bu esa har bir funksiyaning mohiyatlilik koeffitsiyentini aniqlashni ham taqozo qiladi. Jahon amaliyotida ko'rsatkichlarning, funksiyalarning mohiyatini qo'yilgan vazifa va maqsadga qarab ekspertlar belgilaydi. Bu tajribani O'zbekistonda ham bemalol qo'llash mumkin, chunki bunday mutaxassislar o'zimizda ham shakllanib bormoqda.

Ekspertning yakka holdagi bahosi funksiyalarni baholashning bir qancha usullari mavjud. Ulardan biri juftlab solishtirish usulidir. Ushbu usul bilan funksiyalarning mohiyatliligini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi matritsani tuzish mumkin (11.1-jadval).

11.1-jadval

**Funksiyalarni baholashning juftlab solishtirish
usuli matritsasi**

Funksiyalar indeksi	Funksiyalar indeksi										Ustuvorlik berilgan miqdor
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1		1	3	1	5	1	1	1	9	1	6
2	1		3	2	5	2	2	2	9	2	5
3	3	3		3	5	3	3	3	9	3	7
4	1	2	3		5	4	4	4	9	4	4
5	5	5	5	5		5	5	5	5	5	9
6	1	2	3	4	5		6	6	9	6	3
7	1	2	3	4	6	6		7	9	10	1
8	1	2	3	4	5	9	7		9	8	1
9	9	9	9	9	5	9	9	9		9	8
10	1	2	3	4	5	6	10	8	9		1

Manba: Справочник по функционально-стоимостному анализу. — М.: Финансы и статистика, 1988.

Mazkur matritsada har bir funksiya ahamiyati bo'yicha ustun va qatoriga qarab joylashtiriladi. Agar qaysi funksiya ahamiyatli bo'lsa, matritsadagi raqam o'zining tartib raqamiga to'g'ri keladi. Masalan, 4-raqamli funksiya indeksini oladigan bo'lsak, uning

to‘g‘risidagi to‘rtlarni sanaymiz. Natija 4 ga teng. Ko‘rinib turibdiki, jadvalning oxirgi ustuniga 4 raqamini yozamiz. Mos ravishda 5-funksiya uchun ustuvorlik berilgan miqdor 9 tanj tashkil qiladi.

Ustuvorlik berilgan raqam matritsaning qatorida ham va ustunida ham bir-biriga to‘g‘ri kelishi kerak. Jumladan, 10-funksiyaning ustuvorligi 7-funksiyaga to‘g‘ri keladi. Ushbu raqam matritsaning ustunida ham qatorida ham bir marta uchraydi. Demak, uning ustuvorligi birga teng. Shu tufayli oxirgi ustunga bir yoziladi va hokazo.

Ushbu matritsa orqali funksiyalarning ustuvorligini tartib bilan joylashtirish imkoniyati tug‘iladi. Buning uchun eng yuqori ustuvorlikka ega bo‘lgan funksiyani birinchiga va shu tariqa ketma-ket joylashtiramiz. U holda quyidagi jadvalni tuzish mumkin bo‘ladi (11.2-jadval).

11.2-jadval

Funksiyalarni ustuvorligi bo‘yicha joylashtirish

Funksiyalar indeksi	5	9	3	1	2	4	6	7, 8, 10	7,8, 10	7,8, 10
Ustuvorlik berilgan miqdor	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Manba. Справочник по функционально-стоимостному анализу. —М.: Финансы и статистика, 1988.

Ushbu ma’lumotlar asosida har bir funksiyaning mohiyatlilik koeffitsiyentini aniqlash mumkin. Bu ko‘rsatkich funksiyalarning ustuvorlik miqdorini uning yig‘indisiga nisbatan olinadi. Bu har bir funksiya ustuvorligining ulushi tarzida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$M_k + F_{1 \text{ fun us}} + F_{jami us}. \quad (11.1.1)$$

Bunda: M_k — funksiyalarning mohiyatlilik koeffitsiyenti;

$F_{\text{fun.us}}$ – bitta funksiyaga berilgan ustuvorlik;

$F_{\text{jami us}}$ – mazkur funksiyaga berilgan jami ustuvorlik.

Ushbu formulani yechish uchun 11.2-jadval ma'lumotlaridan foydalilaniladi va quyidagi jadval tuziladi (11.3-jadval).

11.3-jadval

Funksiyalarning mohiyatlilik koeffitsiyenti

Funksiyalar indeksi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mohiyatlilik koeffitsiyenti	0,1- 33	0,1- 11	0,1- 56	0,0- 89	0,2	0,0- 67	0,0- 22	0,022	0,178	0,0- 22

Manba. Справочник по функционально-стоимостному анализу. – М.: Финансы и статистика, 1988. Ushbu adabiyotdagi usulga asosan mualliflarning hisob-kitobi.

Funksiyalarning ustuvorligini belgilash uchun ushu mohiyatlilik koeffitsiyentidan foydalinish mumkin. Bunda har bir guruh funksiyalar sonini mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko'paytirish mumkin.

Funksiyalarning ustuvorligini belgilashda qo'llaniladigan mohiyatlilik koeffitsiyenti deganda har bir funksyaning mohiyatlilikini inobatga oladigan, ekspertlar tomonidan beriladigan baholar asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar tushuniladi.

Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$F_{\text{mk}} + F_s + K_{\text{fm}} . \quad (11.1.2)$$

Bunda: F_{mk} – funksiyalarning mohiyatlilikini inobatga olgan umumiy kompleks miqdori;

F_s – funksiyalarning soni;

K_{fm} – funksiyalarning mohiyatlilik koeffitsiyenti.

Ushbu formuladan foydalanib funksiyalarning kompleks miqdorini aniqlash mumkin. Bu ularning real ustuvorligini ta'minlaydi. Bu usuldan funksiyalarni tavsiflashda, ularning bosh,

asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli ekanliklarini aniqlashda foydalanish mumkin.

11.2. Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash va uni amalga oshirish usullari

Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash va uni amalga oshirish uchun bir qancha usullardan foydalaniladi. Chunki, FQTning mazkur bosqichida ishlab chiqilgan variantlarning eng samaralisi tanlab olinadi. Shu tufayli bunga alohida ahamiyat berishni talab qiladi.

Albatta, har bir mahsulotni ishlab chiqarishdan oldin mulkdor tomonidan biznes-reja tuziladi. Ammo undagi ko'pgina ko'rsatkichlar hali taxminan olingan bo'ladi. Chunki, mahsulotga ketadigan xomashyoning haqiqiy miqdori, uning navi, agar metall bo'ladigan bo'lsa, uning og'irligi, qayerdan va qanday transport bilan tashib keltirishi kabi jarayonlar real bo'lmaydi. Tabiiyki, bunday holatda ko'pgina taxminlarga yo'l qo'yiladi. Bularni bartaraf qilish uchun esa, albatta, FQTdan foydalanishni taqozo qiladi.

Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash uchun funksiyalarga ketadigan xarajatlarni aniqlashni taqozo qiladi. Har bir funksiya bo'yicha xarajatlarni aniqlash va ularning miqdorini baholash jarayonida FQTning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Bunday usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarkibiy xarajatdorlik usuli;
- element koeffitsiyentlilik usuli;
- o'lchamli koeffitsiyent usuli;
- korrelyasiyali modellashtirish usuli;
- qisqartirilgan normativ kalkulyatsiya usuli;
- ekspertlarning iqtisodiy baholash usuli.

Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash uchun ushbu usullarni amalga oshirishda FQT bir qancha talablarga javob berishi lozim. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yangiliklarga juda sezgirlik bilan yondoshish. Masalan, tanlangan obyektda qandaydir bir o‘zgarish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, uni zudlik bilan inobatga olish imkonni bo‘lishi lozim;
- yondoshuvlarda universallikni ta’minalash. Bu funksiyalar turli bo‘lishi, ya’ni oddiy yoki murakkab, kichik yoki katta va hokazo. Ammo, hamma hollarda ham usullardan foydalanish mumkin bo‘lishi lozim;
- baholashni aniq amalga oshirish uchun funksiyalarni alohida elementlari bilan ham o‘rganadigan bo‘lishi lozim;
- xarajatlarning iqtisodiy tabaqlanishini ta’minalash imkonni bo‘lsin. Chunki, har qanday funksiya bir xil vaqt yoki mablag‘ni talab qilmaydi. Ular alohida-alohida baholanadi. Lekin, ularni oxirida jamlash imkoniyatlari ham bilishini talab qiladi;
- funksiyalarni hisoblash va ularni baholash sodda hamda qulay bo‘lishi lozim. Ularni shunday tanlash lozimki, qaysiki o‘lchash va baholash imkonni bo‘lsin;
- hozirgi paytda har bir funksiya to‘g‘risidagi ma’lumot tezkor tarzda aniqlanishi bilan birga kompyuterga kiritish va hisoblash imkoniga ham ega bo‘lishi lozim.

Agar FQTda qo’llaniladigan usullar ushbu talablar va holatlarga javob beradigan bo‘lsa, har qanday funksiyani texnik-iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli baholash mumkin. FQTda yuqorida keltirilgan barcha usullarni ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

11.3. Tarkibiy xarajatdorlik usulining mohiyati

Tarkibiy xarajatdorlik usulining mohiyati shundaki, ushbu usulda xarajatlarning turlari bo‘yicha alohida-alohida hisoblanib olinadi. Bunda tanlangan obyektning umumiy xarajatdorligini aniqlash uchun uning har bir detali bo‘yicha ketadigan xarajatlar miqdori hisoblab olinadi va bitta detali bo‘yicha jamlab so‘ngra ular umumlashtiriladi. Ushbu detalgaga ham ketadigan xarajatlar alohida xarajatlarning turlari bo‘yicha hisoblanadi.

Shunday qilib, tarkibiy xarajatdorlik usuli deganda tanlangan obyektning har bir detaliga ketadigan xarajatlarni alohida xarajat turlari bo'yicha hisoblab umumlashtirish tushuniladi. Masalan, tanlangan obyektning bitta detali bo'yicha ish haqi, materiallar, xomashyo, elektr energiyasi va hokazolar hisoblanib olinadi. Oldin shu detal bo'yicha jamlanadi va keyin tanlangan obyektning hamma detallari bo'yicha umumlashtiriladi.

Ish haqi bo'yicha xarajatlarni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$I_{1\text{ d.h}} + I_{xas} + I_{hq} + T_t. \quad (11.3.1)$$

Bunda: $I_{1\text{ d.h}}$ – bitta detal bo'yicha umumiyl ish haqi;

I_{xas} – shu detal bo'yicha asosiy ish haqi;

I_{hq} – shu detal bo'yicha qo'shimcha ish haqi;

T_t – xodimlarga turli to'lovlar.

Materiallar bo'yicha ham xarajatlar miqdori aniqlanadi. Bunda bitta detalgaga turli og'irlikdagi bir qancha turdag'i materiallar ketishi mumkin.

Buni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$M_{xld.} + M_{mq} + P_{mq} + C_{hmq} \dots \quad (11.3.2)$$

Bunda: $M_{xld.}$ – tanlangan obyektning 1 ta detali bo'yicha materialning umumiyl qiymati;

M_{mq} – shu detalga ishlatilgan metal materiallari qiymati;

P_{mq} – shu detalga ishlatilgan plasmassa materiallari qiymati;

C_{hmq} – shu detalga ishlatilgan cho'yan materiallari qiymati.

Xuddi shu tarzda boshqa xarajatlar (B_x) bo'yicha ham xarajatlar miqdori aniqlanadi.

Hamma detallar bo'yicha xarajatlarning umumiyl miqdori aniqlanadi va ular jamlanib umumiyl xarajatlar hisobanadi.

Buning uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$U_{xld.} + I_{hld.} + M_{xld.} + B_x \dots \quad (11.3.3)$$

Bunda:

$U_{xld.}$ – tanlab olingan obyektning bitta detali bo'yicha xarajatlarning umumiy miqdori.

Tanlangan obyekt bo'yicha umumiy xarajatlarni aniqlash uchun barcha detallar bo'yicha qilingan xarajatlar jamlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$U_{xt.o} + U_{xld.1} + U_{xld.2} + U_{xld.3} + \dots + U_{xld.p}. \quad (11.3.4)$$

Bunda: $U_{xt.o}$ – tanlangan obyekt bo'yicha umumiy xarajatlar;

$U_{xld.1}$ – birinchi detal bo'yicha xarajatlarning umumiy miqdori;

$U_{xld.2}$ – ikkinchi detal bo'yicha xarajatlarning umumiy miqdori;

$U_{xld.3}$ – uchinchi detal bo'yicha xarajatlarning umumiy miqdori;

$U_{xld.p.}$ – eninchi detal bo'yicha xarajatlarning umumiy miqdori.

Bundan tashqari, tanlangan obyekt bo'yicha xarajatlarning har bir turi uchun ham ularning miqdori aniqlanadi. Turli yo'nalishlar bo'yicha xarajatlarning mavjudligi ular har birining tarkibini aniqlash imkonini beradi. Bu esa uning tarkibiy xarajatdorligini belgilaydi.

11.4. Elementli koeffitsiyentlilik usulining mazmuni

Elementli koeffitsiyentlilik usulining mazmuni uning tabiatidan kelib chiqadi. Bu usul bevosita tahlil qilinayotgan detalning namunaviy yoki shunga o'xshash umumlashtirilgan nusxasi mavjud bo'lgan detallarning tannarxini aniqlashda qo'llaniladi.

Elementli koeffitsiyentlilik usuli deganda tahlil qilinayotgan detalning uning mavjud namunaviy nusxasiga nisbatan nisbiy tannarxini ifodalovchi koeffitsiyenti tushuniladi.

Ushbu usul tanlab olingen obyekt detalining namunaviy nusxasi chizmalarda, loyiha grafiklarida ifoda etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Unda barcha funksiyalar mos ravishda o'rganilgan, ularga ketadigan xarajatlar aniqlangan, hatto qisman ishlab chiqarilgan ham bo'lishi mumkin.

Bunday sharoitda tahlilchi mazkur tahlil qilinayotgan detalning bugungi iqtisodiy holatidan kelib chiqib baholaydi. Bugungi holat loyihada ifoda etilgan ko'rsatkichlarga nisbatan farq qilishi mumkin.

Masalan, narxi o'zgargan, amortizasiya me'yori ham bosh-qacha belgilanadigan, ish haqining miqdori oshgan bo'lishi mumkin. Bu holatlar albatta mahsulotning tannarxiga bevosita ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Shu tufayli yangidan yaratilayotgan detalning tannarxini namunadagi xuddi shunga o'xhash detalning tannarxiga solish-tirgan holda o'rganiladi.

Elementli koeffitsiyentlilik usulini qo'llagan holda yangidan yaratilayotgan detalning tannarxini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$T_n + T_{\text{oday}} + S_{\text{omq}} + L_x \quad (11.4.1)$$

Bunda: T_n – loyihalashtirilayotgan detalning tannarxi;

T_{oday} – loyihalashtirilayotgan detalning asos yilidagi tannarxi;

S_{omq} – ushbu detalni yaratish uchun sotib olingen mahsulotning qiymati;

L_x – ushbu detalni loyihalashtirishga ketgan xarajatlar miqdori.

Ushbu formuladagi loyihalashtirilayotgan detalning asos yilidagi tannarxini (T_{oday}) aniqlash uchun shu detalga kiradigan barcha elementlarining sonini (D_{cs}) uning tannarxiga ko'paytiriladi (D_{tn}) va chiqqan natijani shu detallarga mansub elementli koeffitsiyentga (K_e) ko'paytiriladi va natijalar jamlanib umumiy summasi aniqlanadi.

Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_{\text{odayt}} + (D_{\text{es}} \times D_{\text{tn}}) \times K_e \quad (11.4.2)$$

Agar shu ikkita formuladan bitta formula chiqarish lozim bo'lsa u quyidagi holatga ega bo'ladi:

$$T_n + (D_{\text{es}} \times D_{\text{tn}}) \times K_e + S_{\text{omq}} + L_x \quad (11.4.3)$$

Ushbu usulni muvaffaqiyatli qo'llash uchun uning barcha elementlarini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Bu erda keltirilgan formuladagi barcha ko'rsatkichlarni aniqlash va tadqiqot yo'li bilan olish mumkin. Ammo shu detallarga mansub elementli koeffitsiyentni aniqlash lozim bo'ladi.

Buning uchun uning ta'rifida keltirgan qoidaga amal qilib, tahlil qilinayotgan detalning mavjud namunaviy nusxasiga nisbatan nisbiy tannarxini ifodalovchi koeffitsiyentini aniqlab olinadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalilanadi.

$$K_e + D_{\text{lx}} g^e D_{\text{nnx}}. \quad (11.4.4)$$

Bunda: K_e – tahlil qilinayotgan detalning elementli koeffitsiyenti;

D_{nnx} – tahlil qilinayotgan detalning bugungi tannarxi;

D_{lx} – tahlil qilinayotgan detalning namunaviy nusxadagi tannarxi.

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab bemalol FQTning ushbu qismini amalga oshirish mumkin. Eng muhim, tejamkorlikka erishish ichki imkoniyatlarni axtarib topish evaziga, samaradorlikka erishish esa ko'p xarajat qilmasdan safarbarlik evaziga erishiladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

Funksiyalarning mohiyatini va ularga ketadigan xarajatlarni aniqlashda juda ko'p noaniqliklarning mavjudligi tufayli unga

asosan ijodiy yondoshiladi va ilmiy-tadqiqot, ekspert, mantiqiy tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Ekspertning yakka holdagi bahosi bitta ekspert fikrining inobatga olinganligi bilan belgilanadi.

Ekspertning yakka holdagi bahosi bitta ekspert fikrining inobatga olinganligi bilan belgilanadi.

Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash deganda FQT yordamida har bir funksiyaning elementlari bo'yicha xarajatlarini texnik-iqtisodiy ko'satkichlar yordamida istiqboldagi miqdorini aniqlash va mazkur funksiyani amalga oshirishning eng samarali variantini tanlash va uni asoslash tushuniladi.

Funksiyalarning ustuvorligini belgilashda qo'llaniladigan mohiyatlilik koeffitsiyenti deganda har bir funksiyaning mohiyatliligini inobatga oladigan, ekspertlar tomonidan beriladigan baholar asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar tushuniladi.

Tarkibiy xarajatdorlik usuli deganda tanlangan obyektning har bir detaliga ketadigan xarajatlarni alohida xarajat turlari bo'yicha hisoblash va umumlashtirish tushuniladi.

Elementli koeffitsiyentlilik usuli deganda tahlil qilinayotgan detalning uning mavjud namunaviy nusxasiga nisbatan nisbiy tannarxini ifodalovchi koeffitsiyenti tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun bilishi lozim bo'lgan savollar

1. Funksiyalarni amalga oshirish bosqichida qanaqa ishlar amalga oshiriladi?
2. Ekspert usullari necha guruhg'a bo'linadi?
3. Ekspert usullarining guruhlariga izoh bering.
4. Funksiyalarni amalga oshirishni tadqiq qilish bosqichining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. FQTda funksiyalarni baholash usullarining mazmuni nimalardan iborat?
6. Funksiyalarning mohiyatlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

7. Funksiyalarning umumiy kompleks ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?
8. Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash va uni amalga oshirish usullarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
9. Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholashda qanday usullar go'llaniladi?
10. Tarkibiy xarajatdorlik usulining mohiyati nimalardan iborat?
11. Elementli koeffitsiyentlilik usulining mohiyati nimalardan iborat?
12. O'lchamli koeffitsiyent usulining mohiyati nimalardan iborat?
13. Korrelyatsiyali modellashtirish usulining mohiyati nimalardan iborat?
14. Qisqartirilgan normativ kalkulyatsiya usulining mohiyati nima?
15. Ekspertlarning iqtisodiy baholash usulining mohiyati nima?
16. FQTda subyektivlikka yo'l qo'ymaslik uchun nima qilish kerak?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni to'liq o'rganadi. Bilishi lozim bo'lgan barcha savollarga yozma ravishda javob yozadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Mazkur mavzu bo'yicha har bir talaba uchtadan ko'rgazmali vosita tayyorlaydi.
Bular jadval, chizma, diagramma, formula kabi shakllarda bo'lishi mumkin.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda beshtadan test tuzadi.

4. O'zbekistonda FQT bo'yicha chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va boshqa asarlarning ro'yxatini tuzadi hamda ularning qisqagina mazmunini ushbu mavzuga tegishli qismini, unga o'z fikrini bildirgan holda yozib topshiradi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilib qolguday bo'lsa konspekt qiladi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishlash uchun talabalar quyidagi ishlarni bajarishi lozim:

- 1) mavzu bo'yicha darsda qilgan konspektini o'rganadi;
- 2) mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
- 3) mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt qiladi;
- 4) o'qituvchi topshirig'iga binoan ushbu mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi, testlar tuzadi, referat yozadi va uni yoqlaydi;
- 5) yoqlash jarayoni seminar tarzida, fikrlar hujumini qo'llagan holda keng baxs-munozara shaklida o'tkaziladi.

Mustaqil ishning nazorati ham odadagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mouseeva N.K.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении. —М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarcand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funktsional qiymat tahlili metodologiyasi. 207—233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarcand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funktsionalqiymat tahlilidan foydalanish. 46—75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172—187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231—236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. —Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81—90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

12.1. Funksional qiymat tahlilining ishlab chiqarishda qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari

FQTning ishlab chiqarishda qo'llanilishini o'rganish uchun uni bir tizim sifatida qarashga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarish tizimi (IChT) deganda uni tashkil qilish, boshqarish va natijasini baholash bilan bog'liq jarayonlar, ularning bir-biriga bog'liqligi hamda tartibga solinishini ta'minlovchi tadbirlar majmuasi tushuniladi.

FQTning IChTni o'rganishdagi asosiy vazifasi uni tashkil qilish, boshqarish va natijasini baholash bilan bog'liq jarayonlarda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni topish, uning faoliyatini barqaror ravishda ishlashini ta'minlash kabi funksiyalarning sifat tarkibini, ularning bir-biriga bog'liqligi hamda tartibga solinishini ta'minlovchi tadbirlarni baholashdan iboratdir.

IChTga ishlab chiqarish korxonasi, uning bo'lim va sexlari, alohida uchastkalari hamda ish joylari kiradi. Agar ishlab chiqarish korxonalari ma'lum assotsiatsiyalarga kiramagan bo'lsa, unga kiruvchi barcha korxonalarni ham olish mumkin. Hozirgi paytda hududlar bo'yicha savdo — sanoat palatalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Agar FQT shu tizimda amalga oshiriladigan bo'lsa, unga kiruvchi barcha korxonalarni olish mumkin.

Bunday sharoitda FQTni tashkil qilish ancha osonlashadi va undan foydalanishning samaradorligi oshadi. Chunki, Savdo-sanoat palatasi bo'yicha bitta yirik FQT guruhini tashkil qilish mumkin bo'ladi.

FQTni barcha sohalarga qo'llash mumkinligi xususida oldingi paragraflarda aytib o'tildi. Ushbu tahlil usulining ishlab chiqarish

tizimida qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular quyidagilardan iborat:

- o'rganilayotgan obyekt ichki va tashqi funksiyalarining mohiyatini ochish, ya'ni IChTni boshqarish bo'lsa hamma tizimga kiruvchi obyektlarni yuqorida pastgacha o'rganish, agar u bir korxonaning ichida bo'lsa, uning hamma bo'linmalarini makon va zamon nuqtayi nazaridan o'rganish;

- IChTda barcha funksional va tarkibiy tuzilmalarni uning elementlari bo'yicha IChTni funksiyalar tizimidan iborat deb qarash;

- IChTda funksiyalar bir biri bilan bevosita (funksional) va bilvosita (staxistik) bog'liqligini inobatga olib, ularning holatini ma'lum darajada ehtimolli tarzda ham qarashga to'g'ri keladi;

- IChTni bir butun takomillashtirish lozim bo'lsa, uning har bir elementi bo'yicha takomillashtirishga erishilishi ko'zda tutiladi;

- agar zarur bo'lsa IChTning har bir bo'linmasi bo'yicha funksiyalar alohida o'rganilishi, uni bir tizimga kirishini muvofiqlashtirish va ta'minlash maqsadida bir xil yondashishga erishilishini ham taqozo qiladi.

IChTga FQTni qo'llash orqali tahlilchi quyidagilarga erishishi mumkin:

- ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirishga;

- korxonalarining barcha bo'g'inlari va bo'linmalari bo'yicha ishning samaradorligini oshirishga;

- ish joylarining tashkil qilinishini takomillashtirishga;

- xodimlar ishini to'g'ri tashkil qilishga;

- keraksiz funksiyalarga ketadigan vaqt va xarajatlarni tejashga;

- pirovardida butun IChTning samaradorligini oshirishga.

Ko'rinish turibdiki, FQT ishlab chiqarish sohasida ham boshqa sohalar singari ma'lum samara beradigan iqtisodiy dastaklardandir. Shu tufayli ushbu dastakdan IChTda ham samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

12.2. IChTda funksional qiymat tahlili uchun obyektni tanlash va shu obyekt bo'yicha ma'lumotlarni to'plash

IChTda ham FQTni o'tkazish bosqichlari umume'tirof etilgan bosqichlardan iborat. Unda eng muhim bosqichlardan biri funksional qiymat tahlili uchun obyektni tanlashdir.

Navbatdagi bosqich shu obyekt bo'yicha ma'lumotlarni to'plashdan iborat.

IChTga kiradigan obyektlar ichidan ham eng zarurlarini tanlab olish lozimdir. Bunda nimalarga ahamiyat berish mumkin?

1. IChTga kiradigan obyektlar ichida FQT uchun zarar bilan ishlayotgan, mahsuloti tezda sotilmayotgan bo'linma olinadi.

2. Mahsulotining tarkibida brak qismi ko'payib ketayotgan sex yoki uchastkalar.

3. Ishlab chiqarishda barqarorlikni yo'qotgan, bir maromda ishlamayotgan bo'linma yoki sexlar.

4. Kadrlar qo'nimsizligi ko'payib ketgan bo'linmalar.

5. Tuzilgan shartnomaning shartlarini buzayotganlar.

6. Xomashyo va materiallarni o'z vaqtida yetkazib kelishga ulgurmayotgan bo'linmalar.

7. Juda ko'p chiqindi chiqaradigan uchastka va sexlar.

8. Ruhiy-axloqiy muhit buzilgan bo'linmalar.

9. Yangi texnologiya o'rnatilishi ko'zda tutilgan sexlar.

10. Ko'p energiya, materiallar, quvvatlar talab qiladigan uchastkalar kabi o'nglanishi lozim bo'lgan bo'linmalar olinishi mumkin.

IChTda FQTni qo'llashdan maqsad uni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zgartirmagan holda xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga erishishdan iboratdir. Bunga o'z vaqtida erishish uchun ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha tegishli axborotlarni to'plash lozimdir.

IChTda FQTni o'tkazish uchun bir qancha ma'lumotlar kerak bo'ladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulotning texnik va iqtisodiy tavsifi;
- uni ishlab chiqaradigan texnologiya haqida axborot;
- unga ketadigan xomashyo va materiallarni olib kelish, saqlash hamda o'z vaqtida qo'llash to'g'risidagi axborotlar;
- ishlab chiqarish jarayoni haqidagi axborotlar;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning navi va unga mos xomashyo hamda materiallarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tegishli ma'lumotlar to'plangach, ular statistik ishlovdan o'tkaziladi. Bunda tahlil qilinayotgan obyekt;

– mehnat jarayoni bo'yicha (qanday mehnat predmetlari va mehnat vositalarini qo'llash kabilar);

– o'lchov birliklari bo'yicha (qiymat, natural, norma-soat kabi);
– vaqt bo'yicha (bir kunlik, bir haftalik, bir oylik, bir choraklik, bir yillik kabilar);

– mahsulotning turlari bo'yicha (assortimentining buyurtmalarga to'g'ri kelishi, shartnomalarning o'z vaqtida tovarning turlari bo'yicha bajarilishi kabilar).

Tahlil natijalari nafaqat mutaxassislarga balki, barcha undan foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi lozim. Chunki, ushbu axborotlardan shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha xodimlar foydalanishlari mumkin. Shu tufayli tahlil natijalari hammaga tushunarli bo'ladigan jadvallar, grafiklar, diagrammalar tarzida berilishi maqsadga muvofiqdir.

IChTning takomillashuvi nafaqat ichki, balki ko'p jihatdan tashqi omillarga ham juda bog'liq. IChTning tashqi omillariga quyidagilar kiradi:

- mehnat bozori;
- xomashyo yetkazib beruvchilar;
- ishlab chiqarish korxonasidagi jihozlarni ta'mirlovchilar;
- unga elektr energiyasi va gaz singari yoqilg'i hamda kuchlantiruvchilarni yetkazib beruvchilar;
- unga transport xizmatini ko'rsatuvchilar;

- uning faoliyatini nazorat qiluvchilar;
- yuqori tashkilotlar;
- bank va shu kabi mazkur ishlab chiqarish tizimiga tashqi ta'sir etuvchilar.

Ishlab chiqarish tizimini FQT o'tkazishda mazkur tashqi omillarning ta'sirini ham inobatga olish lozim va muhimdir. Shu tufayli bular haqida ham tegishli axborotlarni to'plash va ularga ishlov berib, ular orqali tegishli xulosa chiqarish hamda boshqaruva qarorlarini qabul qilish uchun tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

IChT to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish uchun uning tarkibiy va funksional holatini tasvirlashga to'g'ri keladi.

IChTning tarkibiy holatini tasvirlash deganda uning ishlab chiqarish va tashkiliy tarkibini bir-biri bilan bog'liq holda qanday joylashgani, tarkibi, tuzilish shakli kabilarni bir butun tasvirlash tushuniladi.

Bunda IChTga kiruvchi har bir bo'linmaning joylanishi, umumiy maydoni, unda dastgohlarning joylanishi, shu bo'linmaga ajratilgan asosiy maydoni, yordamchi maydoni, bir-biriga o'tish joyi kabilalar tasvirlanadi.

IChTning funksional holatini tasvirlash deganda o'rganilayotgan obyektning bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli funksiyalarini ifodalovchi ishlab chiqarish tizimining holatini ichki hamda tashqi omillar bilan bog'liq holda tasvirlash tushuniladi. IChTning holati bevosita uning ichki va tashqi omillariga bog'liq. Shu tufayli bularni o'rGANISHDA faqat bir qismi bilan chegaralanib qolish mumkin emas.

Bu esa o'z navbatida funksional holatni to'g'ri atroficha tasvirlashni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini (IChX) baholash bir qancha tamoyillarga asoslanadi. Bunda xarajatlar funksiyalar bo'yicha aniqlanadi.

Ushbu holatni baholash uchun «element — holat — funksiya» bog'liqligi inobatga olinadi. Buning mazmuni o'rGANILAYOTGANDA obyektning har bir elementi olinadi, ushbu elementlar qanday

holatda va ular qanday funksiyalarni bajarishi aniqlanadi. Har bir funksiya atroflicha tahlil qilinib, keraksiz va zararli funksiyalar hamda ularga sarflanadigan ortiqcha qilinadigan xarajatlar aniqlanadi va ularni kamaytirish yo'llari ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini baholash deganda, ishlab chiqarishni elementlari bo'yicha taqsimlab, har bir elementning holatini atroflicha o'rganib, ularni funksiyalarga bo'lib, har bir funksiyaga ketadigan xarajatlarni aniqlab, keraksiz va zararli funksiyalarni hamda ularga ketadigan xarajatlarni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish tushuniladi.

Ushbu usul bilan ishlab chiqarish jarayoniga ketadigan xarajatlarning real miqdori aniqlanadi.

12.3. Ishlab chiqarish tizimi faoliyati sifatini baholash

Ishlab chiqarish tizimining samaradorligi va sifati hamda ularni baholash mazkur jarayonni tashkil etishga ham bevosita bog'liq. Bunda butun ishlab chiqarish tizimining ichidan nuqsonli funksiyalar aniqlab olinadi va ular ma'lum belgilari bo'yicha tasniflanadi.

Har bir nuqsonli funksiyalarning sababi va ularni takomillashtirish yoki bartaraf qilish yo'llari yozib chiqiladi.

Bu jarayondagi muhim jihat – ishlab chiqarish tizimining sifatini baholashda miqdor ko'rsatkichlaridan keng foydalilaniladi va sifat ko'rsatkichi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Ishlab chiqarish tizimining sifatini baholash uchun shu tizimni tashkil etish koeffitsiyentidan foydalaniлади.

Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{\text{icht}} = \frac{(A_{vq} \times K_{as} + A_{ymq} \times K_{ay}) \cdot R_h + I_{hf} \times K_k}{(A_{vq} + A_{ymq}) \cdot R_r + I_{hf}}. \quad (12.3.1)$$

Bunda: K_{ichtt} – ishlab chiqarish tizimini tashkil etish koeffitsiyenti;

A_{vq} – asosiy vositalar qiymati;

A_{ymq} – aylanma mablag'lar qiymati;

I_{hf} – ish haqi fondi;

K_{as} , K_{ay} , K_{ik} – mos ravishda asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va ish kuchidan foydalanish koeffitsiyenti;

R_h , R_r – mos ravishda ishlab chiqarish fondlarining haqiqiy va rejadagi rentabellik darajasi.

Ushbu ko'rsatkich ishlab chiqarish tizimida moddiy va mehnat resurslarining natijasi hamda xarajatlari nisbatini, ya'ni samaradorligini ifodalaydi. Shu samaradorlik orqali iqtisodiy ishlar natijasining sifatiga baho berish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarni to'plash va aniqlash unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu esa ularning amaliyotda qo'llanilish imkoniyatini tug'diradi.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida moddiy va mehnat resurslarining yoniga nomoddiy aktivlar ham qo'shildi.

Ular moddiy bo'limasada korxonalar faoliyatining samaradorligi va sifat ko'rsatkichlariga moddiy resurslar singari ta'sir qilmoqda.

Bularni inobatga olib yuqorida keltirilgan formulani takomillashtirish lozimligi ta'kidlanadi va quyidagi takomillashgan variant taklif qilinadi:

$$K_{\text{ichtt}} = \frac{(A_{\text{vq}} \times K_{\text{as}} + A_{\text{ymq}} \times K_{\text{ay}} \times N_{\text{aq}} \times K_{\text{na}}) R_h + I_{\text{hf}} \times K_{\text{ik}}}{(A_{\text{vq}} + A_{\text{ymq}} + N_{\text{ak}}) R_r + I_{\text{hf}}} \quad (12.3.2)$$

Bunda: N_{ak} – nomoddiy aktivlarning qiymati;

K_{na} – nomoddiy aktivlardan foydalanish koeffitsiyenti.

Ushbu formula korxonaning ishlab chiqarish tizimida ishtirot etadigan moddiy va mehnat resurslari bilan birga nomoddiy aktivlarning samaradorligini ham o'z ichiga oladi. Bulardan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

Ishlab chiqarish tizimi (IChT) deganda uni tashkil qilish, boshqarish va natijasini baholash bilan bog'liq jarayonlar, ularning bir-biriga bog'liqligi hamda tartibga solinishini ta'minlovchi tadbirlar majmuasi tushuniladi.

IChTning tarkibiy holatini tasvirlash deganda uning ishlab chiqarish va tashkiliy tarkibini bir-biri bilan bog'liq holda qanday joylashgani, tarkibi, tuzilish shakli kabilarni bir butun tasvirlash tushuniladi.

IChTning funksional holatini tasvirlash deganda o'rgani-
layotgan obyektning bosh, asosiy, yordamchi, keraksiz va zararli
funksiyalarini ifodalovchi ishlab chiqarish tizimining holatini
ichki hamda tashqi omillar bilan bog'liq holda tasvirlash tushu-
niladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash deganda, ishlab chiqarishni elementlari bo'yicha taqsimlab, har bir elementning holatini atroflicha o'rganib, ularni funksiyalarga bo'lib, har bir funksiyaga ketadigan xarajatlarni aniqlab, keraksiz va zararli funksiyalarini hamda ularga ketadigan xarajatlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish tushuniladi.

2. Talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun tavsiya qilingan savollar

1. Funksional qiymat tahlilining ishlab chiqarishda qo'lla-
nilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2. IChTga FQTni qo'llash orqali tahlilchi nimalarga erishishi mumkin?

3. Ishlab chiqarish tizimi (IChT) deganda nimani tushu-
niladi?

4. IChTda funksional qiymat tahlili uchun obyekt qanday
tanlanadi?

5. IChTda FQTni o'tkazish uchun qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?
6. IChTning tarkibiy holatini tasvirlash deganda nima tushuniladi?
7. IChTning funksional holatini tasvirlash degani nima?
8. IChTning tashqi omillariga nimalar kiradi?
9. O'rganilayotgan obyekt bo'yicha ma'lumotlar qanday to'planadi?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni to'liq o'rganadi. Bilishi lozim bo'lgan barcha savollarga yozma ravishda javob yozadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Mazkur mavzu bo'yicha har bir talaba uchtadan ko'rgazmali vosita tayyorlaydi. Bular jadval, chizma, diagramma va formula kabi shakllarda bo'lishi mumkin.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.
4. Ushbu mavzu bo'yicha talaba 3 tadan masala tuzadi va bir-birlariga echishni taklif etishadi.
5. Ushbu mavzu bo'yicha barcha bilimlarini umumlashtirib, uni amaliyotga qo'llash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

4. Mavzularni o'zlashtirish va nazorat gilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konsept yozadi va muallif

garashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishslash uchun savollar va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishslash uchun talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

- mavzu bo'yicha darsda qilgan konspektini o'rghanadi;
- mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
- mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rghanadi va konspekt yozadi;
- o'qituvchi topshirig'iga binoan ushbu mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar, masalalar tayyorlaydi, testlar tuzadi, referat yozadi va uni yoqlaydi;
- yoqlash jarayoni seminar tarzida, fikrlar hujumini qo'llagan holda keng bahs-munozara shaklida o'tkaziladi.

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207—233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiymat tahlilidan foydalanish. 46—75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172—187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231—236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. — Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasini 81—90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

13-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING SAYYOHLIK SOHASIDA QO'LLANILISHI

13.1. Mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishida sayyohlikning roli

Jahon tajribasidan ma'lumki, sayyohlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy salohiyatining rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

Shu tufayli mamlakatimizda ham sayyohlikni rivojlantirish uchun qator ijobjiy ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Sayyohlikning iqtisodiyotdagi o'mni uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi va ish bilan band aholining qancha qismini o'zida mujassam etganligi bilan belgilanadi.

Sohaga bozor munosabatlarining tegishli dastaklari joriy qilindi. Bu sohada ham ko'p mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar shakllandı.

Xullas, mamlakatimizda sayyohlik salohiyat yetarli, uni rivojlantirish uchun hamma shart-sharoitlar, ularning mamlakatimizga kelishi va qabul qilib olish jarayoni, munosib tarzda kuzatish uchun esa tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va ular amalga oshirilmoqda.

Natijada, sayyohlikni rivojlantirishning moddiy, tashkiliy, huquqiy asoslari yaratildi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, mamlakatimizning geografik jihatdan Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashganligi va unda hukm surayotgan siyosiy hamda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimizning noyob diniy-tarixiy obidalarga, o'ziga xos iqlim va tabiiy ko'r kam manzaralarga boyligi, ularning sayyohlik obyektlarga kiritilganligidir.

Uchinchidan, mamlakatimizda qadimiy milliy hunarmand-chiligidizning saqlanib qolganligi va uning bugungi kunda rivoj topayotganligi bo'lsa, to'rtinchidan, sayyohlarning foydalanishlari

uchun tegishli transport vositalari va infratuzilmaning yaratilganligidir.

Beshinchidan, sohani tartibga soluvchi qonunlar va tegishli me'yoriy hujjatlar yaratildi, bu esa o'z navbatida sayyoohlarga kulay sharoitlarning yaratilish imkonini ham berdi.

Biroq, sayyoohlilik sohasida hali bir qancha kamchiliklar borki, ularni bartaraf qilmasdan ushbu sohani talab darajasida rivojlantirib bo'lmaydi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun sayyoohlilik sohasida ham FQTdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, hozirgi paytlarda sayyoohlarga xizmat qilish uchun barcha harakatlar qilinmoqda.

Ammo ularning ko'pi samarasiz bo'lmoqda. Xizmatlarning birinchi galda, o'z vaqtida va sifatli bo'lishini ta'minlash lozim. Shu tufayli qaysi xizmatni qachon bajarish va qanday bajarish masalasini FQTni qo'llagan holda aniqlab tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, sayyoohlilik iqtisodiyotning eng samarali sohalaridan biridir. Ayrim mamlakatlarda eksport daromadining sezilarli qismi sayyoohlilik sohasiga to'g'ri keladi. Masalan, Ispaniya, Avstriya va Gretsiya davlatlarida sayyoohlilikdan olingen daromad barcha eksportdan olinadigan daromadlarning 30 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkich Portugaliyada 20 foizga, Shveysariya va Italiyada 10–12 foizga, Kiprda 52 foizga, Panamada 55 foizga, Gaitida 70 foizga, Yamaykada 30 foizga teng.

Bunday holat mamlakatimizda ham ro'y berishi lozim. Lekin, hozircha mamlakat yalpi ichki mahsulotida sayyoohlilikning ulushi juda kam.

Zero, bizdagi sayyoohlilik salohiyati ushbu sohani cheklanmagan miqdorda rivojlantirish uchun katta imkoniyatga ega. Chet el sayyoohliki respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog'iga, uning valuta tushumlarini to'ldiradigan muhim manbara aylanib bormoqda. Shu sababli shinam mehmonxonalar, kempinglar

qurilishini bundan buyon ham amalga oshiraverish, sayyoqlikning rivojlangan infrastrukturasini shakllantirish, sayyoqlar boradigan joylarni obod qilish bilan shug'ullanaverish kerak. Milliy-tarixiy va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlashni davom ettirish zarur. Bu esa ajnabiy sayyoqlarni jalb etish uchungina emas, balki avvalo xalq qadriyatlarini qayta tiklash, yosh avlodni tarbiyalashda ham alohida ahamiyatga ega».

Mamlakat rahbarining ushbu ko'rsatmasiga asosan yurtimizda sayyoqlik sohasini rivojlantirish bo'yicha qator ijobjiy ishlarni amalga oshirildi.

Biroq, mamlakatimizda sayyoqlik salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha qilingan ishlarni hali talabga to'liq javob bermaydi. Juda ko'p sayyoqlik infratuzilmalar qurildi va qurilmogda. Ammo, ularning shakli xalqaro talablarga javob bersada, uning mazmuni, tashkil etilgan xizmatlar saviyasi hali bunday talablar darajasiga yetishi uchun ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Bizga hozir sayyoqlik bozorda o'z o'rnimizni topishimiz uchun o'zbek xalqining sharqona mehmondo'stligiga g'arb mamlakatlarining tajribasi va xizmat standartlarini uyg'unlash-tirgan holda ish olib borishimizni taqozo qiladi. Bunga erishishning yo'llaridan biri ushbu sohaga FQTni qo'llashdan iboratdir.

Mamlakatimizda sayyoqlik mustaqillik yillarda keskin o'sish sur'atiga ega bo'ldi. Bu xorijiy sayyoohlarning mustaqil mamlakatimizga qiziqishidan dalolat beradi.

Ushbu holatning umumiy sabablari bor albatta. Lekin shunday sabablarni ham borki, ularni oddiy kuzatish bilan aniqlash qiyin.

Ularni aniqlash FQTdan keng foydalanishni taqozo qiladi. Bunda FQT bilan shug'ullanadigan ijodiy guruh sayyoohlarning nima uchun kamayish sabablarni alohida yozib chiqadi. Shu sabablarni ham funksiyalarga bo'lib o'rganadi. Buni aniqlashda ekspertlar xulosalari bevosita sayyoqlardan olingen anketa orqali

to‘plangan sabablar bilan boyitiladi. Bu holatda ijodiy guruh albatta tadqiqot olib borishi lozim.

Ma‘lumki, sayyoohlar ikkiga bo‘linadi: kelgan sayyoohlar va kuzatilgan sayyoohlar. Keladigan sayyoohlarning o‘zgarishi bir qancha tashqi va ichki omillarga bog‘liq.

Lekin jo‘natiladigan sayyoohlarning soni ko‘pincha ichki omillar bilan bog‘liqdir.

Bulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish va xorijlik sayyoohlarni jalb qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Bunday holatda ham FQTdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

13.2. Sayyoohlikni rivojlantirishda FQTdan foydalanish

Har bir sohani rivojlantirishda FQTdan foydalanish yaxshi samara berishi jahon amaliyotidan ma’lum. FQTdan foydalanish sayyoohlik sohasida ham samarali dastaklardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sayyoohlikni rivojlantirishda FQTdan foydalanishning afzalliklari deganda mazkur sohada xizmatlarning soni, sifatini oshirish evaziga narxlarni kamaytirish orqali sayyoohlarni mamlakatimizga ko‘proq jalb qilish tadbirlarining ishlab chiqilganligi tushuniladi.

Biroq, FQTni sayyoohlik sohasida qo‘llash bo‘yicha birorta adabiyot chop etilmagan. Bunday holat xorijiy mamlakatlarga ham tegishli. Chunki, internetdan axtarib ko‘rilganida ham unga kiritilgan adabiyotlar ro‘yxatida sayyoohlikda FQTni qo‘llash bo‘yicha nashr qilingan adabiyotni topish mumkin emas. Shu tufayli mazkur muammo o‘ta dolzarb va shu bilan birga juda murakkab muammodir.

Ammo, ushbu muammoning yechimi bugungi kunda mamlakatimiz uchun juda muhimdir. Zero, sayyoohlikni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun katta foya keltirish bilan birga bizning tariximiz va qadriyatlarimizni xorijiy mamlakatlarga tanitadi. Sayyoohlik bulardan tashqari, madaniyat va ma’rifatni

yetaklovchi, ularni bir mamlakatdan ikkinchisiga tashuvchi vosita hamdir.

Sayyohlikda FQTni qo'llashni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borish maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy sayyoohlarni mamlakatimizga jalb qilish yo'llarini ishlab chiqish uchun;
- MDH mamlakatlaridan turli yo'llar bilan sayyoohlarni jalb qilishni takomillashtirish uchun;
- mamlakatimiz ichkarisida ularni faollashtirish uchun;
- barcha sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning turlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun;
- xizmatlarning sifatini oshirish uchun;
- xizmatlarning tannarxini kamaytirish va narxini arzonlash-tirish evaziga sayyoohlarni mamlakatimizga ko'proq jalb qilish uchun;
- sayyohlik obyektlarning jozibadorligini oshirish va ularning reklamasini, ayniqsa, xorijiy mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yish uchun;
- har bir sayyohlik obyektda turli xizmatlarni tashkil qilib xorijiy valuta tushumlarini imkon qadar ko'paytirish uchun kabi tadbirlarni takomillashtirish.

FQTda shu har bir keltirilgan yo'nalishlar bo'yicha funksiyalar aniqlanadi. Ular odaddagidek tasniflanadi, ya'ni bosh funksiya, asosiy funksiya, yoramchi funksiya, keraksiz funksiya, zararli funksiya. Bajarilayotgan keraksiz va zararli funksiyalarini bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqiladi.

FQTni sayyohlik sohasida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, mazkur sohaning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar ham bat afsil o'rganiladi va ularni yaxshilash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Ushbu omillar biz yuqorida keltirilgan yo'nalishlar ichidagi funksiyalarga kirmagan bo'lishlari ham mumkin.

Eng muhimi, FQTni har bir yo'nalish bo'yicha qo'llashda funksiyalarini aniq belgilab olish juda katta ahamiyatga ega. Bunda

funksiyalar aniq belgilanib olinishi lozim. Unda takror ham bo'lmaslik kerak va chala ifodalangan ham bo'lmasligi lozim.

Masalan, barcha sayyoohlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning turlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan funksiyalarni olaylik.

Bularning ichida sayyoohlarni kutib olish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar mavjud.

Ularni quyidagicha nomlash mumkin:

- kutib olishga chiqadigan shaxslar;
- sayyoohlarni non-tuz bilan kutib oluvchi;
- non-tuzni ushlab turadigan shaxslar;
- non-tuzni qayerdan va kim sotib oladi;
- kutib olishga necha kishi chiqadi;
- samolyotdan yoki poyezddan bojxona postiga qanday olib kelinadi;
- sayyoohlarning yuklarini ko'tarishga kimlar jalb qilinadi;
- bojxonada rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi;
- mehmonxonaga qanday transport bilan jo'natiladi;
- mehmonxonaga rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi;
- bu yerda kutib olishda sayyoohlarning yuklarini xonalargacha joylashtirish lozim bo'lsa yuk ko'taradiganlar bormi;
- ushbu xizmatlarning qaysisi pullik va qaysisi bepul amalga oshiriladi;
- pullik xizmatlarni sayyoohlarga qanday yo'llar bilan ma'lum qilinadi;
- aeroportdan yoki vokzaldan kelguncha gid kerakmi yoki yo'qmi;
- gid kerak bo'lsa, u qayerdan jalb qilinadi va hokazo.

Mazkur funksiyalarning ehtimol sayyoohlarni kutib olish va mehmonxonaga olib kelib joylashtirishi uchun ayrimlari kerak-sizdir.

Biroq, sayyoohlар uni talab qilsa va ushbu xizmatlar uchun qo'shimcha xizmat haqi to'laydigan bo'lsa, albatta ularni tashkil qilish lozim. Talab qilinadigan qo'shimcha xizmatlar uchun

mehmonlarni kutib olish va kuzatish jarayonida yordam beradigan xodimlarning shay turishini ta'minlash ham maqsadga muvo-fiqdir.

FQTning muhim talablaridan biri uni amalga oshirishda har bir funksiyaning ma'lum ma'noda o'lchamga ega bo'lishligini ta'minlashdan iborat.

Funksiyalarning o'lchamliligi ularga ketadigan xarajatlarning miqdorini aniqlash imkonini ham berishidadir. Har bir funksiyaga ketgan xarajatlar pul miqdorida yoki vaqt miqdorida aniqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vaqt miqdorida aniqlangan ko'rsatkichlarni pulga aylantirish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Funksiyalarning pulda ifodalanishi har bir funksiyaning qancha turishini, ularning sifatga ta'siri va tannarxni qanday o'zgartirishi mumkinligi kabi masalalarni aniqlashda ham qo'llaniladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta'riflari

Sayyohlikning iqtisodiyotdagи o'rni uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi va ish bilan band aholining qancha qismini o'zida mujassam etganligi bilan belgilanadi.

Sayyohlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy omillarga uni rivojlanishini jadallashtiruvchi omillar kiradi.

Sayyohlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi salbiy omillarga mazkur sohaning rivojlanishiga to'siq bo'ladigan omillar kiradi.

Mamlakatimizda sayyohlikni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari deganda sayyohlikning alohida turlari bo'yicha ma'lum bir davr mobaynida qanday o'zgarayotganligi tushuniladi.

Sayyohlikni rivojlantirishda FQTdan foydalanishning afzalliklari deganda mazkur sohada xizmatlarning soni, sifatini oshirish evaziga narxlarni kamaytirish orqali sayyohlarni mamlakatimizga ko'proq jalb qilish tadbirilarining ishlab chiqilanligi tushuniladi.

Sayyohlikda ham FQTdan foydalanilganda funksiyalar 5ta turga bo'linadi: bosh funksiya, asosiy funksiya, yordamchi funksiya, keraksiz funksiya va zararli funksiya.

2. Talabalarning «Funksional qiymat tahlilining sayyohlik sohasida qo'llanilishi» mavzusi bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun mo'ljallangan savollar

1. Mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishida sayyohlikning roli qanday?
2. Sayyohlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy omillar nimalardan iborat?
3. Sayyohlikning rivojlanishiga ta'sir ctuvchi salbiy omillar nimalardan iborat?
4. Mamlakatimizda sayyohlikni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari nimalardan iborat?
5. Sayyohlikning umumiy rivojlanish tendensiyasiga tavsif bering.
6. Xorijiy sayyoohlarning mamlakatimizga kelishi qanday?
7. MDH mamlakatlardan sayyoohlarning kelish tendensiyasini izohlab bering.
8. Sayyohlikni rivojlantirishda FQTdan foydalanishning afzaliliklari nimalardan iborat?
9. Sayyohlikda FQTni qo'llashni qaysi yo'nalishlar bo'yicha olib borish mumkin?
10. Sayyoohlarni kutib olish jarayoni bilan bog'liq funksiyalar nimalardan iborat?

3. «Funksional qiymat tahlilining sayyohlik sohasida qo'llanilishi» mavzusi bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruza va chop etilgan adabiyotlarni to'liq o'rganadi. Bilishi lozim bo'lgan barcha

savollarga yozma ravishda javob yozadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.

2. Mazkur mavzu bo'yicha har bir talaba 3 tadan ko'rgazmali vosita tayyorlaydi. Bular jadval, chizma, diagramma va formula kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.

4. Ushbu mavzu bo'yicha talaba 3 tadan masala tuzadi va bir-birlariga yechishni tavsiya etishadi.

5. Ushbu mavzu bo'yicha barcha bilimlarini umumlashtirib, uni amaliyotga qo'llash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

4. «Funksional qiymat tahlilining sayyohlik sohasida qo'llanilishi» mavzusini o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilgan bo'lsa, konsept yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. «Funksional qiymat tahlilining sayyohlik sohasida qo'llanilishi» mavzusi ustida talabaning mustaqil ishlashi uchun savollar va ularni nazorat qilish va baholash usullari

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishlash uchun talaba quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

- mavzu bo'yicha darsda qilgan konspektini o'rganadi;
 - mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
 - mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt yozadi;
 - o'qituvchi topshirig'iga binoan ushbu mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar, slaydlar, masalalar tayyorlaydi, testlar tuzadi, referat yozadi va uni yoqlaydi;
 - yoqlash jarayoni seminar tarzida, fikrlar hujumi va evristik tahlil usullarini qo'llagan holda keng bahs-munozara shaklida o'tkaziladi.

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

•FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING SAYYOHLIK SOHASIDA QO'LLANILISHI• MAVZUSI BO'YICHA FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mouseeva N.K.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariysi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiymat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining umarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

14-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING BOSHQARUVDA QO'LLANILISHI

14.1. FQTning boshqaruvdag'i vazifalari

FQT barcha sohalarda qo'llaniladi. Shu jumladan, boshqaruv sohasida ham muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin. Boshqarish FQTning obyekti sifatida qabul qilinsa, uning hammasi yoki bir qismi olinishi mumkin. Boshqaruvning alohida qismlariga faoliyatni rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tahlil qilish, turli tadbirlar o'tkazish kabilalar kiradi.

Bunday jarayon boshqaruvning quyi bo'g'inida ham, yuqori bo'g'inida ham sodir bo'lishi mumkin.

FQTning boshqarishdagi vazifasi deganda uning obyekti sifatida qabul qilingan predmeti yoki jarayonning hamma tarafi yoki alohida qismlariga, ya'ni faoliyatni rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tahlil qilish, turli tadbirlarni o'tkazishga mo'ljallangan xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Bularning hammasi boshqaruvni doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo qiladi. Bunga esa faqat FQTni joriy qilish orqali erishiladi. Agar boshqaruvga FQT joriy qilinsa, uning samaradorligi bir necha bor oshishi tayin. Shulardan kelib chiqib, FQTning boshqaruvdag'i vazifasini quyidagicha belgilash mumkin bo'ladi:

- boshqaruvda turli keraksiz va zararli funksiyalarni bartaraf qilish evaziga uning samaradorligini oshirish;
- boshqaruvni takomillashtirish evaziga butun ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) samaradorligini oshirish;

- zarar bilan ishlayotgan korxonalarga barham berish, zararning oqibatlarini chuqr o'rganish bilan birga, ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish;
- boshqaruvni takomillashtirish orqali korxonalar raqobat-bardoshligini oshirish;
- mahsulotning sifatini ko'tarish orqali uning ham raqobat-bardoshligini oshirish;
- mahsulotning eksportga chiqishini ko'paytirish;
- boshqaruvga ketadigan xarajatlar va boshqaruvda band bo'lgan xodimlarni muttasil ravishda kamaytirib borish;
- boshqaruvning u yoki bu sohasini (moddiy va mehnat resurslariga ketadigan xarajatlarni kamaytirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, kadrlar oqimini barqarorlashtirish, demokratik tamoyillarni joriy qilish, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash kabilarni) takomillashtirish.

FQTning ushbu vazifalarini bajarish uchun albatta FQT bilan shug'ullanadigan doimiy yoki birorta vazifani bajarishga mo'ljalangan muvaqqat guruhni tashkil qilish lozim. Ushbu guruh tarkibida, ta'kidlanganidek, turli mutaxassislar, ayniqsa qaysi soha o'rganilayotgan bo'lsa, o'sha soha xodimlari albatta bo'lishlari shart.

14.2. FQTni boshqaruvda qo'llaniladigan usullar

Boshqarishda bir qancha bo'linmalar mayjudligini inobatga olish lozimdir. Masalan, korxonaning bo'linmalarini olaylik. Bunga kadrlar bo'limi rahbariyati, iqtisodiyot bo'limi rahbariyati, xo'jalik bo'limi rahbariyati, ishlab chiqarish bo'limi rahbariyati, moliya bo'limi rahbariyati, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi rahbariyati kabilarni kiritish mumkin. Bularidan tashqari, korxonaning rahbari, uning bir qancha o'rinnbosarlari va bevosita unga bo'ysunadigan bo'linmalar rahbarlari ham mavjuddir.

Bularning faoliyatini baholash, ularning har biridan samarali foydalanish uchun ular bajaradigan funksiyalarni batafsil

o'rganishni taqozo qiladi. Maqsad, ularning vaqtini va kuchini oladigan ko'pgina keraksiz hamda zararli funksiyalarni aniqlab, ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqib, tegishli natijalarga erishishdan iboratdir.

FQTning boshqaruvda qo'llaniladigan usullar deganda korxonadek murakkab organizmning barcha taraflarini rejalash-tirish, uning bajarilishini nazorat qilish va natijani baholashda qo'llaniladigan usullar majmuasi tushuniladi.

Bularni o'rganish uchun tegishli axborotlar, me'yoriy hujjatlar, texnik tavsiflar, tahliliy usullar, qonuniy hujjatlar kabi eng kerak narsalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday hujjatlar boshqaruvchilarining funksiyalarini aniqlash va baholash imkonini beradi.

O'rganilayotgan obyektda bajarilayotgan funksiyalarni tasnif-lash uchun ularning har birini alohida ifodalab oladi. Bu uchun 14.1-jadvalni tuzish mumkin.

14.1-jadval

Korxona rabbarining bajaradigan

funksiyalari tavsifi

T/r	Funksiyalarning nomi		Funksiyalar-ning turi A – asosiy, Yo – yordamchi, N – keraksiz	I z o h
	Nomi	Nimaga qaratilganligi		
1	Tezkor yig'ilish	Umumiy topshiriqni berish	A	Bajarilishini rahbarning o'zi nazorat qiladi
2	Bo'linma rahbarlari bilan alohida gaplashish	Har bir bo'limning xususiyatini inobatga olgan holda alohida topshiriq berish va shu bo'limdagи vaziyatni baholash	A	Bajarilishini rahbarning o'zi nazorat qiladi

3	Ishning ketishini nazorat qilish	Ishning maromiyligini ta'minlash	A	Bajarilishini rahbarlang o'zi nazorat qiladi
4	Telefonda ish yuzasidan gaplashish	Joyida masalani hal qilish	A	Nazarat talo'q qilmaydi
5	Telefonda ishga aloqasi bo'lmagan kishilar bilan gaplashish	Odob nuqtai nazaridan boshqa kishilarga javob berish, oilaviy va shaxsiy tashvishlar	N	Nazarat talo'q qilmaydi
6	Ish vaqtida bekor o'tirish	Ishni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil qila olmaganligi	N	Buhjat barturif qilindi
7	Korxonaga daxli bo'lmagan majlisga borish	Turli tashkilotlar, mahalliy hokimiyat bilan aloqani buzmaslik	N	Nazarat talo'q qilmaydi
8	Korxona faoliyatiga daxldor bo'lgan majlisga borish	Yuqori yoki boshqaruvchi tashkilotlardan tegishli topshiriqlarni olib kelish	Yo	Bajarilishini rahbarlang o'zi nazorat qiladi
9	Tushlikda ovqatlanish	Kuch to'plab olish	Yo	Nazarat talo'q qilindi
10	Turli mehmonlarni kutib olish	Korxonaga kerak, keraksiz mehmonlar tashrif buyuradiganlarning maqsadini aniqlash va shunga qarab	Yo	O'zi sifroq etadi

11	O'zi taklif qilgan mehmonlarni kutib olish	Korxona faoliyati uchun zarur bo'lgan mehmonlar bilan hamkorlik qilish	Yo	O'zi ishtirok etadi
12	Tashqaridan kelgan rasmiy odamlarni (jurnalistlar kabi) kutib olish	Korxonaga o'z maqsadini ko'zlab kelgan odamlarga vaqt ajratish	N	O'zi ishtirok etadi
13	Turli xatlariga javoblar tayyorlash	Korxonaning tashqi hamkorlari bilan aloqani mustahkamlash	A	O'zi ishtirok etadi
14	Kelgan pochta bilan tanishish va uni tegishli bo'linmalar bo'yicha taqsimlash	Korxonani boshqarishni takomillashtirish	Yo	O'zi ishtirok etadi

Izoh. Rahbar faoliyatining bir qismigina misol tariqasida olindi. Uning faoliyatini ushbu misolda keltirilgan funksiyalar bilan cheklamaslik lozim.

Ushbu funksiyalarni o'r ganishda tahlilchi FQTda qo'llaniladigan barcha usullardan («fikrlar hujumi», evristik tahlil, ekspert usuli, korrelyatsiya, regressiya kabi usullar) foydalanishlari mumkin.

FQTni amalga oshirishda har bir funksiyaning qanday, qachon va nima uchun amalga oshirilishini bilish lozimdir. Chunki shularni bilmasa mazkur funksiyalarni muhimligi jihatidan taysiflab ham, tasniflab ham bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida,

boshqarishni takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi.

Boshqarish jarayoni bir qarashda juda oddiydek tuyulishi mumkin. Ammo u shunday murakkabki, ularning birorta funksiyasini bir-biridan ayri holda o'rganish qiyin. Shu tufayli barcha funksiyalar yaxlit bir tizim deb qaraladi va ularni o'rganish uchun tizimli yondoshiladi.

14.3. Rahbarning boshqaruv uslubi va unda FQTdan foydalanish

Korxona, firma yoki bank ishining samaradorligi ko'p hollarda rahbarning ish uslubiga bog'liq. Rahbar o'ziga xos shaxs bo'lganidek, uning ish uslubi ham o'ziga xos ko'pqirralidir.

Rahbarning ish uslubini tahlil qilganda uning boshqaruv uslubini umuman ish uslubidan farq qilishi lozim. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Uslub deganda har bir kishining, shu jumladan rahbarning ishlashi, boshqaradigan o'ziga xos yo'li yoki usuli tushuniladi. Boshqaruv uslubi esa bunga nisbatan kengroq ma'noga ega.

Boshqaruv uslubi deganda rahbarning boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan turli muomalalarni har xil usullar bilan hal qilish yo'llarining majmuasi tushuniladi. Masalan, bank boshqaruvchisi bankni boshqarish jarayonida naqd pul taqchilligiga duch keldi deylik. Naqd pulga talab ko'p, lekin taklif oz. Bunda u tezkorlik bilan naqd pulni ko'paytirish uchun tegishli qaror qabul qilishi lozim. Bu muammolarni turli boshqaruvchilar turlicha o'ziga xos uslubda hal qiladi.

Ish uslubi deganda rahbarning boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish uchun qo'l ostidagi xodimlarining aniq vazifalarni bajarishni ta'minlashi tushuniladi. Masalan, firmanın yoki bankning umumiyligi ishini samarali boshqarish uchun rahbar tomonidan ishlar shunday taqsimlanishi kerakki, uning qo'l ostidagi xodimlardan birortasi umumiyligi ishdan chetda qolib

ketmasligi lozim. Ishning umumiy muvaffaqiyatida ham, muvaffaqiyatsizligida ham har bir xodimning hissasi aniq bilinib turadigan bo'lishi kerak.

Buni tashkil qilish rahbarning mahoratiga, bilimi, saviyasi va rahbarlik tajribasiga bog'liq.

Shu tufayli bu soha ham juda ko'p qirrali, murakkab va turli yechimga ega bo'lgan sohadir.

Rahbarning ish uslubi deganda boshqaruv jarayonida vujudga kelgan muammoni o'ziga xos tarzda hal qilish usuli tushuniladi. Bunda umumiy qoidalar bo'lishi mumkin. Ammo har bir rahbarning o'z salohiyatidan kelib chiqib hal qiladigan ish uslublari bor. Bular bir-biriga o'xshamasligi va bir-birini takrorlamasliklari tabiiy.

Rahbar ish uslubining turli bo'lishiga yana bir sabab rahbarlar mavqeい, rahbarlik ko'lami jihatidan ham turli toifaga, huquqqa ega bo'lishi mumkin.

Biri 100 kishilik jamoani boshqarsa, ikkinchisi 500 kishilik, uchinchisi esa 1000 kishilik jamoani boshqarishi mumkin. Tabiiyki, bunday holda uchalasi bir xil boshqaruv usulini qo'llab, bir xil samaraga erisha olmaydi. Shu jihatdan ularning har birida o'ziga xos ish uslubi bo'lishi lozim.

Ikkinci yana bir yo'nalishni ko'raylik. Masalan, bir rahbar 100 kishi ishlaydigan bankni boshqaradi, ikkinchisi 100 kishi ishlaydigan ishlab chiqarish firmasini boshqarsa, uchinchi shaxs 100 kishi ishlaydigan savdo korxonasini boshqarishi mumkin. Bu yerda boshqariladigan odamlar soni bir xil.

Ammo soha har xil bo'lganligi tufayli bu erda ham bir xil ish uslubi bilan yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Bundan ham ko'rinish turibdiki, har bir rahbarning o'ziga xos ish uslubi bo'lishi kerak ekan.

Rahbarning boshqaruv usuli va boshqaruv uslubini farqlamoq lozim.

Rahbarning boshqaruv usuli deganda umum e'tirof etilgan boshqaruv usullari tushuniladi.

Rahbarning boshqaruv uslubi deganda esa, har bir rahbarning o'zi rahbarlik qilib turgan obyektini o'ziga xos tarzda boshqaruv usullari majmuasi tushuniladi.

Bularga misol qilib turli transport vositalarining harakatini olish mumkin. Hammasi harakatlanishi uchun bir xil yondoshuv, ularni haydash kerak.

Lekin katta yuk mashinasi bilan yengil mashinani, yuk mashinasi bilan yuk traktorini, yengil mashinalarning ham turli rusumdagilarini haydovchilar o'ziga xos uslubda harakatlantiradilar. Bular usul va uslublarni tashkil qilib bir-biridan farq qiladi.

Rahbarlar o'z jamoasini boshqarishda turli vosita va dastaklardan foydalanadilar. Ushbu dastaklar umumiyl dastaklardir. Ulardan ham turlicha foydalanish mumkin. Masalan, boshqaruvning iqtisodiy usulini qo'llab ishlaydigan rahbarlar ham turlicha yondoshishlari mumkin. Biri xodimlarni haftalik ish natijasi bilan rag'batlantirsa, ikkinchisi oylik natija bilan, uchinchisi yilning choragi bo'yicha rag'batlantirishi mumkin. Bularning qaysi, qachon samara berishiga, rahbar o'z tashkilotining iqtisodiy imkoniyatiga, bugungi vaziyatga qarab tanlashi lozim.

Bulardan bitta xulosa, ya'ni har bir rahbar o'zicha usullarni qo'llar ekan, ularning faoliyatini bir-biridan keskin farq qiladi degan xulosaga kelinmaslik kerak. Rahbarlikning umumiyl qonun-qoidalari ham borki, ular hammaga xos bo'lib, undan hech kim uzoqlashib keta olmaydi. Masalan, hamma rahbarga xos ayrim jihatlarni keltiramiz.

Bularga rahbarning:

- 1) ishchanligi;
- 2) yetakchiligi;
- 3) sohani bilishi;
- 4) tadbirkorligi;
- 5) tashabbuskorligi;
- 6) intiluvchanligi;

7) o‘z obyektini yaxshilash istagi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Rahbarlarning bu xislatlari hammaga dahldor, hammada bo‘lishi mumkin bo‘lgan xislatlardir.

Rahbarlarning boshqaruvda turli usullardan foydalanishiga sabab ularning inson sifatidagi tabiatiga ham bog‘liq.

Ma’lumki, fan insonlarni tabiatiga ko‘ra 4 ta guruhga bo‘lgan. Bularga:

- A) sangviniklar;
- B) flegmatiklar;
- D) xoleriklar;
- E) melanxoliklar kiradi.

Ushbu inson tabiatining ayrim jihatlarini keltiramiz. Bu boroda M.Sharifxo‘jayev va Yo.Abdullayevlarning «Menejment» darsligida (209–210 betlar) keltirilgan (14.1-chizma).

Rahbarlarning tabiati turli xil bo‘lganligi tufayli vaziyatni ham ilg‘ab olishi, qaror qabul qilishi, boshqaruv uslubi va tezkorligi ham turlichadir.

Bu esa boshqarilayotgan obyektda ishning samaradorligiga katta ta’sir qiladi.

Bank boshqaruvchisi ish uslubining o‘ziga xos xususiyatlari bevosita bank faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Hozirgi sharoitda bir qancha banklar paydo bo‘ldiki, ular o‘rtasida raqobat muhiti yaratilmoqda.

Ammo bu muhitning sog‘lom va ta’sirchan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Bank rahbarlari ish uslubining o‘ziga xos xususiyatlari ham boshqa rahbarlar singari 3 guruhga bo‘linadi:

- Avtokratik rahbar;
- Liberal rahbar;
- Demokratik rahbar.

Ularning ish uslublari turlichadir. Masalan, jamoa bilan til topishida, uni boshqarishda:

Avtokratik rahbar – buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag‘batlantirishda jamoa fikrini

Rahbar tabiatি

Sangviniklar

kishilar bilan tez til topishadi; bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadi; bir turda bajariladigan ishlarni yoqtirmaydi;
yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi;
xushchaqchaq; harakatlari shiddatli;
nutqi tez; kelajakka ishonch bilan qaraydi;
so'zini aniq va ma'noli qilib imo-ishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Flegmatiklar

ta'sirchanligi sust bo'ladi;
bir turdag'i ishdan ikkinchi turdag'i ishga sekinlik bilan ko'chadilar; faolliklari kam;
yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi;
harakatlari va nutqlari sust;
ko'ngilsiz hodisa yuz berganda osoyishtaliklarini buzmaydilar;
sabr-toqatli, chidamli bo'lib, so'zlaganda xotirjam,
o'zga shaxslar bilan hayajonlanmay gaplashadilar.

Xoleriklar

ko'tarinki ruxda ishlaydi;
qarshiliklarni yenga oladi;
ishlash zavqi kayfiyatiga bog'liq bo'ladi; serjahl;
o'zini yaxshi ko'radi;
tez gapiradi; to'g'ri so'z.

Melanxoliklar

o'ta ta'sirlanuvchi xususiyatga ega;
tez toliqadigan va o'ziga ishonmaydigan;
tashvishsiz, lekin juda sezuvchi;
nihoyatda arazchan;
juda oz kuladigan;
faolligi sust, tortinchoq, kam g'ayratli; arzimagan sabablarga ko'zlaridan yosh oqib ketaveradigan;
kishilar bilan qiyn til topishadi.

14. I-chizma. Rahbar tabiatи va ularning tasmifi.

inobatga olmaydi, o‘ziga ishongan bo‘ladi va o‘zini jamoada ustun qo‘yadi.

Liberal rahbar — buyruq chiqarishda, qaror qilishda, xodimlarga jazo berishda juda ehtiyotkor, hech bir xodim bilan aloqani buzishni xohlamaydi. Irodasi va tashabbusi sust kishilardir.

Demokratik rahbar — buyruq chiqarishda, qarorlarni qabul qilishda, xodimlarga jazo berish va rag‘batlantirishda jamoa fikriga tayanadi hamda u bilan hisoblashadi.

Jamoada ishonch va o‘rtoqlik, hamkorlik hamda hamjihatlik muhitini yaratadi.

Bunday rahbarlar o‘z faoliyatida juda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Banklar faoliyatini boshqarishda rahbar ayrim jihatlarda avtokratik bo‘lish bilan birga demokratik ham bo‘lishi lozim. Lekin rahbar qaysi masalada qanday bo‘lish lozimligini aniq bilishi lozim. Bu albatta rahbarlardan yuqori malaka, bilim va tajriba talab qiladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta’riflari

FQTning boshqarishdagi vazifasi deganda uning obyekti sifatida qabul qilingan predmeti yoki jarayonning hamma tarafi yoki alohida qismlariga, ya’ni faoliyatni rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tahlil qilish, turli tadbir-larni o‘tkazishga mo‘ljallangan xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

FQTning boshqarishda qo‘llaniladigan usullari deganda korxonadek murakkab organizmning barcha taraflarini rejalashtirish, uning bajarilishini nazorat qilish va natijani baholashda qo‘llaniladigan usullar majmuasi tushuniladi.

Uslub deganda har bir kishining, shu jumladan rahbarning ishlashi, boshqaradigan o‘ziga xos yo‘li yoki usuli tushuniladi.

Boshqaruv uslubi deganda rahbarning boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan turli muomalalarni har xil usullar bilan hal qilish yo'llarining majmuasi tushuniladi.

Ish uslubi deganda rahbarning boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish uchun qo'l ostidagi xodimlarining aniq vazifalarni bajarishini ta'minlashi tushuniladi.

Rahbarning ish uslubi deganda boshqaruv jarayonida vujudga kelgan muammoni o'ziga xos tarzda hal qilish usuli tushuniladi.

Rahbarning boshqaruv usuli deganda umum e'tirof etilgan boshqaruv usullari tushuniladi.

Rahbarning boshqaruv uslubi deganda esa har bir rahbarning o'zi rahbarlik qilib turgan obyektini o'ziga xos tarzda boshqaruv usullari tushuniladi.

Boshqaruvining iqtisodiy usuli eng samarali usul bo'lib, xodimlarning moddiy manfaatdorligi bevosita o'zlarining faoliyatiga bog'liq holda o'rnatilgan usuldir.

Ma'muriy buyruqbozlik usuli xodimlarning faoliyati asosan rahbarlar buyrug'i va ko'rsatmalarini bajarishga qaratilgan, tashabbus ko'rsatishga qiziqish uyg'otmaydigan samarasizroq usuldir.

Avtokratik rahbar boshqarishni buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag'batlantirishda jamoa fikrini inobatga olmaydi, o'ziga ishongan va o'zini jamoadan ustun qo'yadigan rahbardir.

Liberal rahbar deganda buyruq chiqarishda, qaror qilishda, xodimlarga jazo berishda juda ehtiyyotkor, hech bir xodim bilan aloqani buzishni xohlamaydigan, irodasi va tashabbusi sust rahbarlar tushuniladi.

Demokratik rahbar buyruq chiqarishda, qarorlarni qabul qilishda, xodimlarga jazo berish va rag'batlantirishda jamoa fikriga tayanadigan va u bilan hisoblashadigan hamda jamoada ishonch va o'rtoqlik, hamorlik va hamjihatlik muhitini yaratadigan rahbardir.

2. Talabalarning «Funksional qiymat tahlilining boshqarishda qo'llanilishi» mavzusi bo'yicha bilishi lozim bo'lgan va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun mo'ljallangan savollar

1. FQTning boshqarishdagi vazifalari nimalardan iborat?
2. FQTni boshqarishda qo'llaniladigan usullar haqida nimalar bilasiz?
3. Korxona rahbarining bajaradigan funksiyalarini tavsifi izohlang.
4. Rahbarning boshqaruv uslubi va unda FQTdan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
5. Uslub deganda nima tushuniladi?
6. Boshqaruv uslubini tushuntirib bering.
7. Ish uslubi nima?
8. Rahbarning ish uslubi deganda nima tushuniladi?
9. Rahbarning boshqaruv uslubi nima?
10. Boshqaruvning iqtisodiy usuli qanaqa usul?
11. Ma'muriy buyruqbozlik usuli qanday usul?
12. Avtokratik rahbar qanaqa rahbar?
13. Liberal rahbarchi?
14. Demokratik rahbar deganda qanday rahbar tushuniladi?

3. «Funksional qiymat tahlilining boshqarishda qo'llanilishi» mavzusi bo'yicha amaliy masalalar va topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni to'liq o'rganadi. Bilishi lozim bo'lgan barcha savollarga yozma ravishda javob yozadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.
2. Mazkur mavzu bo'yicha har bir talaba 3 tadan ko'rgazmali vosita tayyorlaydi. Bular jadval, chizma, diagramma, formula kabi shakllarda bo'lishi mumkin.
3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.

4. Ushbu mavzu bo'yicha talaba 3 tadan masala tuzadi va bir-birlariga yechishni tavsiya qiladilar.

5. Ushbu mavzu bo'yicha barcha bilimlarini umumlashtirib, uni amaliyotga qo'llash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi va shu qabul qilgan qarorini asoslab beradi.

4. «Funksional qiymat tahlilining boshqarishda qo'llanilishi» mavzusini o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar echadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etilib qolguday bo'lsa konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. «Funksional qiymat tahlilining boshqarishda qo'llanilishi» mavzusi ustida mustaqil ishlash uchun savollar va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishlash uchun talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

- mavzu bo'yicha darsda yozgan konspektini o'rganadi;
- mavzu bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadi;
- mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt yozadi;
- o'qituvchi topshirig'iga binoan ushbu mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar, slaydlar, masalalar tayyorlaydilar, testlar tuzadi, referat yozadi va uni yoqlaydi;

— yoqlash jarayoni seminar tarzida, fikrlar hujumi va evristik tahlil usullarini qo'llagan holda keng babs-munozara shaklida o'tkaziladi.

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi hamda berilgan topshiriqlarni qanday bajarganligiga ham qaraladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

J. F. "Institut" 1980, "Muzey av 'Muzey' u'zumidan" 1980
zorilang.

— qurʼayʼan qurʼas-sahihidagi suzerin zo suzer, sonda zillat, shayʼidde qoqitishgoy qifsha abusor talakam. 1980 yilga yangibor surʼatida jaslam. 1979 yilnomi talab peʼezingiziga qalʼamida misʼetidagi qurʼay zillati uchun nisʼatiga qoʻllanishiga qoʼsildi. 1980 yilning 100 ballik tizim uchun qurʼay

J. M. "Karakalpaq xalʼiylar chʼonida qurʼay yozmasi?" 1980
zorilang. Zorilayotgan qurʼayni qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. B. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay uchun" 1980
zorilang. Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay uchun. Hafʼiylar
zorilang. Zorilayotgan qurʼayni qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. L. "Qurʼayli?" 1980
zorilang.

J. G. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. S. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. T. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. A. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. B. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. C. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

J. D. "Qurʼayning qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun
uchun qurʼayli uchun qurʼayli uchun" 1980
zorilang. Uchun qurʼayli uchun qurʼay qurʼay uchun urʼish.

«FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINING BOSHQARISHDA QO'LLANILISHI» MAVZUSI BO'YICHA FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mouseeva N.K.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207—233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiyamat tahlilidan foydalanish. 46—75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа». 172—187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231—236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81—90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

15-bob. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILINI TASHKIL QILISHDA KADRLARNI TANLASH VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

15.1. FQT bo‘limiga tanlab olinadigan kadrlarga qo‘yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko‘rsatkichlari

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar yildan-yilga erkinlashib bormoqda.

Bu erkinlashish o‘z navbatida murakkablashish jarayonini ham taqozo qiladi. Shunday murakkab vaziyatda ish ko‘radigan rahbar ana shu murakkab vaziyatlarning, chigal muammolarning yechimini topishlari lozim. Bu esa rahbardan o‘ta bilimdonlik bilan ma’lum tajribani ham talab qiladi.

Lekin shu bilan birga, rahbar bu keng qamrovli muammolarning hamma jihatlarini qamrab ololmasligi mumkin. Bunday sharoitda ular FQTdan keng foydalanishlari lozim. Shu jihatdan mulkdor zamonaviy rahbarlarga katta ishonch bildirish bilan birga, uning mehnatiga yarasha, yuqori miqdorda ish haqi to‘laydi. Bu jarayon ham bizda asta-sekinlik bilan tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Hozir xuddi shunday yuqori ish haqini qo‘shma korxonalar, xususiy firmalar to‘lamoqda.

Hozirgi rahbarlarga qo‘yiladigan talablar ham juda yuqori va ko‘pqirralidir. Bu borada M. Sharifxo‘jayev va Yo. Abdullayevlar quyidagilarini ta‘kidlaydi: «Rahbar – boshqaruvchi; rahbar – diplomat; rahbar – murabbiy, tarbiyachi; rahbar – inson; rahbar – tadbirkor; rahbar – innovator sifatida maydonga chiqadi».

Ko‘rinib turibdiki, bugungi rahbar haqiqatda ko‘p qirrali, har tomonlama yetuk bo‘lishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fazilatlarning birortasi bo‘lmasa ham rahbar to‘laqonli bo‘lishi qiyin kechadi.

Rahbar yaxshi inson, murabbiy, tarbiyachi bo'lishi mumkin. Ammo bugungi kunda agar u tadbirkor, innovator bo'lmasa ishni barbod qilishi tabiiy. Xuddi shunday u tadbirkor, innovator bo'lsayu yaxshi boshqaruvchi, diplomat bo'lmasa ham ish yaxshi ketmasligi, o'zi ko'p ishlab jamoa tomoshabin bo'lib turishi mumkin. Bu ham hozirgi zamонавији rahbarga yetarli emas. Rahbar hamisha juda ta'sirchan qarorlarni qabul qilishi lozim. Bu esa uning faoliyatida FQTdan foydalanishni taqozo qiladi.

Bulardan kelib chiqib nafaqat rahbarning, balki FQT bilan shug'ullanadigan mutaxassisning fazilati xususida ham to'xtalishni lozim deb hisoblaymiz.

FQT bilan shug'ullanadigan xodim, odatda, rahbar singari bilimdon va unda mavjud fazilatlarga ham ega bo'lishlari lozim. Bulardagi fazilatlarning mazmunini ochishdan oldin fazilat atamasining nimaligini anglab olishi lozim.

M. Sharifxo'jayev va Yo. Abdullayevlar: «Fazilat – bu ijobjiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyatdir», deb ta'kidlaydilar. Biroq fazilat ushbu tushunchadan kengroq ma'noga egadek. Fazilat insonga xos ijobjiy xislat bo'lib, o'z ichiga insonning bir qancha qirralarini oladi. Masalan, insondagi yuksak axloq, madaniyat, intizom kabi fazilatlar ham borki, ularni ham fazilatdan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.

Zero, rahbar fazilati ma'lum darajada inson fazilatidan ko'proq va kengroq bo'lishi mumkin. Chunki, oddiy inson yaxshi odam bo'la turib 20 ta yaxshi fazilatga ega bo'lsa, rahbarda va FQT mutasaddisida unga nisbatan 2–3 barobar mas'uliyat bor. Demak, undagi ijobjiy fazilatlar ham shunga mos ravishda ko'p bo'lishi lozim.

FQT mutasaddisining fazilatlarini rahbarning fazilatlariga tenglashtirish mumkin. FQT mutasaddisi va rahbar fazilati juda keng qamrovli tushunchadir.

Bu FQT mutasaddisi va rahbarlarda bo'ladigan umumiyligi fazilatlarning bir qismidir. Ammo FQT mutasaddisida rahbarlardagi shu fazilatlar bilan birga yana bir qancha o'ziga xos

fazilatlar ham bo‘lishni taqozo qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- yuksak intizom sohibi bo‘lish;
- mas’uliyat va javobgarlikni his qilish;
- yuqori huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- qonunga qattiq rioya qilishda o‘ziga va qo‘l ostidagilarga talabchan;
- hujjatlashtirishda halollik, to‘g‘rilik, izchillik va o‘z vaqtida bajarilishiga erishish;
- hamkorlari bilan yaxshi muomala va munosabatlarda o‘ta ziyraklik, xush muomalalik;
- masalani hal qilishda homiylik;
- o‘z manfaatini jamoa va davlat manfaatidan ustun qo‘ymaslik hamda shu o‘rinda jamoaning manfaati va davlat manfaatini uyg‘un holda tasavvur qilishlik.

Bularning hammasi mujassam bo‘lgan xodimgina FQT sohasini yaxshi biladi va uni to‘g‘ri bajara oladi. Shundagina, ular tomonidan ishlab chiqilgan tadbirlar yuqori samara berishlari mumkin.

Ayrim adabiyotlarda FQT uchun tanlab olinadigan kadrlarga bir qancha talablar qo‘yadilar. Bunda uning haqiqiy va etalon bahosi aniqlanadi hamda solishtiriladi. Buning uchun 15.1-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz.

15. 1-jadval.

FQT bo‘limiga tanlab olinadigan kadrlarga qo‘yiladigan talablar,
mezonlar va ularning sifat ko‘rsatkichlari

No	Kadrning sifat ko‘rsatkichlarining taxminiy ro‘yxati	O‘zining bahosi	Etalon bahosi	Ekspert bahosi
I	Kadrning nazarly va tadqiqotchiлик sifati (N)			
1.1.	Odatdagi narsalarga noan'anaviy tarzda yondosha bilish qobiliyati	4	4,7	4,5

15. I-jadvalning davomi

1.2.	Asosiy narsani ajratib olish qibiliyati	4	4,66	5,0
1.3.	Texnik eruditisiyasi	4	4,58	4,2
1.4.	Yangi g'oyalarni qabul qilish va rivojlantirish qobiliyati	4	4,54	4,5
1.5.	Iqtisodiy bilimdonlik darajasi	4	4,5	4,0
1.6.	Dunyoqarashining kengligi	4	4,45	3,9
1.7.	Tanqidiy qaray olish qobiliyati	3	4,4	5,0
1.8.	Ilmiy-texnik qiziqishi	3	4,4	4,5
1.9.	Yangi g'oyalarni kirita olish qobiliyati	3	4,35	4,0
1.10.	Ilmiy-texnik sezgirligi (intuitsiyasi)	4	4,99	4,0
1.11.	Murakkab masalalarni qismlarga bo'la olish qobiliyati	3	4,27	3,8
O'rtacha ball		3,64	4,47	
II	Kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati (I)			
2.1.	Muammoni ko'ra bilish qobiliyati	4	4,79	4,9
2.2.	Korxonafaoliyati va uning asosiy vazifalari xususida axborotlarga ega bo'lishlik	4	4,75	4,5
2.3.	Yangiliklarni joriy qilish qobiliyati	4	4,71	5,0
2.4.	Turli bo'linmalar aloqadorligini muvofiqlashtirish qobiliyati	4	4,69	4,5

2.5.	Maqsadga erishishda qatiyatililik	4	4,58	4,6
2.6.	Tadqiqotning istiqbolini aniqlay olish qobiliyati	3	4,5	4,2
2.7.	Odamlarni jalb qilish qobiliyati	3	4,38	4,0
2.8.	Ijodiy muhitni yaratish qobiliyati	3	4,35	4,0
2.9.	Odamlarni ishontirish qobiliyati	3	4,33	4,5
O'rtacha ball		3,56	4,56	4,47
III Kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari				
3.1.	Ilmiy halollik	4	4,83	5,0
3.2.	Boshqalar g'oyasiga chidamliligi	4	4,58	4,5
3.3.	Faollik	3	4,5	4,5
3.4.	O'zini tutabilishlik, bosiqlik	4	4,42	4,0
3.5.	Boshqalar tashabbusini bo'g'maslik qobiliyati	3	4,42	4,0
3.6.	Boshqalarga hurmat	3	4,33	4,2
3.8.	Prinsiplilik	4	4,29	4,0
O'rtacha ball		3,5	4,45	4,4

Manba. Справочник по функционально-стоимостному анализу. Под ред. М.Г. Карпунина, Б.И. Майданчика. – М.: Финансы и статистика, 1988.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, FQT guruhiqa qabul qilish uchun xodimdan talab qilinadigan sifatlar uch guruhga bo'lingan.

Bularga kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati (11 ta ko'rsatkich bilan baholangan), kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati (9 ta ko'rsatkich bilan baholangan), kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari (8 ta ko'rsatkich bilan baholangan) kiradi.

Bular xodimlarning har bir ko'rsatkich bo'yicha o'zining bahosini, etalon bahosini va ekspert bahosini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar xodimlarni tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

FQTning navbatdagi bosqichi, uni o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab olinadigan kadrlarni ajratib olishdan iboratdir. Bularga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlarini ham ko'rib chiqish lozim. Ular ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

15.2. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari

Xodimlarning ishchanlik va shaxsiy sifatlari oddiy mutaxassisnikiga nisbatan ancha yuqori bo'lishi lozim. Ular bevosita ijrochilar emas, balki ijodiy xodimlardir. Shu tufayli xorijiy mamlakatlarda FQT xodimlariga eng yuqori stavkada oylik maoshini to'laydilar.

Xodimlarni FQTga jalb qilish uchun ularning insoniy va ishchanlik sifatlarini baholash lozim. Bunday bahoni amaldagi mezonga asosan xodimning o'zi va ekspertlar qo'yishlari mumkin. Ekspertlarning bahosi barcha ekspertlarning bahosini qo'shib ekspertlar soniga bo'lish orqali topiladi. Xodimga baho berish uchun uni juda yaxshi biladigan, birga uzoq yillar davomida ishlagan kishilardan foydalanish mumkin.

Bunda o'zini o'zi baholash muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim odamlar o'zlarini hech narsani bilmasa ham, o'zlarini bilimdon, ko'p narsa qo'lidan kelmasa ham juda ishchan qilib ko'rsatadigan va o'zini haqiqatda shunday his qiladiganlar juda

ko‘p. Madaniy saviyasi yuqori, yetuk insonlar hech mahal o‘zining imkoniyatini juda yuqori baholamaydi. O‘zini bilgan odam o‘ziga to‘g‘ri baho qo‘yadi. O‘zini bilmagan odam boshqa narsalarni ham mukammal bilishni xohlamaydilar, xohlasalar ham mukammal bila olmaydilar. Bunday shaxslarni FQT o‘tkazadigan tadqiqot guruhi qabul qilib bo‘lmaydi.

FQT o‘tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo‘yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko‘rsatkichlari 15.2-jadvalda keltirilgan.

15.2-jadval

**FQT o‘tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab
olinadigan kadrlarga qo‘yiladigan talablar, mezonlar
va ularning sifat ko‘rsatkichlari**

Nº	Kadrarning sifat ko‘rsatkichlarining taxmini ro‘yxati	O‘zining bahosi	Etalon bahosi	Ekspert bahosi
I Kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati (N)				
1.1.	Odatdagi narsalarga noan‘anaviy tarzda yondosha bilish qobiliyati	4	4,91	5,0
1.2.	Masalani hal qilishda kompleks yondosha bilish qobiliyati	4	4,85	5,0
1.3.	Asosiy narsani ajratib olish qibiliyati	4	4,82	4,5
1.4.	Ratsional fikrlash qibiliyati	4	4,41	4,8
1.5.	Yangi g‘oyalarni qabul qilish va rivojlantirish qibiliyati	4	4,77	4,5
1.6.	Umumlashtiraolish qibiliyati	4	4,73	5,0
1.7.	Tanqidiy qaray olish qibiliyati	4	4,69	5,0

15.2-jadvalning davomi

1.8.	Texnikaviy qiziqishligi	4	4,69	4,8
1.9.	Ilmiy-texnik sezgirligi (intuitsiyasi)	4	4,67	5,0
1.10.	Murakkab masalalarni qismlarga bo'la olish qobiliyati	4	4,65	5,0
1.11.	Dunyoqarashning kengligi	4	4,62	5,0
	O'rtacha ball	4	4,75	4,87
II	Kadroning tashkiliy va ishchanchilik sifati (I)			
2.1.	Jamoada ijodiy muhitni yaratish qobiliyati	4	5,0	5,0
2.2.	Muammoni ko'rabilish qobiliyati	4	5,0	5,0
2.3.	Tadqiqotning istiqbolini aniqlay olish qobiliyati	3	4,85	4,8
2.4.	Korxonafaoliyati va uning asosiy vazifalari xususida axborotlarga ega bo'lishlik	4	4,77	4,5
2.5	Texnik vazifalarни tushuntira bilish qobiliyati	4	4,75	5,0
2.6.	Odamlarni jalb qilish qobiliyati	4	4,77	5,0
2.7.	Qiyinchiliklar tug'ilganda yordam berish qobiliyati	4	4,63	5,0
2.8	Nutqining tushunarligi va mantiqiyligi	4	4,58	4,5
2.9	Odamlarni ishontirish qobiliyati	4	4,54	4,5
2.10.	Bir ishdan ikkinchisiga zudlik bilan moslashaolish qobiliyati	3	4,50	5,0

2.11.	Maqsadga erishishda qat'iyatlilik	4	4,50	5,0
	O'rtacha ball	3,82	4,71	4,85
III	Kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari			
3.1.	Hurmatliligi	3	4,83	5,0
3.2.	Ilmiy halollik	4	4,79	5,0
3.3.	Boshqalar tashabbusini bo'g'maslik qobiliyati	4	4,79	5,0
3.4.	Boshqalarga hurmat	4	4,75	4,5
3.5.	Boshqalar g'oyasiga chidamliligi	4	4,71	5,0
3.6.	Kirishuvchanlik	4	4,67	5,0
3.7.	Yumorni his qilishlik	3	4,67	4,0
3.8.	Prinsiplilik	4	4,65	5,0
3.9.	O'zini tutabiliishlik, bosiqlik	4	4,58	4,5
3.10.	Faollik	4	4,46	5,0
3.11.	Tanqidni to'g'ri qabul qilaolish qobiliyati	4	4,38	4,5
3.12.	O'z-o'zini tanqid qila olishlik	4	4,33	4,0
	O'rtacha ball	3,85	4,65	4,7

Manba. Справочник по функционально-стоимостному анализу. Под ред. М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика. –М.: Финансы и статистика, 1988.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, FQT ishchi guruhi rahbarligiga ham tanlab olish uchun xodimdan talab

qilinadigan sifatlar uch guruhga bo'lingan. Bularga kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati (11 ta ko'rsatkich bilan baholangan), kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati (11 ta ko'rsatkich bilan baholangan), kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari (12 ta ko'rsatkich bilan baholangan) kiradi. Mazkur mezonlar albatta juda murakkab mezonlardir.

Ammo inson tabiatini belgilovchi ushbu ko'rsatkichlar hali uni to'liq baholash uchun yetarli emas.

Amaliyot uchun qanday ko'rsatkichlar muhim bo'lsa, shunga mos ravishda ularning tarkibini ham, mohiyatliligini ham o'zgartiraverishi mumkin.

Kadrlarni tanlashda shuni inobatga olish lozimki, unga berilgan baholar, ya'ni eng avvalo, ekspertlarning bahosi bilan etalon bahosining miqdori solishtiriladi. Agar ular o'rtasida katta farq bo'lmasa, bunday kadrlarni belgilangan ishga qabul qilish mumkin.

Agar ekspertlar bahosi xodimning o'zi qo'ygan bahoden yuqori bo'lsa, ekspertlar uning qobiliyatini, ishchanligini, odamiyligini yaxshi biladi. Aks holda, ya'ni o'zi qo'ygan baho ekspertlar qo'ygan bahoga nisbatan yuqori bo'lsa, bilingki, bunday kishilar o'zlariga juda katta baho beradilar. Ulardan yuqori samaradorlikni kutish qiyin.

Chunki o'ziga yuqori baho berib yuradigan odamlar salgina ish qilib qo'ysa ham juda katta ish qilgandek o'zini his qiladi. Aslida uning bu ishi hali arzimagan bo'lishi mumkin. Bunday kadrlardan qochish kerak.

FQTda tadqiqot o'tkazadigan ishchi guruhi rahbari yuqorida ta'kidlanganlar bilan birgalikda yana quyidagi xislatlarni ham o'zida mujassam etishlari kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

- yuqori darajadagi faollik;
- maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik;
- odamlarni so'zi va faoliyati bilan ishontira bilish;
- bosiqliq va chidamlilik;
- tarbiyalanganlik, hushyorlik va sezgirlik;

— boshqalarning tashabbusiga hurmat bilan qarash va uning muhim jihatlariga tanqidiy yondoshib, uni tubdan, yanada takomillashtirish bo'yicha bosh qotira olishlik.

15.3. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zoligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari

FQTda o'tkaziladigan tadqiqot ishlari uchun ishchi guruhi tashkil qilinishi tabiiy.

Ammo uning a'zoligiga ham duch kelgan odamni qabul qilavermaydi.

Mazkur guruh a'zoligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari ham oldingilaridek, uch guruhga bo'linadi:

- kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati;
- kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati;
- kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari.

Har bir guruh ko'rsatkichlar ma'lum mezonlar bilan o'lchanadi.

Ushbu o'lchovlarning haqqoniyligini ta'minlash bugungi kunda juda muhimdir.

Zero, ish yaxshi yo'lg'a qo'yilgan joyda muvaffaqiyat, ish yaxshi qo'yilmasa, o'sha joyda barbod, beqarorlik, iqtisodiy inqiroz va hokazo bo'ladi.

Shu tufayli kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishlikdan nafaqat mazkur mehnat jamoasi yoki mulkdor, balki barcha subyektlar, xususan davlat, jamiyat ham ma'lum ma'noda yutadilar.

Bulardan ko'rinish turibdiki, iqtisodiyotga FQTni qo'llash barcha manfaatlar mushtarakligini ta'minlar ekan.

FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zolariga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari 15.3-jadvalda keltirilgan.

**FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zolariga tanlab
olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar
va ularning sifat ko'rsatkichlari**

№	Kadrning sifat ko'rsatkichlarning taxminiy ro'yxati	O'zining bahosi	Etalon bahosi	Ekspert bahosi
I	Kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati (N)			
1.1.	Odatdagi narsalarga noan'anaviy tarzda yondoshabilish qobiliyati	3	4,82	4,6
1.2.	Yangi g'oyalarni kiritish qibiliyati	4	4,75	4,8
1.3.	Ijodiy fantaziyaga egaligi	3	4,69	5,0
1.4.	Masalalarни hal qilishga kompleks yondoshish qibiliyati	3	4,67	4,8
1.5.	Yangi g'oyalarni qabul qilish va rivojlantirish qibiliyati	3	4,64	5,0
1.6.	Zudlik bilan tafakkur qilish qibiliyati	3	4,60	4,8
1.7.	Tanqidiy qaray olish qibiliyati	3	4,55	4,0
1.8.	Ilmiy-texnik sezgirligi (intuisiyasi)	3	4,50	4,0
1.9.	Ilg'ab olishliligi	3	4,46	4,0
O'rtacha ball		3,1	4,61	
II	Kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati (I)			
2.1.	Muammoni ko'rabilish qibiliyati	4	4,57	4,50

2.2.	Bir ishdan ikkinchisiga zudlik bilan moslashish qibiliyati	4	4,46	4,00
2.3.	Maqsadga erishishda qat'iyatlilik	3	4,33	4,00
2.4.	Korxona faoliyati va uning asosiy vazifalari xususida axborotlarga ega bo'lishlik	4	4,18	4,5
2.5.	Nutqining tushunarligi va mantiqiyligi	4	4,04	3,0
2.6.	Texnik vazifalarni tushuntira bilish qobiliyati	4	4,00	4,0
O'rtacha ball		3,83	4,26	4,00

III Kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari (A)

3.1.	Ilmiy halollik	4	4,83	4,0
3.2.	Boshqalarga hurmat	4	4,63	3,0
3.3.	Tanqidni qabul qilish qobiliyati	4	4,62	2,0
3.4.	Boshqalar g'oyasiga chidamliligi	4	4,58	2,0
3.5.	Faollik	4	4,46	4,0
3.6.	O'ziga tanqidiy qarash qobiliyati	4	4,41	3,0
3.7.	Prinsiplilik	4	4,25	3,0
3.8.	O'zini tutabilishlik, bosiqlik	4	4,16	3,0
3.9.	Tarbiyalanganlik darajasi va odobi	4	4,08	3,0
3.10.	Kirishuvchanlik qobiliyati	4	4,08	3,0
O'rtacha ball		4,03	4,39	3,0

Manba. Справочник по функционально-стоимостному анализу. Под ред. М.Г. Карпунина, Б.И. Майданчика. — М.: Финансы и статистика, 1988.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zolariga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari ham ancha jiddiy mezonlarni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu misolimizda kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati bo'yicha kadrning o'ziga o'zi qo'ygan bahosi o'rtacha 3,1 balni tashkil qiladi, ekspertlar bahosi esa 4,55 balni. Demak, bu ko'rsatkichlar bo'yicha mazkur kadrni ijobjiy baholash mumkin. Kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati ham o'zining o'ziga qo'ygan bahosidan ekspertlar qo'ygan bahosi yuqori. Mos ravishda, 3,83 va 4,0 balni tashkil qiladi. Ammo kadrlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari bo'yicha mazkur xodimni ushbu guruhga qabul qilib bo'lmaydi, chunki u o'zini o'zi 4,0 ball bilan baholagan bir paytda ekspertlarning o'rtacha bahosi 3,0 ballni tashkil qiladi. Ayniqsa, tanqidni qabul qilish qobiliyatini u o'zicha 4 ball bilan baholagan. Biroq, ekspertlar bahosi atigi 2,0 balni tashkil qiladi. Shuningdek, boshqalar g'oyasiga chidamliligini ham o'zi 4,0 ball bilan baholagan, ammo ekspertlarning bahosi bunda ham juda past, ya'ni 2,0 balni tashkil qilgan. FQTda ishtirok etadigan xodimlar uchun bu ikki sifat ham muhim. Shu tufayli uni mazkur guruhga qo'shish maqsadga muvofiq emas.

Mazkur misolda kadr o'zining nazariy va tadqiqotchilik sifatiga past baho qo'ygan. Bu holatni, boshqa guruhlar bo'yicha tahlil qilib ko'satkichlarni solishtirganda, uni kamtarligiga yo'yib bo'lmaydi. Bu mazkur kadrning o'ziga ishonchszligidan dalolat beradi. Demak, uning bu jihatni ham uni mazkur guruhga olishni maqsadga muvofiq emas, deb topish uchun asos bo'ladi.

Kadrlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun ham matritsa tuzish mumkin. Ushbu matritsa orqali kimlarning kimlar bilan ishlash yoki ishlamasligini bilib olish mumkin bo'ladi.

Buning uchun, masalan, 10 nafar xodim olinadi va ulardan kimlar bilan ishlashi so'raladi. U kimlar bilan ishlashni xohlasa uning oldiga «Q» belgisini qo'yib chiqadi, agar xohlamasa «O» belgisini qo'yadi. U holda matritsaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi (15.4-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yuqoridagi ustunlarda xodimlarning kimlar bilan ishlay olishi ko'rsatilgan. Jadvalning chap tarafida xodimlar ro'yxati keltirilgan. Ularning to'g'risida u bilan kim ishlay olishi ifoda etilgan. Masalan, 2-x katakdagi xodim shu 9 nafar kishidan faqat 5 nafari bilan ishlay olishini ko'rsatgan.

15.4-jadval

**Kadrlarning o'zaro munosabatlarni belgilovchi
matritsasi**

	1-x	2-x	3-x	4-x	5-x	6-x	7-x	8-x	9-x	10-x
1-x	J	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
2-x	Q	J	0	Q	0	Q	0	0	0	0
3-x	Q	0	J	Q	0	Q	Q	0	Q	Q
4-x	Q	Q	Q	J	0	Q	Q	Q	Q	Q
5-x	0	0	Q	Q	J	0	Q	0	Q	Q
6-x	Q	0	Q	Q	Q	J	Q	0	Q	0
7-x	Q	Q	0	Q	Q	Q	J	Q	0	Q
8-x	0	0	Q	Q	Q	Q	Q	J	Q	Q
9-x	0	Q	Q	Q	0	Q	Q	Q	J	0
10-x	Q	Q	0	Q	Q	0	Q	0	Q	J
Jami	6	5	6	9	5	7	8	4	7	6

Ammo bu xodim bilan boshqalardan faqat 3 kishigina ishlay olish istagini bildirgan. Shunday qilib, ushbu jadval bo'yicha xulosa qilinadigan bo'lsa, 4-x katakdagi xodim hamma 9 nafar kishi bilan ham ishlay olish istagini bildirgan. U bilan esa 8 nafar xodim ishlash istagini bildirgan. Yana bir diqqatga sazovor faktni keltirishni xohlar edik. Masalan, 1-x katakda joylashgan xodim bilan hamma 9 nafar kishi ishlashni xohlaganlar. Ammo uning o'zi faqat 6 nafar kishi bilan ishlay olishini ko'rsatgan. Demak, u hammaga, hatto o'zi yaxshi ko'rmasa ham, yaxshilik qiladi. Bu juda yaxshi xislat. Masalaning yana ikkinchi jihatni, bu xodim ayrim kishilar bilan keyin til topib ketishiga ishonchi yo'q ham bo'lishi mumkin. Ushbu matritsa shu xodimlar ichidan rahbarlarni tanlab olish imkoniyatini tug'diradi. Masalan, rahbarlikka birinchi nomzod 4-x katakda joylashgan xodim bo'lishi mumkin. Undan keyin 7-x katakda joylashgan xodimga to'xtalish mumkin. Agar shu xodimlar ichida demokratik yo'l bilan ovozga qo'yilsa 1-x xodimni saylashlari mumkin. Uning o'zi xohlamastra ham jamoa uning rahbar bo'lishini xohlaydilar.

15.4. FQT uchun kadrlarni tanlab olish bosqichlari

FQTni o'tkazish uchun kadrlarni tanlab olish ularni to'liq o'rganib chiqilgandan keyin amalga oshiriladi. Buning uchun kadrlarning har biri bo'yicha tegishli mezonlari, ko'rsatkichlari aniqlanishi, ular o'rtaсидаги о'заро munosabatlar matritsasi tuzilishi lozim. Hamma masalalar hal bo'lgach, endi nomzodlar ichidan FQT uchun kadrlar tanlab olish jarayoni boshlanadi. Bu ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich — kadrlarni dastlabki tanlab olinishi. FQTning texnik bo'limiga kadrlar bo'limi yoki mas'ul mutasaddi shaxslar tomonidan tanlab olinadi. Bu bosqichda mazkur sohaga nomzodlar ro'yxati tuziladi. Ro'yxatga kiritilishi uchun xodimlar quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- yuqori malaka va mutaxassislikka ega bo'lishi, iqtisodchi, muhandis kabi mutaxassisliklarga oid diplomga ega bo'lishi lozim;
- bir qancha malaka oshirish kurslarini o'tagan bo'lishi lozim;
- ixtirochilik va rasionalizatorlik xislatlariga ega bo'lishi, bu boroda sertifikat (guvohnoma)larga ega bo'lsa, ayni muddao;
- tashkiliy ishda tajribaga ega bo'lishligi;
- ilmiy-texnik konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etganligi;
- ijodiy jamoalarda ishtirok etishi bo'yicha tajribaga ega ekanligi;
- xodimning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi;
- xodimning ishchanligi va shaxsiy sifatlariga beriladigan tavsifnomalarining ijobiliyligi.

Xodimga beriladigan ushbu ma'lumotlarning hammasi ijobiliy bo'lsa, uni FQT guruhiga qabul qilish mumkin, agarda ushbu guruh bo'yicha tegishli kadrlar shakllantirilgan bo'lsa, ularni zaxiraga olib qo'yilishi ham mumkin.

FQTga kadrlarni qabul qilishda u haqdagi o'zining xulosasi, ekspertlar fikri, etalon ko'rsatkichlar va yuqorida keltirilgan xislatlar hamda hujjatlar to'liq o'r ganilgandan keyin mutasaddi shaxs nomzodlarning har biri bilan suhbatlashish uchun qanday savollarni berib, shubhaliroq jihatlarini atroflicha ochish uchun taxminiy savollarni ham tuzib qo'yadilar. So'ngra, ushbu savollarni aniqlovchi va oxirgi xulosaga keluvchi suhbat o'tkaziladi. Bu erda subyektivlikka yo'l qo'yilmasligi uchun suhbat chog'ida bir qancha mutasaddi kishilar ishtirok etishlari mumkin.

Ikkinci bosqich, bevosita kadrning shaxsiy va ishchanlik qobiliyatlari hamda sifatlarini aniqlashga qaratilgan. Buning uchun asos qilib ekspertlarning shu xodim bo'yicha bergen bahosi inobatga olinadi.

Kadrlarni tanlab olish uchun ekspertlar guruhiga 5–7 kishi kiritiladi. Bular, odatda, xodimlarni juda yaxshi biladigan, rahbarlardan, jamoat tashkilotlaridan, birga teng holatda ishlaydigan xodimlardan vakillar bo'lishlari shart. Ba'zi odamlar

o'zlarini rahbarlarga juda yaqin ko'rsatishga va ular oldida o'zini juda ishchan, ko'p ishlarni qilayotgan xodim sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Ammo uning haqiqiy qiyofasini o'zi bilan birga ishlayotgan xodimlar juda yaxshi bilishadi.

Ayrimlar borki o'zları bilan ishlaydigan xodimlar bilan juda yaxshi munosabatda bo'lishlari mumkin. Ammo rahbarlar bilan chiqisha olmasliklari ham mumkin. Bunday hollarda ijtimoiy tashkilotlarning vakillari xulosasi masalaning hal bo'lishiga asos bo'ladi. Bunday kishilar, odatda, o'zlariga ishonadigan kishilar bo'ladi. Bunday kadrlarni tarbiyalash mumkin.

Ushbu bosqich ham ancha murakkab bosqichlardan hisoblanadi. Shu tufayli unda ishtirok etadigan ekspertlarga qo'yiladigan talablar ham jiddiy. Xususan:

— ular nomzodlarni birga faoliyat ko'rsatgan xodimlar sifatida juda yaxshi bilishlari lozim;

— ma'muriy holatda ular bir-biriga bog'liq bo'limgan bo'lishlari shart, ya'ni baholovchi baholayotgan nomzodiga tobe yoki uning teskarisi bo'lmasliklari lozim;

— masalaga prinsipial yondoshadigan, halol, obyektiv, g'oyaviy bosiq bo'lishlari lozim;

— tajang, baxil, ko'ra olmaydigan bo'lmasliklari juda muhim;

— kadrga yondoshganda o'z manfaatini emas, balki jamoa va jamiyat manfaatini ko'proq o'ylashlari va o'z manfaatini shu manfaatlar bilan uyg'un holda his qilishlari lozim.

Shunday ekspertlarga xodimlarga to'g'ri va odilona baho bera oladi. Ekspertlar har bir nomzodga baho berganda bir-biridan mustasno ravishda maxfiy tarzda baho beradilar. Ularda nomzodlar to'g'risida maslahatlashish imkoniyati bo'lmasligi lozim. Hammaning bahosi oydinlashgandan keyin ko'pidan ozchilikni tanlab olishda maslahatlashishlari mumkin.

Shunday qilib, FQT bo'yicha kadrlar shakllanadi. Ular FQTni o'z ishlari bilan birga olib borishlari ham mumkin. Agar korxona yoki kompaniya juda yirik bo'lsa doimiy faoliyat ko'rsatadigan FQT guruhi ham tuzilishi mumkin. Har qanday vaziyatda FQT

bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar jamoaning eng bilimdon, yetakchi a’zolaridan tarkib topadi. FQT ijodiy, mas’uliyatli va murakkab bo‘lganligi tufayli ularga shartnoma asosida yuqori ish haqi to‘lashni taqozo qiladi.

1. Tayanch iboralar va muhim atamalarning ta’riflari

FQTga rahbarlik qiladigan mutasaddida mavjud bo‘ladigan xislatlar quyidagilardan iborat: qanoatlilik, dovyuraklilik, sabrlilik, yaxshi niyatlilik, sog‘lom shubhalilik, kamtarlik, samimiy xush muomalalik, rahmdillik, xush xulqlik.

Kadrlarni tanlashda ularning sifat ko‘rsatkichlari quyidagi uch guruhga bo‘linadi. Bularga: kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifati; kadrning tashkiliy va ishchanlik sifati; kadrlarning ijtimoiy-ahloqiy sifatlari kiradi.

Nomzodlar ichidan FQT uchun kadrlar tanlab olish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Bugungi kun rahbari-bosh-qaruvchi, diplomat, murabbiy, tarbiyachi, inson, tadbirkor, innovator sifatida maydonga chiqadigan jasur shaxs bo‘lishi lozim.

Kadrlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun matritsa tuziladi va ular orqali kimlarning kimlar bilan ishlash yoki ishlamasligini, ya’ni kelisha olishligi yoki kelisha olmasligini bilib olish mumkin bo‘ladi. FQTda ishtirok etadigan ekspertlarga juda jiddiy talab qo‘yiladi.

2. Ushbu mavzu bo‘yicha bilishi lozim bo‘lgan va o‘zini-o‘zi nazorat qilish uchun belgilangan savollar

1. FQT bo‘limiga tanlab olinadigan kadrlarga qo‘yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko‘rsatkichlari qanday bo‘ladi?

2. Kadrning nazariy va tadqiqotchilik sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlarga qanday ko‘rsatkichlar kiradi?

3. Kadrning tashkiliy va ishchanlik sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlarga qanday ko‘rsatkichlar kiradi?

4. Kadrlarning ijtimoiy – ahloqiy sifatlarini belgilovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?

5. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mez'onlar va ularning sifat ko'rsatkichlarini aytib bering.

6. Kadrning o'ziga o'zi qo'ygan bahosi nima uchun kerak?

7. Kadrlarga qo'yiladigan etalon baho nimani anglatadi?

8. Kadrga qo'yiladigan ekspertlarning bahosi nimani anglatadi va ularning o'rtacha miqdori qanday aniqlanadi?

9. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zoligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mez'onlar va ularning sifat ko'rsatkichlari, nimalardan iborat?

10. Kadrlar matritsasi nima va u nima uchun kerak?

11. FQT uchun kadrlarni tanlab olish bosqichlari nimalardan iborat?

3. Ushbu mavzu bo'yicha amaliy masalalar hamda topshiriqlar

1. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozilgan ma'ruzalarni va chop etilgan adabiyotlarni to'liq o'rganadi. Bilishi lozim bo'lgan barcha savollarga yozma ravishda javob yozadi va ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'ladi.

2. Mazkur mavzu bo'yicha har bir talaba 3 tadan ko'rgazmali vosita tayyorlaydi. Bular jadval, chizma, diagramma, formula kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

3. Ushbu mavzu bo'yicha har bir talaba mustaqil ravishda 5 tadan test tuzadi.

4. Ushbu mavzu bo'yicha talaba 3 tadan masala tuzadi va bir-birlariga yechish uchun taviya qilishadi.

5. Ushbu mavzu bo'yicha barcha bilimlarini umumlashtirib, uni amaliyotga qo'llash bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

4. Mavzuni o'zlashtirish va nazorat qilish shakllari

Talaba mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun ma'ruza tinglaydi, masalalar yechadi, amaliy topshiriqlarni bajaradi, kalitli so'zlar, iboralar va muhim atamalarni yodlaydi, agar shu mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar chop etigan bo'lsa, konspekt yozadi va muallif qarashlari bo'yicha o'z fikrini ifoda etadi. Ushbu mavzu bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Nazorat shakli yozma, og'zaki va test shakllarida amalga oshiriladi. Yozma nazorat ko'pincha referat shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Mavzu ustida mustaqil ishslash uchun savollar va ularning nazorati

Mazkur mavzu ustida mustaqil ishslash uchun talaba (magistr)lar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:

- mavzu bo'yicha darsda yozgan konspektini o'rganadi;
- mavzu bo'yicha tarqatma materiallar va slaydlar bilan tanishib chiqadi;
- mavzu bo'yicha chop qilingan adabiyotlarni o'rganadi va konspekt yozadi;
- o'qituvchi topshirig'iga binoan ushbu mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar va bir qancha masalalar tayyorlaydi, testlar tuzadi, referat yozadi va uni yoqlaydi;
- yoqlash jarayoni seminar tarzida, fikrlar hujumini va evristik tahlil usullarini qo'llagan holda keng bahs-munozara shaklida o'tkaziladi.

Mustaqil ishning nazorati ham odatdagidek yozma, og'zaki va test savollari bilan amalga oshiriladi hamda berilgan topshiriqlarni qanday bajarganligiga ham qaraladi. Natija reyting asosida 100 ballik tizim bilan baholanadi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. *Мусеева Н.К.* Функционально стоимостной анализ в машиностроении.—М.: Машиностроение.— 1987.
2. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 12-bob. Funksional qiymat tahlili metodologiyasi. 207–233 betlar.
3. *Pardayev M.Q., Pardayev I.R.* Korxona rahbari va uning boshqarish usullari. Samarqand. SamDU, 2004. 9-savol. Boshqarishda funksional-qiymat tahlilidan foydalanish. 46–75 betlar.
4. *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Минск: ООО «Новое знание», 2000. Гл. 9. «Методика функционально-стоимостного анализа» .172–187 бетлар.
5. Справочник по функционально стоимостному анализу. Под ред. *М.Г.Карпунина, Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1988.
6. Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. Под ред. Проф. *А.Д.Шеремета.* —М.: Прогресс, 1982.- & 3.7. «Функционально-стоимостной анализ (анализ затрат на основе потребительной стоимости)» -231–236 бетлар.
7. *Xasanov B.A.* Boshqaruv hisobi: nazariya va ushubiyot. Monografiya. – Т.: Moliya, 2003. (Funksional qiymat tahlili – boshqaruv hisobining samarali vositasi 81–90 betlar).
8. Функционально стоимостной анализ издержек производства. Под ред. *Б.И.Майданчика.* —М.: Финансы и статистика, 1985.

MUNDARIJA

Kirish.....3

1-bob. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning samaradorligini oshirishdagi zarurligi va vazifalari

1.1. Funksional qiymat tahlili (FQT)ning bozor munosabatlari sharoitida obyektiv zarurligi.....	6
1.2. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishdagi roli.....	8
1.3. Funksional qiymat tahlilining bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari.....	9

2-bob. Funksional qiymat tahlilining shakllanish va rivojlanish tarixi

2.1. Funksional qiymat tahlilining shakllanish tarixi.....	17
2.2. Funksional qiymat tahlilining jahon amaliyotida vujudga kelish tarixi.....	19
2.3. Funksional qiymat tahlilining O'zbekistonda yaratilish tarixi.....	21

3-bob. Funksional qiymat tahlilining iqtisodiy tahlil tizimidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari va unda qo'llaniladigan tamoyillar

3.1. Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning shakli ekanligi.....	26
3.2. Funksional qiymat tahlilining o'ziga xos xususiyatlari.....	27
3.3. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan tamoyillar.....	29

4-bob. Funksional qiymat tahlilini amalga oshirish bosqichlari

4.1. Funksional qiymat tahlilini amalga oshirish sharoitlari va bosqichlarining ketma-ketligi.....	37
----------------------------------------------------------------------------------------------------	----

4.2. Funksional qiymat tahlili har bir bosqichining qisqacha tasnifi.....	40
---------------------------------------------------------------------------	----

5-bob. Funksional qiymat tahliliga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi

5.1. Funksional qiymat tahliliga tegishli obyektlarni tanlashdagi yondoshuvlar va mezonlar.....	50
5.2. Funksional qiymat tahliliga tanlangan obyektlarni tahlilga tayyorlash.....	53
5.3. Funksional qiymat tahlilini o‘tkazadigan guruhlarni tuzish tartibi.....	56

6-bob. Funksional qiymat tahlilida axborotlarni to‘plash bosqichi

6.1. FQTda qo‘llaniladigan axborotlarni to‘plash va ularni ma’lum darajada tartibga keltirish.....	62
6.2. FQTda qo‘llaniladigan axborotlar tizimi.....	

7-bob. Funksional qiymat tahlilida masalaning mohiyatini o‘rganish bosqichi

7.1. O‘rganilayotgan obyektda mavjud funksiyalarni aniqlash, tasniflash va tavsiflash.....	75
7.2. O‘rganilayotgan obyektning tashqi muhit bilan bog‘liq funksiyalari.....	80
7.3. O‘rganilayotgan obyektda ichki muhit bilan bog‘liq funksiyalari.....	81
7.4. Funksiyalarni tahlil qilish bosqichi va yo‘llari	83
7.5. FQTda xarajatlarni kolkulyatsiyasi bo‘yicha turkumlash va ularni funksiyalar bo‘yicha taqsimlash.....	86

8-bob. Funksional qiymat tahlilida ijodiy bosqich

8.1. Ijodiy bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari.....	92
8.2. Ijodiy bosqichning turlari va tasnifi.....	94

9-bob. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan evristik usullar

9.1. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan evristik usullarning turlari.....	102
9.2. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan evristik usullarning tavsifi.....	103

10-bob. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» va boshqa ijodiy usullar

10.1. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usulining mohyati va uning alohida turlari.....	112
10.2. Funksional qiymat tahlilida qo'llaniladigan «Fikrlar hujumi» usullarining tavsifi.....	114

11-bob. Funksional qiymat tahlilida tadqiqot bosqichi

11.1. Funksiyalarni amalga oshirishni tadqiq qilish va ularni baholash usullari.....	121
11.2. Funksiyalarni texnik-iqtisodiy baholash va uni amalga oshirish usullari.....	126
11.3. Tarkibiy xarajatdorlik usulining mohiyati.....	127
11.4. Elementli koeffitsiyentlilik usulining mazmuni.....	129

12-bob. Funksional qiymat tahlilining ishlab chiqarishda qo'llanilishi

12.1. Funksional qiymat tahlilining ishlab chiqarishda qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari.....	136
12.2. IChTda funksional qiymat tahlili uchun obyektni tanlash va shu obyekt bo'yicha ma'lumotlarni to'plash.....	138
12.3. Ishlab chiqarish tizimi faoliyatini sifatini baholash.....	

13-bob. Funksional qiymat tahlilining sayyohlik sohasida qo'llanilishi

13.1. Mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishida sayyohlikning roli.....	147
------------------------------------------------------------------------------	-----

13.2. Sayyohlikni rivojlantirishda FQTdan foydalanish.....150

***14-bob. Funksional qiymat tahlilining boshqarishda
qo'llanilishi***

14.1. FQTning boshqaruvdag'i vazifalari.....	158
14.2. FQTni boshqarishda qo'llaniladigan usullari.....	159
14.3. Rahbarning boshqaruv uslubi va unda FQTdan foydalanish.....	163

***15-bob. Funksional qiymat tahlilini tashkil qilishda
kadrlarni tanlash va ularga qo'yiladigan talablar***

15.1. FQT bo'limiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari.....	174
15.2. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi rahbarligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari.....	179
15.3. FQT o'tkazadigan tadqiqot ishchi guruhi a'zoligiga tanlab olinadigan kadrlarga qo'yiladigan talablar, mezonlar va ularning sifat ko'rsatkichlari.....	184
15.4. FQT uchun kadrlarni tanlab olish bosqichlari.....	189

Mamayunus Qarshiboyevich PARDAYEV

Baxodir Akramovich XASANOV

Begmatjon Yuldasaliyevich MAXSUDOV

Dildora Anvarovna ZULUNOVA

FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILI

Muharrir Xudoyerberdi Po'latxo'jayev

Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova

22-dab. Funksional qiymat tahliliing nafz
elobjektida qo'shlashda

12.1. Funksional qiymat tahliliing nafzi

12.2. Funksional qiymat tahliliing nafzi

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 18.09.2012. Bichimi
60x84^{1/16}. Tayms TAD garniturası. Shartli b.t. 11,62. Nashr b.t. 9,12.
Shartnoma № 71—2012. 500 nusxada. Buyurtma № T-45-1.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lon nomidagi nashri-
yot-matbaa ijodi yuvi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi 1-uy.

14800 C